



D.M.SHOMURODOVA,
M.I.ABDURAXMONOVA

«AVTOMATIKA ASOSLARI»





664.658
M.78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

D.M.SHOMURODOVA,
M.I.ABDURAXMONOVA

AVTOMATIKA ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

BUXORO - 2011



"Avtomatika asoslari" o'quv qo'llanmasida avtomatika asoslarining asosiy bo'lmlari metrologiyani asosiy tushunchalari, texnologik kattaliklar o'zgartigichlari, texnologik kattaliklar, nazorat qilish usullari va asboblari, avtomatika elementlaridan kuchaytirgichlar va relelar hamda masofadan turib o'lbash sistemalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanma asosan kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljalangan bo'lib, undan shu soha bo'yicha tahsil oluvchi talabalar, ilmiy va muhandis texnik xodimlar foydalanishlari mumkin.

TAQRIZCHILAR:

Texnika fanlari doktori, professor A.Artikov
Texnika fanlari nomzodi, dotsent O.Yodgorov

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
nashrga tavsija etilgan.**

(C) Buxoro "Texno-tasvir" 2011
234-11 b

KIRISII

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish mamlakatimizdagi sanoat korxonalarida mehnat unumдорligini oshirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, moddiy texnika bazasini yaratish hamda texnikani taraqqiy ettirishda asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqarishda qo'llash mehnat unumдорligini oshirib, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini, mehnat sharoitini yaxshilaydi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'mintaydi. Zamonaviy texnika hamda o'lchash, rostlash va boshqarish elementlari bilan jihozlangan texnologik tizimlarni ishlatish yuqori saviyali muhandislar zimmasiga yukланади. Ta'lif sistemasi tubdan o'zgartirishni ko'zda tutgan «Milliy dastur»ga ko'ra mualliflar oldiga o'quvchi-talabalar uchun fanlarning turli sohalari bo'yicha zamon talabiga javob beradigan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish vazifaları qo'yilgan. Mazkur «Avtomatika asoslari» fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanma kusb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan muhandislar, nazorat o'lchov asboblari hamda avtomatlashtirish vositalariga xizmat ko'rsatadigan kichik mutaxassislar ham foydalanshlari mumkin. Har qanday texnologik jarayonda ma'lum bir yoki bir necha texnologik kattalikr ishtirot etib, ular jarayonning borishida hamda mahsulot sifatini o'zgarishida asosiy o'rın egallaydi. Bu kattaliklarni esa nazorat o'lchov asboblari yordamida nazorat qilinadi, rostlagichlar yordamida rostlanadi va ijrochi mexanizmlar yordamida boshqariladi. «Avtomatika asoslari» fani bu asboblarning ishlashi, tuzilishi hamda turlarini o'rganib, ulani ishlab chiqarishda qo'llanish yo'llarini o'rgatadi.

1 - Bo'li. METROLOGIYA VA O'LCHASH TEXNIKASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

1.1 O'LCHASH TO'G'RISIDA UMLUMIY MA'LUMOT.

Xamir - ishchi yoki yarim fabrikatni tayyor mahsulotga aylantirish uchun yonitirilgan te'sirlar to'plamiga texnologik jarayon deb ataladi. Texnologik jarayon va tayyor mahsulot sifatini xarakterlaydigan har xil fizik kattaliklarga texnologik kattalik deb ataladi.

Her qanday texnologik jarayon quyidagi elementlardan tuzilgan:

- 1) oddiy ishchi jarayonlar;
- 2) boshqarish operatsiyalari;
- 3) nazorat operatsiyalari.

Oddiy ishchi jarayon o'z ichiga xaqiqiy ishchi jarayon, o'matish operatsiyalari, transport operatsiyalari va xizmat ko'rsatish operatsiyalarini oladi.

Masalan, non ishlab chiqarishda oddiy ishchi jarayon xamir bo'laklash mashinasida xamir zuvalalarini olish bo'lsa, o'matish operatsiyasi esa mashina ishchi organlurini aniq mahsulot yoki yarim fabrikat olishga mo'ljalab o'matishdir.

Transport operatsiyasida xamir zuvalalarini keyingi ishlov berish uchun (masalan xamir lo'ndash mashinasiga) uzatiladi.

Mashina yo'i agregatlarni tozalash va moylash xizmat ko'rsatish operatsiyasi bilan bajariladi.

Boshqarish operatsiyasi 2 turga bo'linadi:

a) jarayonni normal boshqarish - alohida jarayonlarni sifat va son ko'rsatkichlarini hamda ularni umumiy ishlab chiqarishda koordinatsiyasini boshqarish;

b) berilgan talab bo'yicha mashina va mexanizmlarni sozlash va o'matish.

Nazorat operatsiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) jarayon natijalarini berilgan talab bilan taqqoslash operatsiyasi;
- b) jarayon borishini himoyalash operatsiyasi (avariya holatida).

Nazorat qilinadigan kattaliklarga masalan, uzunlik, massa, hajm, harorat va bosimni kiritishi mumkin. Har bir kattalik aniq qiymatga ega bo'lishi mumkin. Texnologik kattalikni o'lchash orqali texnologik jarayon qaysi tomoniga oqayotganligini aniqlash mumkin.

Texnologik kattaliklarni qiymati berilgan qiymatdan o'zgarishi olinadigan mahsulotni sifat va son ko'rsatkichini o'zgarishiga olib keladi. Texnologik jarayoni borishi va natijada olinadigan mahsulot ko'rsatkichlarini aniqlash nazorat orqali amalga oshiriladi. Masalan, texnologik jarayonni to'g'ri borishi hamda ishlov berish jarayonida ko'pgina moddalarni holati bosimga bog'liqidir. Bosimni o'zgartirish qarab, texnologik jarayonda qatnashuvchi gaz, bug' va suyuqliklarni

ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bug' qozonidagi bug'ning bosirni qurilmalarni xavfsiz ishlashini ta'minlab, qolmasdan, qozon pechiga berilayotgan issiqlikni avtomatik rostlash uchun ham asosiy texnologik kattalik bo'lib hisoblanadi.

Bosimni avtomatik nazorat qilish presslash, bug'latish, uzlusiz ishlov berish jarayonlarida olib boriladi Oziq-ovqat sanoati texnologik jarayonlarida o'z vaqtida haroratni nazorat qilish chiqariladigan mahsulotni sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taralarни yuvish, tomat mahsulotlarini vakuumi apparatda qaynatish va hokazo.Ko'pgina uzlusiz jarayonlar har xil materiallarni keyingi ishlov berish uchun jixozlarda yig'ish bilan olib borildi.Shuning uchun yig'ilgan materiallarni o'z vaqtida nazorat qilmaslik texnologik jarayonni buzilishiga olib keladi.Materiallarni hisobga olishni eng tarqalgan usuli sathni o'lchashdir. Masalan, har xil qabul qiluvchi bunkerlarda, sig'implarda, achitish apparatlarda, qaynatish qozonlarida, bakhorda, vakuum - bug'latish qurilmalarda va hokazo.Moddalarning kimyoviy tarkibini o'zgarishi bilan (masalan, uzum sharbatini rangi va tiniqligi, tomat mahsulotini konsentratsiyasi, xonani nisbiy namligi, melassani konsentratsiyasi) jarayon natijasida olinadigan mahsulotni sifat ko'rsatkichlarini o'lchash kerak bo'ladi.Oziq-ovqat sanoatini kompleks avtomatlatalishda konsentratsiya, qovushqoqlik, namlik, pH-muhit va boshqa kattaliklarni o'z vaqtida o'lchash texnologik jarayonlarni optimal kechishini zaruriy shartlaridan biridir.Ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik quvurlarida bug', siqilgan havo, gaz va achitqilarini surf va miqdorini o'lchash uchun ishlataladigan surf haında miqdor o'lchagichlar ishlab chiqarishni avtomatlashtirish omillaridan biri.

O'lchash, o'lchash usullari, o'lchash turlari.

Biror kattalikni o'lchash - uni birlik sifatida qabul qilingan shunga o'xshash boshqa kattalik bilan taqqoslash demakdir.

Natijalar olish usuli bo'yicha o'lchashlar bevosita, bilvosita to'plamli va birgalikda o'lchash turlariga ajratiladi.

Bevosita o'lchashda o'lchanadigan kattalik bevosita o'lchaydigan asbob ko'rsatkichi bo'yicha yoki o'lchash vositasi orqali aniqlanadi (masalan, haroratni termometr yordamida o'lchash, uzunlik ni chizgich yordamida o'lchash);

Bilvosita o'lchashda aniqlanayotgan kattalik u bilan funksional bog'langan bir nechta kattaliklarni o'lchash orqali topiladi va funksional bog'langan tenglamalar yechiladi. Masalan (bir jinsli jism zichligini uning massa va geometrik razmerlari orqali aniqlash);

To'plamli o'lchashda aniqlanayotgan kattalik tenglamalar sistemasini yechish orqali topiladi. Ko'rinishi aniq bo'lgan tenglamalar sistemasiga kiritiladigan kattaliklarni qiymati bevosita o'lchash orqali aniqlanadi (masalan, issiqlikdan chiziqli kengayish koefitsenti).

Birgalikda o'lchash. Ikki yoki bir nechta har xil kattaliklar bir vaqtida o'talaridagi bog'lanishni aniqlash orqali topiladi: (masalan, gaz havo sarfi muvofiqligini o'lchash).

"Avtomatika asoslari" o'quv qo'llanmasini avtomatika asosla, ining asosiy bo'limg'ari metrologiyani asosiy tushunchalari, texnologik kattaliklar o'zgartgichlari, texnologik kattaliklar, nazorat qilish usullari va asboblari, avtomatika elementlaridan kuchaytirgichlar va relelar hamda masofadan turib o'lehash sistemalari to'g'risida umumiy ma'lumotlar berilgan. O'quv qo'llanma asosan kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljalangan bo'lib, undan shu soha bo'yicha tahsil oluvchi talabalar, ilmiy va muhandis texnik xodimlar foydalanishlari mumkin.

TAQRIZCHALAR:

Texnika fanlari doktori, professor A.Artikov

Texnika fanlari nomzodi, dotsent O.Yodgorov

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mabkamasi tomonida
nashrga taysiya etilgan

(C) Buxoro "Texno-tasvir" 2001

234/176

KIRISH

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish mamlakatimizdagi sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishni jadallashtirish, moddiy texnika bazasini yaratish hamda texnikani taraqqiy ettirishda asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Avtomatlashtirish vositalarini ishlab chiqarishda qo'llash mehnat unumdorligini oshirib, ishlab chiqariladigan mahsulot sifatini, mehnat sharoitini yaxshilaydi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Zamonaliv texnika hamda o'lchash, rostlash va boshqarish elementlari bilan jihozlangan texnologik tizimlarni ishlashit yuqori saviyiali muhandislar zimmasiga yuklanadi. Ta'lim sistemasini tubdan o'zgartirishni ko'zda tutgan «Milliy dastur»ga ko'ra mualliflar oldiga o'quvchi-talabalar uchun fanlarning turli sohalari bo'yicha zamон talabiga javob beradigan darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish vazifaları qo'yilgan. Mazkur «Avtomatika asoslari» fanidan tayyorlangan o'quv qo'llanma kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan muhandislar, nazorat o'lchov asboblari hamda avtomatlashtirish vositalariga xizmat ko'rsatadigan kichik mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin. Har qanday texnologik jarayonda ma'lum bir yoki bir necha texnologik kattalikr ishtirok etib, ular jarayonning horishida hamda mahsulot sifatini o'zgarishida asosiy o'rın egallaydi. Bu kattaliklarni esa nazorat o'lchov asboblari yordamida nazorat qilinadi, rostlagichlar yordamida rostlanadi va ijrochi mexanizmlar yordamida boshqariladi. «Avtomatika asoslari» fani bu asboblarning ishlashi, tuzilishi hamda turlarini o'rganib, ularni ishlab chiqarishda qo'llanish yo'llarini o'rgatadi.

1.1 O'LCHASH TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Xom - ushyo yoki yarim fabrikatni tayyor mahsulotga aylantirish uchun yo'naitirilgan tu'sirlar to'plamiga texnologik jarayon deb ataladi. Texnologik jarayon va tayyor mahsulot sifatini xarakterlaydigan har xil fizik kattaliklarga texnologik kattaik deb ataladi.

Har qanday texnologik jarayon quyidagi elementlardan tuzilgan:

- 1) oddiy ishchi jarayonlar;
- 2) boshqarish operatsiyalar;
- 3) nazorat operatsiyalar.

Oddiy ishchi jarayon o'z ichiga xaqiqiy ishchi jarayon, o'matish operatsiyalar, transport operatsiyalar va xizmat ko'rsatish operatsiyalarini oladi.

Masalan, non ishlab chiqarishda oddiy ishchi jarayon xamir bo'laklash mashinasida xamir zuvalalarini olish bo'lsa, o'matish operatsiyasi esa mashina ishchi organlari aniq mahsulot yoki yarim fabrikat olishga mo'ljallab o'matishdir.

Transport operatsiyasida xamir zuvalalarini keyingi ishlov berish uchun (masalan xamir lo'ndalash mashinasiga) uzatiladi.

Mashina yo'i agregatlarni tozalash va moylash xizmat ko'rsatish operatsiyasi bilan bajariladi.

Boshqarish operatsiyasi 2 turga bo'linadi:

a) jarayonni normal boshqarish - alohida jarayonlarni sifat va son ko'rsatkichlarini hamda ularni umumiy ishlab chiqarishda koordinatsiyasini boshqarish;

b) berilgan talab bo'yicha mashina va mexanizmlarni sozlash va o'matish.

Nazorat operatsiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) jarayon natijalarini berilgan talab bilan taqqoslash operatsiyasi;
- b) jarayon borishini himoyalash operatsiyasi (avariya holatida).

Nazorat qilinadigan kattaliklarga masalan, uzunlik, massa, hajm, harorat va bosimni kiritish mumkin. Har bir kattalik aniq qiymatga ega bo'lishi mumkin. Texnologik kattalikni o'lchash orqali texnologik jarayon qaysi tomonga oqayotganiligini aniqlash mumkin.

Texnologik kattaliklarni qiymati berilgan qiymatdan o'zgarishi olinadigan mahsulotni sifat va son ko'rsatkichini o'zgarishiga olib keladi. Texnologik jarayonni borishi va natijada olinadigan mahsulot ko'rsatkichlarini aniqlash nazorat orqali amalga oshiriladi. Masalan, texnologik jarayonni to'g'ri borishi hamda ishlov berish jarayomda ko'pgina moddalarni holati bosimga bog'liqdir. Bosimni o'zgarishiga qarab, texnologik jarayonda qatnashuvchi gaz, bug' va suyuqliklarni son

ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bug' qozonidagi bug'ning bosirni qurilmalarni xavfsiz ishlashini ta'minlab, qolmasdan, qozon pechiga berilayotgan issiqlikni avtomatik rostlash uchun ham asosiy texnologik kattalik bo'lib hisoblanadi.

Bosimni avtomatik nazorat qilish presslash, bug'latish, uzlusiz ishlov berish jarayonlarida olib boriladi.Oziq-ovqat sanoati texnologik jarayonlarida o'z vaqtida haroratni nazorat qilish chiqariladigan mahsulotni sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, taralarmi yuvish, tomat mahsulotlarini vakuum apparatda qaynatish va hokazo.Ko'pgina uzlusiz jarayonlar har xil materiallarni keyingi ishlov berish uchun jixozlarda yig'ish bilan olib boriladi.Shuning uchun yig'ilgan materiallarni o'z vaqtida nazorat qilmaslik texnologik jarayonni buzilishiga olib keladi.Materiallarni hisobga olishni eng tarqalgan usuli sathni o'lchashdir. Masalan, har xil qabul qiluvchi bunkerlarda, sig'implarda, achitish apparatlarda, qaynatish qozonlarida, baklarda, vakuum - bug'latish qurilmalarda va hokazo.Moddalarning kimyoviy tarkibini o'zgarishi bilan (masalan, uzum sharbatini rangi va tiniqligi, tomat mahsulotini konsentratsiyasi, xonani nisbiy namligi. niklassani konsentratsiyasi) jarayon natijasida olinadigan mahsulotni sifat ko'rsatkichlarini o'lchash kerak bo'ladi.Oziq-ovqat sanoatini kompleks avtomatlari shda konsentratsiya. qovushqoqlik, namlik, pH-muhit va boshqa kattaliklarni o'z vaqtida o'lchash texnologik jarayonlarni optimal kechishini zaruriy shartlaridan biridir.Ishlab chiqarish jarayonlarini texnologik quvurlarida bug', siqilgan havo, gaz va achitqilarini surf va miqdorini o'lchash uchun ishlatiladigan surf hamda miqdor o'lchagichlar ishlab chiqarishni avtomatlashtirish omillaridan biri.

O'lchash, o'lchash usullari, o'lchash turlari.

Biror kattalikni o'lchash - uni birlik sifatida qabul qilingan shunga o'xshash boshqa kattalik bilan taqqoslash demakdir.

Natijalar olish usuli bo'yicha o'lchashlar bevosita, bilvosita to'plamli va birgalikda o'lchash turlariga ajratiladi.

Bevosita o'lchashda o'lchanadigan kattalik bevosita o'lchaydigan asbob ko'rsatkichi bo'yicha yoki o'lchash vositasi orqali aniqlanadi (masalan, haroratni termometr yordamida o'lchash. uzunlik ni chizgich yordamida o'lchash);

Bilvosita o'lchashda aniqlanayotgan kattalik u bilan funksional bog'langan bir nechta kattaliklarni o'lchash orqali topiladi va funksional bog'langan tenglamalar yechiladi. Masalan (bir jinsli jism zichligini uning massa va geometrik razmerlari orqali aniqlash);

To'plamli o'lchashda aniqlanayotgan kattalik tenglamalar sistemasini yechish orqali topiladi. Ko'rinishi aniq bo'lgan tenglamalar sistemasiga kiritiladigan kattaliklarni qiymati bevosita o'lchash orqali aniqlanadi (masalan, issiqlikdan chiziqli kengayish koefitsenti).

Birgalikda o'lchash. Ikki yoki bir nechta har xil kattaliklar bir vaqtida o'talaridagi bog'lanishni aniqlash orqali topiladi; (masalan, gaz havo sarfi muvofiqligini o'lchash).

Birgalikda va to'plamli o'lhash asosan ilmiy tadqiqot ishlarini hajarishda qo'llaniladi. Bevosita o'lhash quyidagi o'lhash usullari yordamida olib boriladi.

1. Bevosita baholash usuli.
2. Differensial usul.
3. Kompensatsion yoki nolga keltirish usuli.
4. Solishtirish usuli.

Bevosita baholash usuli o'lchanadigan kattalikni bevosita o'lhash asbobini chiqish signaliga aylantirishga asoslangan. Bu usul oddiy va tezkorligi bilan sanoat o'lchov asboblariiga keng tarqalgan (masalan, stol uzunligini chizgich yordamida o'lhash, bosimni manometr bilan o'lhash).

Differensial usulda o'lchanadigan kattalik boshqa aniq kattalik bilan tenglashtirizib o'tasidagi farq o'lchanadi. Bu usul moddalarni tarkibi va xossalarni o'lhashda ishlataladi.

Solishtirish usulida o'lchanadigan kattalik va o'lhash vositasi bir vaqtida solishtirish asbobiga ta'sir qilib, o'tasidagi bog'liqlik aniqlanadi (masalan, avtomatik tarozilar).

Kompensatsion usulda o'lchanadigan kattalik va aniq kattalik bir - biri bilan solishtirilib, o'tasidagi farqi nolga keltiriladi (masalan, avtomatik muvozanat ko'priklar va avtomatik potensiometrlar).

Asosiy metrologik tushuuchalar.

Texnologik jarayonlarni boshqarish, nazorat qilish va rostlash mahsulot sifatini va ob'ektning texnologik kattaliklarini maqsadga muvofiq o'zgarishi to'g'risidagi va shuningdek energiya hamda moddiy resurslarning miqdor o'zgarishlari to'g'risidagi ko'p sonli o'lchov axborotlariga ishlov berish asosida olib boriladi. Ishlab chiqarish jarayonlari borishida texnologik kattalik (harorat, bosim, og'irlik, zichlik, namlik, mekanik ko'chish, kuchlanish, tezlik va boshqalar) o'zgarishi to'g'risidagi axborot o'lchov asboblari yordamida olinadi. Shu tufayli avtomatlashtirishda o'lhash usullari, texnik vositalar va o'lhash texnikasi to'g'risidagi qonunlarga amal qilib, o'lhash aniqliklarini oshirishga katta e'tibor beriladi. Texnologik jarayon kattaliklarini o'lhash uning qay darajada borishi to'g'risida to'la ma'lumot olish imkonini beradi. Bu ma'lumot va kattaliklarning o'zgarishi esa o'lchov asboblari yordamida olindi.

O'lhash vositalari, usullari va o'lchov birliklari haqidagi fanga metrologiya deyiladi.

Belgilangan metrologik tavsifga ega bo'lib, o'lhashda qo'llaniladigan texnologik vositalari - o'lhash vositalari deyiladi.

Namunaviy sifatida tasdiqlanib, boshqa o'lhash vositalarini tekshirish uchun xizznat qiladigan o'lhash vositalari - namunaviy o'lhash vositalari deyiladi.

O'lhash o'zgartigichlari, o'lhash asboblari, o'lchov qurilmalari va o'lhash sistemalari - o'lhash vositalarining asosiy turlari hisoblanadi. Standart namunalar va

namunaviy narsalar - o'lchov hisoblanib, u aynan belgilangan jism yoki narsaning bo'lagidir. Bu narsalarning xususiyatlaridan biri shuki, ular aniq sharoitlarda ma'lum kattalik hisoblanadi. Masalan: qattqlik namunasi, namunaviy narsalar KSI, NaCl va boshqalar. O'lchanadigan kattalik o'lchov birliklari bilan solishtiriladi. O'lchev birliklari asosiy, hosilali, kogerent, butun va kasrli turlariga bo'linadi.

Asosiy birliklar boshqa qiymatlarga bog'liq bo'lmasdan o'rnatiladi. Masalan, metr, kilogramm va boshqalar.

Hosilali birliklar - fizik kattaliklarni boshqa birliklar sistemasini tenglamalar orqali aniqlashda hosil bo'lgan birliklar (masalan, 1 m^2 - SI sistemasida).

Kogorent birliklar - boshqa birliklar bilan tenglamalar sistemasi orqali bog'langan bo'lib, ulami sonli koefitsenti birlik deb qabul qilingan birliklar (masalan, tezlik birligi $\frac{\text{m}}{\text{s}}$) ifodalananadi.

Butun va kasrli birliklar-asosiy va hosilali birliklarini aniq 10 sonini danajasiga ko'paytirish yoki bo'lish orqali hosil bo'ladigan birliklar. Bu birliklarni nomi asosiy birlik nomiga maxsus qo'shimcha qo'shish orqali aytildi (masalan, "kilo" - berilgan birlikdan 10¹ marta katta, "gekto" - 10² marta katta, "kanti" - 10 marta kichik va hokazo).

Aniq birliklar sohasini qamrab olgan birliklar to'plamiga birliklar sistemasi deb ataladi. Fan va texnikani rivojlanishi natijasida quyidagi birliklar sistemasi vujudga keldi: SGS, MKS, MTS, MKGSS va boshqa. O'lchash sohasini unifikatsiyalash uchun xalqaro kogerent birliklar sistemasi - SI ishlab chiqildi. Ushbu sistemaga ko'ra, asosiy birlik bo'lib metr - m - uzunlik birligi, kilogramm - kg - og'irlik birligi, sekund - s - vaqt birligi, amper - A - elektr tokini birligi, kel'ven - °K - harorat birligi va boshqalar.

O'lchov qurilmalari.

Fizik kattaliklarni o'lchov qurilmalariga o'lcham va o'lchov asboblari kiradi. O'lchash birliklarini aniq ifodalashga mo'ljallangan fizik jism, modda yoki qurilmaga o'lcham deb ataladi (masalan, tarozi toshlari, o'lchov kolbalari, kalibrilar, o'lchov lineykalar, namunaviy qarshiliklari). O'lcham sifatida aniq xarakterli fizik xossalarga cga bo'lgan ba'zi moddalar ham ishlataladi (masalan, qaynash va erish o'zgarmas temperaturali).

O'lchov asbobi - o'lchash natijasida informatsiyalarni kuzatuvchiga qulay bo'lgan signalga aylantiruvchi qurilmadir. Har qanday o'lchov asbobi birlamchi o'zgartirgich, aloqa kanali va ikkilamchi asbodan iborat. O'lchash ob'ektida o'matish va o'lchanadigan kattalikni chiqish signaliga aylantirish uchun ishlataladigan qurilmaga birlamchi o'zgartirgich deb ataladi.

Birlamchi o'zgartirgichni chiqishida ishlataladigan energiyani turiga ko'ra elektrik, pnevmatik, gidravlik va mexanik turlari mavjud.

Elektrik o'zgartirgichlar o'z navbatida parametrik va generatorli turlarga bo'linadi.

Parametrik o'zgartirgichlar tashqaridan berilayotgan energiya manbaini o'zgartirish orqali chiqish signalini hosil qiladi.

Aktiv qarshilikli, induktiv va sig'imi parametrik o'zgartirgichlar keng tarqalgan.

Generatorli o'zgartirgichlar o'lchanadigan kattalik o'zgarishi bilan elektr yurituvchi kuch hosil qiladi.

Chiqish signalini xarakteriga ko'ra o'zgartirgichlar uzlusiz harakatli va uzlukli harakaatlari (releli va impul'sli) turlariغا bo'linadi.

Nazorat o'lchov asboblarini klassifikatsiyasi

O'lchanadigan kattalikni o'lchov birligi bilan tenglashtirishga mo'ljallangan qurilmaga o'lchov asbobi deb ataladi.

Nontrol' o'lchov asboblarini (NO'A) quyidagi belgilariiga ko'ra klassifikatsiyalanadi:

I. O'lchanayotgan kattalik turiga ko'ura NO'A quyidagi turlarga bo'linadi:

a) temperaturani o'chash asboblari - termometrlar

b) bosini va siyrakanishini o'chash asboblari - manometrlar, vakuumetrlar

v) suyuqlik va sochniluvchan moddalar sathini o'chash asboblari-sath o'lchagichlar

g) moddalar sarfi va miqdorini o'chash asboblari - sarf o'lchagichlar

d) moddalar tarkibi va xossalarni o'chash asboblari - namlik, zichlik o'lchagichlar.

II. Bajariladigan metrologik funksiyasiga ko'ra ishchi (texnik va laboratoriya), namunaviy va etalon NO'A bo'linadi.

III. Informatsiya olish usuliga ko'ra ko'rsatuvchi, o'ziyozar, signallovchi, integrallovchi, solishiuvchavi va rostlovchi turlari mavjud.

IV. Ishlash prinsipiiga ko'ra mexanik, hidravlik, pnevmatik, elektrik, kombinatsiyalashgan NO'A ajratiladi.

V. O'matish joyiga ko'ra mahalliy, distansion va telemetrik turlarga bo'linadi.

O'lchash xatoliklari

O'lchash usulini yoki o'lchov asbobini eskirishi natijasida o'lchashda xatoliklar sodir bo'ladi. Asosiy va qo'shimcha xatoliklar mavjud. Meyor bo'yicha yo'l qo'yiladigan xatolikka asosiy xatolik deb ataladi. Agar tashqi muhit ta'sirida (namlik, magnit yoki elektr maydon) xatolik sodir bo'lsa, bu qo'shimcha xatolikni vujudga keltiradi. Muhandislik hisob - kitoblarda quyidagi xatoliklar hisoblanadi:

I. Absolют xatolik - o'lchov asbobining ko'rsatishi bilan o'lchanayotgan kattalikni haqiqiy qiymati o'tasidagi farq

$$\Delta = \alpha_t - \alpha_r \quad (1.1.)$$

bu yerda :

α_t - asbob ko'rsatishi;

α_r - o'lchanayotgan kattalikni haqiqiy qiymati.

Absolyut xatolikni teskari ishorali qiymatiga - tuzatish deb ataladi.

2.Nisbiy xatolik-absolyut xatolikni o'lchanayotgan kattalikni haqiqiy qiymatiga nisbatini foizlarda ifodalanishi:

$$B = \frac{\Delta}{a_s} \cdot 100\% : (1.2)$$

3. Keltirilgan nisbiy xatolik - absolyut xatolikni asbob shkalasi diapazoniga nisbatini foizlarda ifodalanishi:

$$C = \frac{\Delta}{N} \cdot 100\% ; (1.3)$$

bu yerda: $N = N_{max} - N_{min}$ - asbob shkalasi diapazoni.

Keltirilgan nisbiy xatolikni eng katta qiymatga - aniqlik klassi deb ataladi. 2 xil aniq klassi mavjud: 1) nisbiy xatolik bo'yicha; 2) absolyut xatolik bo'yicha.

Kontrol' o'Ichov asbollarini quyidagi aniqlik klasslarida farqlaydilar: 0,005; 0,02; 0,05; 0,1; 0,2; 0,5 (0,6); 1; 1,5 (1,6); 2,5; 4; 6.

O'lhash xatoliklari sistematik, tasodifiy va sub'ektiv turlarga bo'linadi.

Aniq qonun bo'yicha o'zgaruvchi yoki o'zgarmas xatoliklarga sistematik xatolik deb ataladi (masalan, o'lhash asboblari konstruksiyasini eskirishi, graduirovkanı noto'g'ri o'tkazilanligi, tashqi muhitni ta'siri va ekspluatatsiya sharoitini yomonligi sababli yuzaga keladi). Tasodifiy xato bo'lishi oldindan ma'lum emas. Sub'ektiv xatolik o'lhashni o'tkazayotgan sub'ekt tomonidan sodir etiladi (masalan, asbob bilan noto'g'ri munosabatda bo'lish yoki asbob ko'rsatishini noto'g'ri yozib olinishi, asbobni ishga tushirish yoki o'rmatish va boshqalar).

O'lhashning sifat ko'rsatkichlari

O'lhashning sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1.Sezgirlik - asbob ko'rsatkichining chiziqli yoki burchakli o'zgarishini o'lchanayotgan kattalikni o'zgarishiga nisbatiga aytildi:

$$S = \frac{\Delta I}{\Delta a} = \frac{\Delta \varphi}{\Delta a} ; (1.4)$$

2. "Sezgirlik chegarasi" - deganda o'lchanayotgan kattalikni asbob ko'rsatkichini harakatlantira oladigan eng kichik qiymati tushuniladi.

3.Nosezgirlik sohasi-o'lchanayotgan kattalikni asbob ko'rsatkichini harakatlantira olmaydigan eng katta qiymati.

4. Shkala bo'linmasi qiymati - asbob sezgirligiga teskari bo'lgan kattalikdir.

$$C = \frac{\Delta a}{\Delta I} = \frac{\Delta a}{\Delta \varphi} ; (1.5)$$

5. Asbob variatsiyasi:

$$\lambda = \frac{\Delta Q}{N} \cdot 100\%; \quad (1.6)$$

Bu yerda: ΔQ - bir xil o'lchanayotgan kattalikni bir xil o'lhash sharoitida takror o'lhashlardagi ko'rsatkichlari ortasidagi eng katta farq.

6. Asbob inersionligi (o'lchanayotgan kattalik o'zgarishi bilan asbob ko'rsatgichini kechikishi) - asbob harakatlantiruvchi detallarni inersiyasi, ularda lyuflar borligi va boshqa hodisalar sahabli hosil bo'ladigan xossasi.

7. Ishonchlilik deb - asbobning uzoq muddat ishlashida berilgan talablarga mos ishlash xossasiga aytildi.

8. Asbobning berilgan standart yoki texnik talablarga javob bera oladigan xossasiga ishga yaroqlilik deb ataladi.

1.2 .O'LCHASH O'ZGARTGICNLARI

O'lhash o'zgartgichi yoki datchik deb - o'lchanadigan kattalikni qabul qilish va uni avtomatik qurilmaning keyingi elementlariga uzatishga qulay signalga aylantirish uchun mo'ljallangan har qanday avtomatik rostlash sistemasining asosiy elementiga aytildi.

O'lhash o'zgartgichlari mexanik va elektrik signallli bo'lislari mumkin. Mexanik chiqish signallli o'lhash o'zgartgichlarida o'lchanadigan kattalik mexanik signalga, elektrik chiqish signallli o'lhash o'zgartgichlarida esa elektrik signalning biror turiga aylantiriladi.

Elektrik chiqish signallli o'lhash o'zgartgichlarining mexanik chiqish signallli o'zgartgichlarga nisbatan afzalligi ularning distansion o'lhashi, chiqish signalining oson kuchaytirish mumkinligi, chiqish signallini rostlash va boshqarish uchun ishlatalishi hamda kichik xatolikka ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Avtomatik rostlash sistemasida ishlataladigan elektrik chiqish signallli o'lhash o'zgartgichlari parametrik va generatorli turlariga bo'linadi.

Har qanday fizik tabiatga ega bo'lgan o'lchanadigan kattalikni elektr zanjirming biror bir parametriga (rezistor qarshiligi R, sig' im S, induktivlik L) aylantiradigan o'zgartgichlarga parametrik o'zgartgichlar deyiladi.

Bu elementlar asosan har xil o'lhash sxemalariga (masalan, ko'priklar, p'jenisiometrlar, logometrlar) ularanib chiqishida o'lchanadigan kattalikka bog'liq kuchlanish o'zgaradi. Parametrik o'zgartgichlar uchun kuchlanish manbai ishlash talab qilinadi.

Generatorli o'zgartgichlar deb, o'lchanadigan kattalikni bevosita elektr yurituvchi kuchga aylantiradigan o'lhash o'zgartgichlariga aytildi. Bu guruh o'zgartgichlar uchun kuchlanish manbaini ishlash talab qilinmaydi.

Quyidagi parametrik o'zgartgichlar keng tarqalgan:

a) o'lchanadigan noelcktrik kattalikni aktiv qarshilikka aylantiriladigan reostatli o'zgartgichlar;

b) temperaturaning o'zgarishi o'tkazgich va yarim o'tkazgichlarning qarshiliga aylantiriladigan termoqarshilikli o'zgartgichlar;

v) tenzometrik o'zgartgichlar, ularning ishlash prinsipi o'tkazgich va yarim o'tkazgichlarning mexanik deformatsiya ta'sirida qarshiligining o'zgarishiga asoslangan;

g) elektromagnit g'altakning induktiv qarshiliqi po'lat yakor harakati natijasida o'zgaradigan induktiv o'zgartgichlar;

d) sig'imi o'zgartgichlar. Ularning ishi kondensatorning sig'imi plastinkalar harakati natijasida o'zgarishiga asoslangan;

e) fotoelektrik o'zgartgichlar (fotorezistorlar) ularda o'zgartgichning ishchi yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi asbobning elektr o'tkazuvchanligini o'zgartiradi.

Generator o'zgartgichlarga quyidagilar kiradi:

a) termoelektrik o'zgartgichlar. Ularning ishlash prinsipi termopara zanjirida o'lchanadigan kattalik o'zgarishi bilan hosil bo'ladigan termoelektrik effekt hodisasiga asoslangan;

b) chiziqli va burchakli harakatlar induksiyalangan elektr yurituvchi kuchga aylantiriladigan induksion o'zgartgichlar;

v) p'ezoelektrik o'zgartgichlar. Kristallarda (kvars) mexanik bosim ta'sirida qutblanish hodisasi ishlatalib, elektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi.

O'lchash o'zgartgichlar quyidagi asosiy xarakteristikalar bilan xarakterlanadi: sezgirlik, xatolik, inersiya, sezgirlik chegarasi, inersionlik.

O'lchash o'zgartgichlarning chiqish kattaligi bilan kirish kattaligi o'rtaсидаги bog'lanishga statik xarakteristika deb ataladi.

$$\gamma = \varphi(\chi) \quad (1.7)$$

Chiqish kattaligi o'zgarishining kirish kattaligi o'zgarishiga nisbatiga o'zgartgichning sezgirligi deyiladi.

$$S = \frac{\gamma}{x} ; \quad (1.8)$$

O'zgartgichning xatoligi - bu uning chiqish kattaligi bilan nominal qiymat o'rtaсидаги farqdir.

Kirish kattaligining chiqish kattaligini o'zgartira oladigan eng kichik qiymatiga o'zgartgichning sezgirlik chegarasi deyiladi.

Inersionlik deb kirish kattaligining o'zgarishi bilan rostlashning kechikishiga aytiladi.

Chiziqli va burchakli ko'chishning o'lhash o'zgartigichlari.


Chiziqli va burchakli ko'chishlar kuch, kuchlanish va boshqa niclektrik katta'iklarni o'lhash uchun potensiometrik, induktiv, sig'imli va boshqa o'lhash o'zgartigichlari ishlatalib, ularda ko'chish (harakat) bevosita R, L, C elektrik qarshiliklarga hamda induksion aylanish tezligi va buriish burchagi elektr yurituvchi kuchga aylantiriladi.

Potensiometrik (reostatli) o'zgartigichlar.

Bu o'zgartigichlarda kirish signali bo'lib, surgichning chiziqli va burchakli harakati, chiqish signali esa reostatning aktiv qarshiligi - R bo'lib hisoblanadi. Potensiometr surgichi bilan bog'langan detal harakati elektrik zanjirming qarshiligini o'zgatiradi.

Potensiometrik o'zgartigichning xarakteristikasi o'zgaradigan kuchlanish bilan so'rg'ich harakati o'rtaсидagi bog'lanishdir, ya'ni

$$U_{\text{uchq}} = f(x); \quad (1.9)$$



1.1-rasmi. Potensiometrik o'zgartigichning sxemasi.

1.1 - rasmda to'g'ri karkasli va aylana karkasli potensiometrik o'zgartigichlar ko'rsatilgan. Ularda surgichning harakati reostatning aktiv qarshiligini o'zgartiradi. 1.1.a-rasmda tasvirlangan sxema uchun o'zgartigichning chiqish kuchlanishi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$U_{\text{chiq}} = \frac{U_m K}{1+K}; \quad (1.10.)$$

Bu yerda:

U_m - manba kuchlanishi;

K - potensiometr surgichning nisbiy ko'chishi;

1.1.b -rasmdagi grafikda potensiometrning chiqish kuchlanishining surgich harakati X bilan bog'lanishi ko'rsatilgan.

Potensiometr nagruzkasi $R_n = \infty$ bo'lsa, uning statik xarakteristikasi $U_{\text{uchq}} = f(x)$ - to'g'ri chiziqli (1 chiziq). Bu holda chiqish kuchlanishining formulasi $U_{\text{uchq}} = U_m K$

ko'rinishiga keladi. Potensiometrning yukli holatida xarakteristikasining chiziqligi shuncha kamayadi. Burchakli ko'chishlami o'lhash uchun aylana karkasi potensiometrik o'zgartgichlar ishlataladi. Uning karkasi izolyatsiyalangan materialdan (plastmassa, tekstolit, keramik va boshqalar) yarim aylana shaklida yasalib, katta solishtirma qarshilikka va kichik issiqlikdan qarshilikning o'zarish koefitsientiga ega sim bilan o'ralgan bo'ladi. Ularda simli reostat qarshiligining o'zgarishi burchakli ko'chishga mos keldi. Potensiometrik o'zgartgichlarning afzalligi ular konstruksiyasining oddiyligi, signalni kuchaytirish kerak emasligidir. Reostat kontaktlarining sirlganishi-ularning kamchiligidir.

Ko'chishning sig'imli o'zgartgichlari.

Sig'imli o'zgartgichlarda plastinalar o'tasidagi masofani o'zgarishi bilan elektrik sig'im o'zgaradi. Sig'imli o'zgartgich - kondensator bo'lib, ikki plastinadan tuzilgan. Plastinalardan biri qo'zg'aluvchan (1.2 - rasm) kirish kattaligi o'zgarishi P bilan qo'zg'aluvchan plastina harakatlanadi va plastinalar o'tasida masofa o'zgaradi. Bu esa kondensatorning elektrik sig'imi o'zgartiradi. Kondensatorning elektrik sig'imi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$C = \frac{\epsilon \cdot S}{\delta} \quad (1.11)$$


bu yerda:

ϵ - muhitning dielektrik o'tkazuvchanligi;

S - plastina yuzasi;

δ - kondensator plastinalari o'tasidagi masofa.

Kondensator sig'imi o'zgarishi bilan plastinalar orasidagi bog'lanish grafigi chiziqli bo'limgan xarakterga ega bo'ladi.



1.2-rasm. Kondensator sig'imi o'zgarishi bilan plastinalar orasidagi bog'lanish grafigi.

- a) Ishchi cho'lg'amlar induktivligini magnitlanish turiga bog'liqligi;
- b) Boshqarish toki bilan nagruzka toki o'tasidagi bog'lanish.

Sig'im C ning o'zgarishi o'zgartichning sig'imi qarshiligini o'zgartiradi,

$$X_1 = \frac{1}{2\pi} f \cdot c \quad (1.12.)$$


Bu yorda:

f - tuk chaxtotasi;

Natijada yaninda hosil bo'lgan tok o'zgarishini asbob ko'rsatadi. Asbob shkalasi o'lchanayotgan kattalik birlik arida darajalangan.

Differensial sig'imi o'zgartich (1.3- rasm) elektrodlar (1 va 2) o'tasida metall qo'zg'aluvchan plastina o'matilgan kondensatoridan iborat. Bu plastinaga o'lchanaligan kattalik R ta'sir etadi.

Kichik burchakli 0 dan 180 gradus ko'chishlami o'lchash uchun (1.3-rasm) plastinalar yuzasi o'zgaradigan o'zgartichlar ishlataladi.



1.3- rasm. Sig'imi o'zgartichlarning sxemalari.

Plastinalardan biri qo'zg'almas, ikkinchisi burchak ostida aylanadi. Aylanish burchagini o'zgarishi bilan qo'zg'aluvchan plastina yuzasi S o'zgaradi va-plastinalar orasidagi sig'im C o'zgaradi. Aylanish burchagiga bog'liq o'zgaradigan elektrik sig'im quyidagicha topiladi:

$$C = E \left(1 - \frac{\alpha}{\pi}\right) 4 \pi \delta \quad (1.13.)$$

Sig'imli o'zgartgichlar o'zining yuqori sezgirligi, yuqori aniqligi, kichik inersionligi va konstruksiyasining oddiyligi bilan xarakterlanadi. Tashqi elektr maydon, tasodifiy sig'imlar va temperatura ularning ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'chishning induktiv o'zgartgichlari.

Induktiv o'zgartgichlarning ishlash prinsipi po'lat o'zakli g'altakning po'lat yakor harakati tufayli induktiv qarshiligining o'zgarishini o'lhashga asoslangan.

1.4.-a-rasmda induktiv o'zgartgich yordamida buyumning qalinligini o'lhash ko'rsatilgan. 4 va 6 roliklar orqali buyum 5 o'tishida rolik 4 bilan bog'langan shtok 3 yordamida yakor 2 harakatlanadi. Havo bo'shlig'inining o'zgarishi magnitli o'tkazgichning magnit oqimi F - ni o'zgartiradi.

Natijada g'altakning induktivligi L induktiv qarshiliği hamda g'altakda tok o'zgaradi.

$$L = \frac{\mu SW^2}{2\delta}; \quad (1.14.)$$

$$X = 2 \pi f L; \quad (1.15.)$$

$$I = \frac{U}{Z} = \frac{U}{\sqrt{R^2 + X_L^2}}; \quad (1.16)$$

Bu yerda:

μ - havo bo'shlig'idagi magnit o'tkazuvchanlik;

W - g'altakning o'ramlar soni;

S - magnitli o'tkazgichning kesim yuzasi;

f - manbaa kuchlanishi chastotasi;


δ - havo bo'shlig'i kattaligi;

U - manbaa kuchlanishi;


Z - o'zgartgich chulg'amining to'liq qarshiliqi;

R - o'zgartgich chulg'amining aktiv qarshiliqi.

Formulada o'zgartgichdan o'tayotgan tok uning konstruktiv o'lchamlari o'zgarmas bo'lganda havo bo'shlig'i kattaligiga bog'liq o'zgaradigan induktiv L ga bog'liq 1.5. - rasnida o'zgartgichdan o'tayotgan tokning (1 egri chiziq) va g'altak induktivligi L ning o'zgarishi (2 egri chiziq) tasvirlangan.



1.4-rasm. Induktiv o'zgartgichlaryning sxemalari



1.5-rasm. Tok va induktivlikning havo bo'shlig'iغا bog'liliklik grafigi.

Tenzometrik o'zgartgichlar.

Tenzometrik o'zgartgichlar mashina detallarining elastik deformatsiyasini o'lchash uchun ishlataladi. Ularning ishlash prinsipi tenzoeffekt hodisasiiga asoslangan. Bu yupqa qog'oz 2 ga zigzag simon ingichka konstantan sim ($0,01:0,05$ mm diametrl) yopishtilirilgan o'tkazgichdan iborat. Simning uchlariga 1 chiqish klemmalari o'matiladi (1.6-rasm) va o'lchash sxemasiga ulanadi. Deformatsiyani o'lchash uchun o'zgartgich tekshiriladigan buyum sirtiga yopishtiliriladi. Detallarni cho'zilishi va qisilishi natijasida unga yopishtilirilgan sim ham deformatsiyalarini va qarshiligi R o'zgaradi.

$$R = \rho L / S ; (1.17.)$$

Bu yerda:

L - sim uzunligi;

S - simning ko'ndalang kesim yuzasi

ρ - solishtirma qarshilik.

Sim uzunligining nisbiy o'zgarishi uning qarshiligining nisbiy o'zgarishiga olib keladi.


$$\frac{\Delta R}{R} = K \frac{\Delta L}{L}; \quad (1.18)$$

Bu yerdan:

K - tenzosezgirlik koefitsenti ($K = 1,9 - 2,1$);

$\Delta R, \Delta L$ - qarshilik va uzunklikning o'zgarishi.


Simli tenzometrik o'zgartgichlarning afzalligi-statik xarakteristikasining chiziqligi, kichik og'irlik va gabariti, hamda oddiyligidir. Kamchiligi esa-kichik sezgirligi va issiqlikning ta'siridir.




1.6-rasm. Tenzometrik o'zgartgichning sxemasi.

Induksion o'zgartgichlar.

Induksion o'zgartgichlar chiziqli va burchakli siljishlar tezligini o'lchash uchun ishlataladi. Bu o'zgartgichlar turkumiga selsin'lar va taxogeneratorlar kiradi. Ikki va undan ortiq bir-biri bilan mexanik boglanmagan vallarni burchakli xarakatini distansion uzatish sxemalarida sel'sinlar keng qullaniladi. Avtomatashtirish sxemalarida kupinchalik bir fazali sel'sinlar ishlataladi. Ular konstruktiv o'zgaruvchan tokli elektrik mashinalar kabi tayyorlanib, ikkita cho'lg'andan iborat. Ulardan biri qo'zg'atuvchi chulg'am deb ataluvchi statorda joylashgan bir fazali, ikkinchisi esa sel'sinning silindrik rotorida joylashgan sinxronlash chulg'ami deb ataluvchi uch fazali simmetrikdir. Sel'sinlar indikatorli va transformatorli rejimda ishlaysi.



1.7-rasm. Indikatorli rejimda ishlaydigan bir fazali sel'sinning ulash sxemasi.



1.8-rasm. Transformatorli rejimda ishlaydigan bir fazali sel'sinning ulash sxemasi.

1.7-rasmida indikator rejimda ishlaydigan bir fazali sel'sinning ulash sxemasi keltirilgan. Bu sxema ikki konstruktiv bir xil va bir - biri bilan elektrik bog'langan

SD - sel'sin datchik va SP - sel'sin qabul qiluvchidan iborat. Sel'sin datchik noelektrik kattalikni (burchakli harakatni) elektrik (kuchlanish yoki tok) katalikka, sel'sin qabul qiluvchi esa elektrik signalni burchakli harakatga aylantirib beradi yoki burchak yo'naliishiga mos elektrik signal ishlab chiqaradi.

Sel'sin datchik va sel'sin qabul qiluvchilarning qo'zg'atish cho'lg'ami OV bitta o'zgaruvchan tokli kuchlanish manbaidan ozuqa oлади. 3 fazali sinxronlash cho'lg'amlari esa bir - biriga qarama - qarshi ulanadi. Datchik va qabul qiluvchining qo'zg'atish cho'lg'amida OV oqayotgan o'zgaruvchi tok ulardagи FD va FP magnit oqimlarini o'zgartiradi va natijada sinxronlash cho'lg'amlarida elektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi. Agar datchik va qabul qiluvchi rotorlari bir xil burchakka burilgan bo'lsa, sinxronlash cho'lg'amlarida qiymat jihatdan bir xil va qarama - qarshi yo'nalgan elektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi. Demak ulanadigan o'tkazgichlarda tok bo'lmaydi. Agar sel'sin datchik rotorining qandaydir burchak ostida bursak va shu holatda ushlab tursak, elektr yurituvchi kuch tengligi buzilib, sinxronlash cho'lg'amlarida tok hosil bo'ladi.

Hosil bo'lgan toklar qo'zg'aluvchi cho'lg'amlar FD va FP magnit oqimlar bilan o'zaro ta'sirlanib, bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan sel'sin elektromagnit momentlari hosil bo'ladi. Sel'sin datchik rotori to'xtagan va sel'sin qabul qiluvchi rotori erkin holda turganda, aylanuvchi moment Mp ta'sirida sel'sin - qabul qiluvchi rotori sel'sin-datchik rotorini burilishiga teng burchakka buriladi. Haqiqatda qabul qiluvchi rotori datchik rotorini holatini to'liq egallay olmaydi. Doimo ishqlanish kuchi ta'sirida, sel'sinlar konstruktiv tayyorlanishi natijasida paydo bo'ladi datchik rotorini va qabul qiluvchi rotorlari burilishlari o'tasida burchak farqi bo'ladi.

Bu yerda qabul qiluvchi sel'sin bir fazali cho'lg'ami o'zgaruvchan tok manbaiga ulaninasdan, kuchaytirgich uning kirishiga ulanadi va chiqish cho'lg'ami deb ataladi. Uning uch fazali sinxronlash cho'lg'ami qo'zg'atish cho'lg'ami vazifasini bajaradi va sel'sin datchik SD ning uch fazali sinxron!ash cho'lg'ami bilan bog'langan sel'sin rotorlari o'tasidagi burchak farqi hosil bo'lganda qabul qiluvchi sel'sinning chiqish cho'lg'amlarida Uchiq kuchlanish hosil bo'ladi, kuchaytirgich U da kuchaytirilib ijro etuvchi dvigatelning boshqarish cho'lg'amiga beriladi. Ijro etuvchi dvigatel' qabul qiluvchi sel'sin rotorining sel'sin rotorlari o'tasidagi burchak farqi nolga teng bo'lgunga qadar aylantiriladi.

Taxogeneratorlar.

Avtomatik rostlash sistemalarida burchakli tezliklarni elektr yurituvchi kuchga o'zgartirish vazifasida hamda tezlik bo'yicha teskari bog'lanishi uchun o'zgaruvchan va o'zgarmas tokli taxogeneratorlar ishlatiladi. Generatorli rejimda ishlaydigan kam quvvatli elektrik kollektorli mashina o'zgarmas tokli taxogenerator hisoblanadi. Qo'zg'atish usuliga ko'ra o'zgarmas magnit yordamida qo'zg'atuvchi magnitoelektrik (1.9. a-rasm) va maxsus qo'zg'atish cho'lg'ami elektrordinamik (1.9. b-rasm) turlariga bo'linadi. Rotor harakati natijasida induksiyalangan elektr yurituvchi kuch quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$E = N_s F \omega ; \quad (1.19.)$$

Bu yerda:

ω - rotor aylanishi burchak tezligi.

C_s - mashinaning konstruksiyasiga bog'liq o'zgarmas koeffitsient;

F - qo'zg'atish oqimi;


Ideal holda, qo'zg'atish oqimi o'zgarmas bo'lгanda, ($F = \text{const.}$) taxegenerator elektr yurituvchi kuch rotor aylanishining chiziqli tezligiga bog'liqdir.

$$E = k\omega; \quad (1.20.)$$

bu yerdan:

k - proporsionallik koeffitsienti.

Qo'zg'atish usuliga ko'rса taxogeneratorlarni magnitoelektrik, elektrodinamik va rotorli turlari mavjud.



1.9-rasm. Taxogeneratorning prinsipial sxemasi.

a) magnitoelektrik; b) elektrodinamik, v) rotorli taxogeneratorlar.

O'zgaruvchan tokli taxogenerator - ikki fazali qisqa tutashuv rotorli ansixron mashinadir. (1.9-rasm). Statorda bir-biriga nisbatan 90 gradus surilgan ikki cho'lg'am joylashgan. Cho'lg'amlardan biri qo'zg'atish cho'lg'ami U - o'zgaruvchan

tok manbaidan ozuqa oladi. Boshqasi chiqish U'chik - nagruzkaga yoki o'lchash asbobi va ASR elementiga ularadi. Rotorlarning aylanishida taxogeneratorming chiqishida qator aylanish tezligiga proporsional kuchlanish hosil bo'ladi.


Fotoelektrik o'zgartgichler.

Fotoelektrik o'zgartgichlarda yorug'lik oqimining o'zgarishi elektr signalga aylantiriladi. Ushbu o'zgartgichlarda 3 xil fotoeffekt ishlataladi:

1. Tashqi fotoeffekt - elektron lampalarda katoddan elektronlarning uchib chiqishi natijasida eniissiya toki hosil bo'lishiga asoslangan.

2. Ichki fotoeffektda yoritish intensivligiga bog'liq yarim o'tkazgichlarning qarshiligi o'zgaradi. Bunday fotoelementlar fotoqarshiliklar deb ataladi.


3. Ventil fotoeffektda yoritiladigan o'tkazgich va yoritilmaydigan o'tkazgich qatlamlari o'rtaida yupqa qatlamda yorug'likka bog'liq elektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi. Bu yerda elektronlar yarim o'tkazgichdan o'tkazgichga qarab yo'naladi. Tashqi fotoeffektli fotoelementlar fotosezgir material katodli gaz bilan to'dirilgan vakuumli lampadan, metalla aylana yoki plastina ko'rinishidagi anoddan tuzilgan. Katodni nur energiyasi bilan qizdirilganda, undan elektron uchib chiqadi.



1.10-rasm. Tashqi fotoeffektli o'zgartgichning sxemasi

Anod va katod o'rtaida elektrik maydon hosil bo'ladi (1.10.rasm) va o'z elektronlarini musbat zaryadlangan anodga tomon yo'naltiradi. Vakuumli fotoelementlar inersiyasiz bo'ladi. Tashqi fotoeffektli fotoelementlar hosil qiladigan tok kam, shuning uchun ularni kuchaytirgichsiz ishlatalish mumkin emas.


Ichki fotoeffektli fotoelementlar yuzasiga yupqa nur sezuvchi yarim o'tkazgich 2 qoplangan kvarsli va shisha plastinadan iborat (1.11 - rasm).



1.11-rasm. Ichki fotoeffektli o'zgartgichning sxemasi

Elektrodlar 3 yordamida fotoelementlar elektrik zanjirga ulanadi. Yarim o'tkazgich yorug'lilik nuri bilan qizdirilganda, unda erkin elektronlar hosil bo'lib, o'tkazuvchanligi ortadi va qarshiligi kamayadi. Fotoelementning qarshiligini o'zgarishi zanjirda tok kuchini o'zgartiradi.

Ventil fotoeffektli fotoelementlar kuchlanish manbaisiz ishlashi mumkin, chunki yorug'lilik oqimi ta'sirida ular o'zi tok manbai bo'lib qoladi. (1.12- rasmda) ventilli fotoeffekt sxemasi keltirilgan.



1.12-rasm. Ventil fotoeffektli o'zgartgichning sxemasi

Yarim o'tkazgich 2 qatlami bilan qoplangan po'lat plastinka 1 yuzasiga oltin qatlam 4 quyilgan. Yarim o'tkazgich va oltin plenka orasiga qatlam 3 qoldirilgan. Metall aylanachalar 5 orqali fotoelement elektrik zanjirga ulanadi.


Fotoelementga yo'nalgan yorug'lilik nuri oltin plenkadan o'tib yarim o'tkazgichda yutiladi va elektronlar hosil bo'ladi. Bu elektronlar oltin plenka elektronlari bilan reaksiyaga kirishib, uni manfiy o'zi esa musbat zaryadlanadi. Fotoelement elektr zanjirga ulansa, tok hosil bo'ladi.

Ipning tarangligini aniqlash.

To'qimachilik ishlab chiqarish jarayonlarida shoyi, xom - ashyo iplarining tarangligini nazorat va rostlashda texnologik jihozlarning optimal ish rejimini iplarning uzelishini kamaytirish orqali erishiladi. Ip tarangligini kamayishi uni o'rashni qiyinlashtirsa, ko'payishi esa iplarning tez uzelishiga va iplarning cho'ziluvchanligini kamayishiga olib keladi.

Yigirish jarayonida iplarning tarangligi g'altakning kichik diametridan kattasiga qarab o'zgaradi. Iplarning uzelishini kamaytirish uchun ularning tarangligi katta joyida barabanning aylanish tezligini kamaytirish, taranglik kam joyda esa - ko'paytirish kerak. Harakatdagi ipning tarangligini aniqlash uchun mexanik dinamometrik o'zgartgichli elektrik asboblar ishlataladi.

Amalda mexanik asboblardan o'zining yuqori sezgirligi va katta aniqlikka egaligi bilan farq qiladigan tenzometrik o'zgartgichli elektrik asboblar keng qo'llaniladi. 1.13-rasmda elektron tenzometrning sxemasi ko'satilgan. Tenzometrikki R6 va R7 tenzorezistoridan tranzistor T1 da yig'ilgan bir kaskadli kuchaytirgichdan ko'priklari manbaa ta'minlovchi tranzistor T2 li generatordan va o'ziyoza asbob mikroampermetrdan tuzilgan.



1.13-rasm. Ip tarangligini o'lchaydigan elektron tenzometr sxemasi

Tenzometr ko'priklari yoki yelkalarida R6 va R7 tenzorezistorlar deformatsiyalanadi va natijada ularning qarshiligi o'zgaradi. Tranzistor T2 da

yig'iligan o'zgaruvchan tokli ko'priks sxema tenzorezistorlar qarshiligidan elektrik signalga aylanadi. Elektrik signal TI tranzistorda kuchaytirilib, ajratuvchi transformator Tri va to'g'rilovchi ko'priks orqali o'ziyozar asbob - mikroampermeter (MA) ga uzatadi. Usbu asbob sifatida elektron ossillograflar, o'ziyozarlar va boshqa asboblar qo'llaniladi. Asbob ip tarangligini 5-25 g o'lchash chegarasida o'lchaydi.

Iplarning qalinligini o'lchash.

Pillani yigirish jarayonida chegaralanmagan uzunlikli, berilgan va tek qalinlikka ega uzlukdiz ipler olish uchun ulami bir butun kompleks o'ramda yig'iladi. Bu yerda asosiy operatsiyalardan biri har xil usullar bilan aniqlanadigan iplarning qalinligi hisoblanadi. Pillalar bi vaqtida yigirilmaydi va ip o'rami ipning qalinligiga ko'ra to'la boradi.

Ipler qalinligini o'lchash va rostlashning bevosita va bilvosita aniqlash usullari mavjud.

Ipler qalinligini bevosita o'lchash va rostlash usulida uning o'lchanadigan qismi ko'ndalang kesim yuzasini va hajmini o'zgarishi orqali aniqlanadi. Bu usulning ancha murakkabligi sababli bilvosita usul keng qo'llaniladi. Bu usulda iplarning qalinligi, ularning elektr qarshiligidan o'zgarishi tangensial ishqalanish kuchi va tarangligini o'zgarishiga bog'liq o'lchanadi. G.S. Pozdnyakov temonidan iplarning qalinligini ularning elektr qarshiligidan o'zgarishi orqali o'lchash va rostlash usuli taklif qilingan. Pilla yigirishda harakatlanadigan shoyi xom-ashyo ipning sirtiga yupqa qarshiligi o'lchanadi. Umumiy holda shoyi xom-ashyoning qalinligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$T = T_e \cdot n ; \quad (1.21.)$$

Bu yerda:

T - ipning qalinligi, teks;

T_e - pilla ipning o'rtacha qalinligi, teks;

n - to'plamdag'i pillalar soni

Ipning elektrik qarshiligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$R = \rho \frac{I Y 10^3}{T_e \cdot n} \quad (1.22.)$$


Bu yerda:

ρ - ipning solishtirma qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{mm}^{-2}/\text{m}$;

I - ipning uzlusiz o'rtacha uzunligi, m;

Y - ipning solishtirma og'irligi, mg/mm^2 .

(1.22.) formulada ρ , I , Y - o'zgarmas bo'lganda ipning qalinligi qarshilik R bilan bog'liqidir. Taklif qilingan usulning prinsipial sxemasi 1.14- rasmida ko'satilgan.



1.14- rasm. Iplar qalinligini o'lchash sxemasi

Ip 1 avval elektrolit 2 bilan namlangandan so'ng sezgir element elektrodlardan o'tkaziladi. Ip elektrolit qatlam bilan qoplanganligi uchun ipning elektr qarshiligi o'zgaradi. R ning o'zgarishi ko'priq sxema yordamida o'lchanadi.

1.3.Unifitsirlangan o'zgartgichlar

O'lchanash o'zgartgichlarida ishlataladigan energiya manbaining turiga ko'ra quyidagi tarmoqli o'zgartgichlar mavjud:

pnevmatik, elektrik analogli, elektrik diskretli, gidravlik hamda energiya manbaisiz ishlaydigan o'zgartgichlar, elektrik analogli tarmoqqa kiruvchi asboblar o'zgarmas va o'zgaruvchan uzuksiz signallli va impuls signallli turlarga bo'linadi.

Elektrik diskret tarmoqqa kiruvchi asboblar esa releli chastotali va impuls signallli turlariga ajratiladi.


Blok - modul prinsipi asosida qurilgan har qanday unifitsirlangan o'zgartgichlar ikki asosiy elementdan iborat:

1.O'lchanayotgan kattalikni mexanik kuchga aylantiradigan o'lchanash bloki.

2.Mexanik kuchni unifitsirlangan standart signalga aylantirib beradigan kuch o'zgartgichi.

Unifitsirlangan pnevmo-kuch o'zgartgich

Unifitsirlangan pnevmo-kuch o'zgartgichning ishlash prinsipi pnevmatik kuch kompensatsiyasiga asoslangan.




1.15- rasm. Unifitsirlangan pnevmo-kuch o'zgartgichning principial sxemasi.

O'lchanayotgan texnologik kattalik o'lhash bloki 8da proporsional mexanik kuch R ga o'zgartiriladi. Bu kuchni o'zgarishi richagli sistema 1 va 2 bilan bog'langan soplo - zaslanka sistemasi zaslonkasi 4 ni harakatlantiradi.

Qisilgan havo signali drossel' orqali soplo 5 ga uzlusiz tushadi. Zaslonka 4 ni harakatlaniishi natijasida soplo-zaslonka sistemasini taqqoslash sezgir indikator o'lchanayotgan kattalik o'zgarishini qabul qiladi, qisilgan havo sarfi soplo 5 orqali o'zgaradi. Natijada kuchaytirgich signal bosimi o'zgaradi. Shunday qilib o'lchanayotgan kattalik o'zgarishi bilan richagli sistema 1 ni harakat. sistema soplo - zaslonka ta'sirida boshqarilayotgan qisilgan havo bosimiga o'zgartiriladi. O'zgartirilgan signal pnevmatik kuchaytirgich 6 kirishiga uzatiladi. Kuchaytirgichning chiqish signali distansion uzatish yo'liga va teskari aloqal sil'on 7 ga beriladi hamda proporsional, teskari aloqa R_t a. kuchga aylantirilib, o'lchanadigan kirish bosimi P bilan tenglashtiriladi. Natijada kuchaytirgich chiqishidagi qisilgan havo bosimi o'lchanadigan kattalikni qiymalini ifodalaydi. O'zgartgichni richagli sistema 1 uzatish nisbatini korrekt 2 richag sistemasini o'qi bo'yicha harakati natijasida tuzatish kiritiladi. O'lchanadigan kuchni to'xtatishli diapazoni 0 - 6,9 dan 0-49 H gacha (0-0,5dan 0-5 kgk). Chiqish signali dastlabki qiymati $1,96 \cdot 10^4$ Pa ($\sim 0,2 \text{ kgk}/\text{sm}^2$) ko'rektor prujinasi 3 orqali o'matiladi. O'zgartgich standart qisilgan havo bosimi $12,7 \cdot 10^4$ Pa ($\sim 1,4 \text{ kgk}/\text{sm}^2$) dan manbaa oladi. Signalni uzatish masofasi - 300 m.

Unifitsirlangan elektro-kuch o'zgartgich

Unifitsirlangan elektro-kuch o'zgartgichining ishlash prinsipi elektrik kuch kompensatsiyasiga asoslangan.



1.16-rasm. Unifirsirlangan elektro-kuch o'zgartgichning prinsipial sxemasi.


O'lchanayotgan kattalik o'lchash bloki 9 da mexanik kuch R ga aylantiriladi. Bu kuchni o'zgarishi bilan richagli sistema 1 va u bilan bog'langan zaslanka 4, boshqaruvchi bayroqcha hamda differensial - transformatorli solishtirish indikatori 5 da ham kichik o'zgarish hosil bo'ladi. Bu o'zgarishni indikator elektron kuchaytirgich 6 ga beriladigan o'zgaruvchan tok kuchlanishiga aylantiriladi. Kuchaytirgich o'zgarmas tok chiqish signali distansion uzatish yo'lliga hamda u bilan ketma - ket bog'langan magnitoelektrik qurilma 8 ning ramkasi 7 ga uzatiladi va unda teskari aloqali kuch R aylantiriladi. Bu kuch richagli sistema 1 orqali kirish kuchi bilan tenglashtiriladi.

O'zgartgichli chiqish signalining o'zgarish chegarasi 0-5 mA. Richagli sistema 1 korrektor 2 ni bir xilda o'zgartirish orqali o'zgartgichni berilgan o'lchash chegarasiga to'g'rilanadi. Kuchaytirgichning boshlang'ich chiqish signali nol' korrektorni prujinasi yordamida o'rnatalidi.

O'lchanayotgan kuchni to'g'rakash chegarasi 0-4,9 dan 0-49HN (0-0,5 dan 0 -5 kg). Elektrik signalni uzatish masofasi 5 km.

Unifitsirlangan kuch-chastotali o'zgartgich

Unifitsirlangan kuch-chastotali o'zgartgichning ishlash prinsipi mexanik kuchni o'zgartgich torli elementini tebranish chastotasiga aylantirishga asoslangan.




1.17- rasm. Unifitsirlangan kuch-chastotali o'zgartgichning prinsipial sxemasi.

O'lchanayotgan kattalik o'zgarishi o'lchash bloki 7 da elastik sterjen' 1 va torli element 3 yordamida qabul qilinib mexanik kuch R ga aylantiriladi. Bu kuchni o'zgarishi bilan o'zgarmas magnit maydon sterjen' 1 va torli element 3 da deformatsiya hosil bo'ladi. Torli elementning tebranishlar chastotasi o'zgarib kuchaytirgich 5 da o'zgaruvchan tok chastotasiga (1500- 2500 Gs) aylantiriladi berilgan o'lchash chegarasiga asos 4 ga qotirilan sterjenni aktiv uzunligini o'zgartirish orqali to'g'rilanadi. Chiqish signalini qiymati 1500 Gs korrektor orkali o'rnataladi. O'lchanayotgan kuchni o'zgarish diapazoni 0-4,9 dan 0-49 H. Signalni uzatish masofasi 10 km.

Elektro - pnevmatik va pnevmoelektrik o'zgartigichlar.

Avtomatik nazorat, sozlash va boshqarishning kombinatsiyalangan elektr pnevmatik sistemalarini yaratishda elektr va pnevmatik chiqish signallariga ega bo'lgan asboblar qo'llaniladi. O'lchash sistemasining elektr va pnevmatik shahobchalarini moslashtirish uchun elektro pnevmatik va pnevmo - elektril o'zgartigichlar ishlab chiqariladi.

Elektro-pnevmatik o'zgartigich 0-5 mA o'zgarmas tokning uzlusiz elektr signalini unifikatsiyalangan 20-100kPa miqdoridagi pnevmatik signalga o'zgarishga mo'ljalangan. EPP turidagi elektro - pnevmatik o'zgartigichning prinsipial sxemasi 18 rasmda tasvirlangan. O'zgartigich ishi kuch - kompensatsion prinsipi asoslangan.




1.18- rasim. Elektro - pnevmatik o'zgartigichning prinsipial sxemasi.

O'zgartigichdan nazorat va rostlash sistemalarida elektr analog asboblar bilan pnevmatik asboblar hamda sistemalar orasida bog'lanish o'rnatishda foydalanildi. Asbob elektr - mexanik o'zgartigich va pnevmatik kuchaytirgichdan iborat.

Elektrik kirish signali. ($I = 0-5\text{mA}$) elektr magnit 5-ning g'altaklari 6 ga beriladi. Bunda magnit o'tkazgichda yakor 4 ning siljishiga olib keladigan magnit oqimi paydo bo'ladi. Yakordagi kuch tok miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Shu kuch ta'sirida richag 2 ning siljishi soplo 1 liniyasida bosim o'zgarishiga olib keladi. Bu bosim pnevmatik kuchaytirgich 7 bilan kuchaytiriladi va pnevmoliniyalar bo'ylah o'zgartigich chiqishiga va teskari aloqa sil'foni z ga beriladi. Chiqish bosimi ta'sirida

gil'fonda paydo bo'ladijan kuch yakorda kirish signalidan hosil bo'lgan kuch bilan kuch richag orqali muvozanatlashtiriladi. Aniqlik klassi 0,5 ; 1,0.

Pnevmo-elektr o'zgartgich 20-100kPA miqdoridagi uzlusiz pnevmatik signalni 0-5 mA o'zgarmas tokning unifikatsiyalangan elektr signaliga o'zgartirish uchun mo'ljallangan.



1.19-rasm. Pnevmo-elektrik o'zgartgichning principial sxcmasi.

To'g'ri ta'sirli pnevmo-elektr o'zgartgich (1.19-rasm) pnevmatik kirish signalni qabul qiluvchi o'lhash bloki 1 dan va differensial transfarmatorda uzatuvchi o'zgartgichdan tashkil topgan. Bosim ta'sirida sil'fon 2 ning qo'zg'aluvchan tubi va u bilan bog'langan, birlamchi 3 va ikkilamchi 5 cho'lg'amga ega bo'lgan o'zak 4 siljiydi. Aks ta'sir etuvchi kuch prujina 6 yordamida yaratiladi. O'zakning maksimal siljishi tufayli paydo bo'ladijan asosiy xalolik 1% dan oshmaydi.

SAPFIR - 22 - Yex - M turidagi portlashdan himoyalangan o'lhash o'zgartgichlari.

SAPFIR - 22 - Yex - M turidagi portlashdan himoyalangan o'lhash o'zgartgichlari texnologik jarayonlarni avtomatik kontrol, rostlash va boshqarish sistemalarida ishlatalib, o'lchanadigan kattaliklar (ortiqcha va absolyut bosim, siyraklanish, neytral va aggressiv muhitlar bosimlar farqi) qiymatini distansion ucatishning unifirsirlangan chiqish signalga (tokga) uzlusiz o'zgartirish uchun mo'ljallangan.


Bosimlar farqini o'zgartgichlar suyuqlik sathi, suyuqlik va gazlarni sarfini unifirsirlangan elektrik signalga aylantiradi.

O'zgartgichlar o'lhash bloki va elektron qurilmadan tuzilgan. Har xil kattaliklar o'zgartgichlar unifirsirlangan elektron qurilmaga ega bo'ladi. O'lchanayo'tgan kattalik o'lhash blokin kamerasiga beriladi va sezgir element deformatsiyasiga chiziqli o'zgartirilib, o'lhash blokida joylashtirilgan tenzorezistor va tenzoo'zgartgichlarni elektrik qarshiligini o'zgarishiga aylantiriladi.

Tenzoo'zgartgichni sezgir elementi yupqa kremniy tenzorezistorli monokristal sapfirlari plastinadan iborat bo'lib, tenzoo'zgartgichni metall membranasasi bilan uzviy bog'langan.

Sapfir -22-Ex - M o'lchash o'zgartgichlarini ishlash prinsipi va sxemalarini bilan tanishamiz:


Sapfir -22-EX - M - DI 2150,2160, 2170 va sapfir - 22-EX - M-DIV. 2350 modelli o'zgartgichlarni sxemasi (1.20- rasm)da ko'rsatilgan.



1.20-rasm. Sapfir -22-Ex - M - DI 2150,2160, 2170 ni
principial sxemasi.

Membranalni tenzoo'zgartgich 3 asos 9 ichiga joylashtirilgan. Tenzoo'zgartgichning ichki qobig'i 4 kremniy organik suyuqlik bilan to'ldirilgan va metall sapfirlangan membrana 6 bilan o'lchanayotgan muhitdan ajratilgan. 10 qobig' muhit atmosferasi bilan bog'langan. O'lchanayotgan kattalik prokladka 8 bilan mustahkamlangan 5 flanetsni 7 kamerasiga beriladi. O'lchanayotgan bosim membrana 6 ga ta'sir etib, suyuqlik orqali tenzoo'zgartgich membranasiga ta'sir etadi va uni egilishiga, hamda tenzorezistor qarshiligidini o'zgarishga olib keladi, elektrik signal tenzoo'zgartgich o'lhash blokidan elektron qurilma 1 ga uzatiladi.

Sapfir - 22-Ex - M -DIV. 2351 modeli, Sapfir -22-Ex -M -DI 2151, 2161, 2171 modelli o'zgartgichlarni sxemasi 1.21- rasmda ko'rsatilgan.




1.21- rasm. Sapfir -22-Ex - M-DIV ni principial sxemasi.

Korpus 6 ichida membranali tenzoo'zgartgich 4 o'rnatilgan. O'lchanayotgan bosim 5 kameraga beriladi va tenzorezistor qarshiligini o'zgarib tenzoo'zgartgich membranasiga ta'sir qilib uni egadi. Bo'shlig' 3 muhit atmosferasi bilan bog'langan.

Elektrik signal tenzoo'zgartgich o'lhash blokidan elektron qurilmaga beriladi.

Sapfir -22-Ex - M-DA 2030, 2040 modellarini sxemasi 1.22- rasmda ko'rsatilgan.



1.22.- rasm. Sapfir -22-Ex - M-DA ni sxemasi.


Membrana - richagli tenzoo'zgartgich 4 asos 9 ichiga joylashtirilgan va o'lchanayotgan muhitudan metall gofrirlangan membrana 8 orqali ajratilgan.

8,14 membranalar va 11 qopqoq tashqi tomondan 9 asosga qotirilgan va o'zaro shtok 6 orqali bog'langan va tayanch 13 yordamida tenzoo'zgartgich 5 richagni oxiri bilan bog'langan.

O'lchanayotgan bosim 7 kameraga beriladi. Bo'shliq 12 vakuumlangan va yopilgan bo'shliq 15 ham yopiq. Flans 10-3 prokladka yordamida mahkamlangan. O'lchanayotgan bosim membrana 8 ni egilishiga, tenzoo'zgartgich 4 ni bukilishiga va tenzorezistorni qarshiligini o'zgarishiga olib keladi. Elektrik signal tenzoo'zgartgich o'lhash blokidan elektron qurilma 1 ga beriladi.

Sapfir -22-Ex - M o'zgurtgichlar uchun elektron o'zgartgich.

Elektron o'zgargich maxsus korpus 6 ni ichidagi 5,7,9 elektron sxema o'rnatilgan.



1.23 - rasm. Elektron o'zgartigich sxemasi

9 Plata 10 qobiq bilan yopilgan va 16 ikkita vintlar bilan qotirilgan. 6 korpus 4 va 8 rezinali aylunalar bilan mustahkamlangan qopqoqlar bilan yopiladi. O'zgartigich kabelli chiqish 13, klemmali kolodka 1, ekranni ulash uchun 2 vint korpusni zararsizlantirish uchun bolt 14 bilan jihozlangan. Klemmali kolodka 15 qopqoq bilan yopilib plombalangan.

11,12 kollektorlar dipazon va "nol" ni tuzatish uchun xizmat qiladi.

PES elektron o'zgartigich tarkibiga quyidagi elementlar kiradi.

1. 2PST-M turidagi alohida mikroyig'ish holida bajarilgan tenzoko'pri qarshiliqi o'zgarishini chiqish tokni signalga aylantiradigan o'zgartigich.
2. 2PST-M o'zgartigichni berilgan rejimda ishlashini ta'minlaydigan elementlar.
3. Temperaturani kompensatsiyalash sxemasi tarkibiga kiruvchi va o'lchash bloki chiqish xarakteristikasini chiziqlashtirish uchun xizmat qiladigan elementlar.
4. Chiqish tokli signalni boshlang'ich qiymatini o'lchash diapazonini tuzatish uchun xizmat qiladigan elementlar.
5. 2 PST -M sxema bilan funksional bog'langan va pechat' qiladigan platalar joylashgan VT1 va VT2 tranzistorlar.

BPS - 90 turidagi bloklar Sapsir-22-Ex yoki Sapsir-22-Ex-M o'zgartichilar bilan birga ishlash uchun xizmat qiladi.

Bloklar Sapsir-22-Ex-o'zgartichlarni manbaa bilan ta'minlaydi va sapsir-22-Ex o'zgartichini 4 20mA chiqish signalini mA chiqish signaliga aylantiradi.

Bloklar chiqish signalini berilgan ikki qiymatdan o'zgarganda signallash uchun signallash qurilmasi bilan ham ta'minlangan.

Sapsir -22-Ex o'zgartichlar BPS -90 bloki bilan ishlaydigan OExia PST 6 portlashdan himoya markirovkasiga ega.

Kirish signalini o'zgartirish turiga ko'ra bloklar ikki guruhga bo'linadi:

1. Proporsional chiziqli statik xarakteristikasiga ega. Sapsir -22-Ex o'zgartichi barcha markalari bilan ishlaydigan va o'lchanayotgan kattalik (bosim, bosimlar farqi, sath) bilan blokni chiqish signali o'rtasida chiziqli bog'lanishni ta'minlaydigan BPS - 90 P markali bloklar.

2. Ildizdan chiqaradigan nominal statik xarakteristikaga ega, Sapsir -22 DD-Ex o'zgartich bilan ishlaydigan va o'lchanadigan sarf bilan blokni chiqish signali o'rtasida chiziqli bog'lanishi ta'minlaydigan BPS - 90 K markali bloklar.

Bloklar korpusdan va harakatlanadigan shassidan iborat. Ikki simli yo'l orqali blokni kirishiga sapsir -22-x o'zgartichidan 4 20 mA, o'zgarmas tokli signal keladi va quvvati oshirilib 0 5, 0 20 yoki 4 mA li signalga quyidagi formula orqali o'zgartiriladi:

$$J_{\text{qsh}} = J_{\text{qsh}, \text{K}} + \ln(J_{\text{qsh}} - J_{\text{qsh}, \text{K}}); \text{-proporsional o'zgartirish;}$$

$$J_{\text{qsh}} = J_{\text{qsh}, \text{K}} + \ln \sqrt{(J_{\text{qsh}} - J_{\text{qsh}, \text{K}})}$$

$$J_{\text{qsh}} = J_{\text{qsh}, \text{K}} + \alpha_r \sqrt{(J_{\text{qsh}} - J_{\text{qsh}, \text{K}})} \quad \text{-ildizdan chiqarib o'zgartirish;}$$

bii yerda, Jchik - chiqish signal, mA;

$J_{\text{qsh}, \text{K}}$ - chiqish signalining quyi chegaraviy qiymati, mA;

$J_{\text{qsh}, \text{K}}$ - kirish signal, mA;

$J_{\text{qsh}, \text{K}}$ - kirish signalining quyi chegaraviy qiymati, mA.

$I_{\text{qsh}} = \frac{\Delta J_{\text{qsh}}}{\Delta J_{\text{qsh}, \text{K}}} \quad \text{-proporsionallik koeffitsenti:}$

$I_n = 0,31 \text{ } 15; 1,0 \text{ va } 1,25$ chiqish signalini $0 \div 5, 0 \div 20, 4 \div 20 \text{ mA}$ qiymatilari uchur.

ΔI_{ch} - chiqish signalining o'zgarishi diapazoni

ΔV_{ch} - kirish sig. valining o'zgarishi diapazoni.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Me'trologiya ni'mani o'rgatadi?
2. O'lchash deb ni'maga aytildi?
3. O'lchash turlarini aytинг.
4. O'lchash usullarini aytинг.
5. Nazorat o'lchov asboblarini turlarini aytинг.
6. O'lchash xatoliklari to'g'risida tushuntiring.
7. O'lchov asbobi xatoliklarini formulalar yordamida tushuntiring.
8. O'lchashning sifat ko'rsatkichlarini aytib tushuntiring.
9. O'zgartgich deb ni'maga aytildi?
10. Generatorli o'zgartgich nima?
11. Generatorli o'zgartgichlarning turlarini aytинг.
12. Chiziqli va burchakli ko'chishning o'lchash o'zgartgichlari.
13. Potensiometrik o'zgartgich nima uchun qo'llaniladi?
14. Sig'imli o'zgartgichlarning ishlashi nimaga asoslangan?
15. Induktiv o'zgartgich yordamida nima o'zgaradi?
16. Tenzometrik o'zgartgichlar nima maqsadda ishlataladi?
17. Induksion o'zgartgichlarning turlarini aytинг.
18. Taxogeneratorlarning vazifasi nimadan iborat?
19. Sel'sin nima?
20. Fotoelektrik o'zgartgich qanaqa turlarga bo'linadi?
21. Ipning tarangligi nima yordamida o'chanadi?
22. Ipning qalinligini o'lchash asbobini ta'riflang.
23. Unifitsirlangan o'zgartgich turlarini tushuntiring.

II – Bob. TEMPERATURANI O'LCHASH

2.1. TEMPERATURA HAQIDA TUSHUNCHALAR VA TEMPERATURANI O'LCHASH ASBOBLARI KLOSSIFIKATSIVASI

Temperatura ishlab chiqarishda texnologik jarayonning borishi hamda borish davrini xarakterlovchi asosiy kattaliklardan biridir. Avtomatik boshqarishning samaradorligi temperaturaning aniq bahosini belgilaydi. Temperatura - jismning issiqlik darajasi hisoblanib, molekulalarning issiqlik harakatidan aniqlenadigan ichki kinetik energiya miqdoridir. Temperaturani o'lchash imkonii issiqlik almashishiga, issiq moddaning issiqligi o'zidan kam bo'lgan moddaga o'tish qobiliyatiga asoslangan. O'lchanayotgan temperaturalarning son qiymatini topish uchun temperaturalar shkalasini o'matish, ya'nini sanoq boshini va temperatura intervalining o'lchov birligini tanlash lozim. Agar temperatura «gradus» bilan o'lchansa, uning o'lchov birligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$1\text{ gradus} = \frac{t_2 - t_1}{n} \quad (2.1)$$

bu yerda: t_1 - jismning boshlang'ich chegara nuqtasidagi temperaturasi;
 t_2 - shu jismning ikkinchi holatga o'tish nuqtasidagi temperaturasi;
 n - butun son (shkala bo'linmalari soni).

Hozirgi vaqtida bir necha xil o'lchov shkalalari mavjud. Jumladan:

1. Xalqaro amaliy temperaturalar shkalasi (Selsiy shkalasi).
2. Termodinamik shkala (Kelvin shkalasi).

Xalqaro amaliy temperaturalar shkalasida temperaturaning o'lchov birligini topish uchun suvning uch holati - muzlash, qaynash va bug'lanish nuqtalari orasidagi temperatura miqdori 100 bo'lakka bo'linadi. Agar suvning muzlash nuqtasi $t_1=0$, qaynash nuqtasi $t_2=100^\circ C$ va $n=100$ deb qabul qilinsa, temperaturaning Selsiy shkalasidagi o'lchov birligi bo'ladi.

$$\frac{t_2 - t_1}{n} = \frac{100 - 0}{100} = 1^\circ C \quad (2.2)$$

Termodinamik shkala esa, absolyut temperaturalar shkalasini joriy etgan ingliz olimi Kelvin nomi bilan yuritiladi. Absolyut temperatura Gey-Lyussak qonuni

$$V = V_0(1 + \alpha t^0) \quad (2.3)$$

ga muvosiq temperaturanering boshlanguich nuqtasi absolyut nol temperaturanering bo'lishiga asoslanadi yuqoridagi ifoda ideal gaz hajmi V ning o'zgarishi $P = \text{const}$ bo'lganda temperaturanering o'zgarishiga bog'liqligini ko'rsatadi, bu yerda: V_0 - Selsiy shkalasi bo'yicha temperatura nol bo'lgandagi gaz hajmi;

α - hamma gazlar uchun bir xil bo'lgan hajmi kengayish termik koefitsiyenti.

Absolyut nol temperaturada (T_0) gaz hajmi $V = 0$ deb faraz qilinsa,

$$0 = V_0(1 + T_0\alpha) \quad (2.4)$$

bo'lib, absolyut temperaturanering qiymati $T_0 = -273,16$ bo'ladi.

Absolyut nol temperaturani amalda o'lchash mumkin emas, chunki temperatura pasaygan sari, gaz hajmi nolga yaqinlashmay, suyuqlikka aylanadi.

Amalda temperaturani o'lchash uchun xalqaro amaliy shkalalar - Selsiy va Kelvin qo'llaniladi. Bu shkalalarni Selsiy shkalasi asosida tuzilgan, ularning o'lchov birligi amaliy shkalalar - selsiy, t hamda kelvin, T .

Xalqaro amaliy shkala bo'yicha temperatura Kelvinda o'lchansa, uning qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$T = t^0 + 273,16 \quad (2.5)$$

Xalqaro birliliklar sistemasida temperaturanering o'lchov birligi sisatida kelvin (K). ya'ni suvning muz, suv, bug' holatida bo'ladi nuqtasi deb ataladigan termodinamik temperaturasi qabul qilingan. Shu bilan bir qatorda XBS da temperaturanering Xalqaro amaliy temperatura shkalasi - Selsiy shkalasida ($^{\circ}\text{C}$) o'lchashni ham tavsya qilinadi. Bu shkala jismalarning o'zgarmas holatlaridan oltitasining mayjudligiga asoslangan:

1. Kislorodning qaynash nuqtasi: $182,97^{\circ}\text{C}$.
2. Suvning bir vaqtida uch holatda (muz, suv, bug') bo'lish nuqtasi: $0,01^{\circ}\text{C}$.
3. Suvning qaynash nuqtasi: $+100^{\circ}\text{C}$.
4. Otingugurtning qaynash nuqtasi: $+444,6^{\circ}\text{C}$.
5. Kumushning qotish nuqtasi: $+961,93^{\circ}\text{C}$.
6. Oltinning qotish nuqtasi: $+1064,43^{\circ}\text{C}$.

Bu shartli nuqtalarga asoslanib, etalon o'lchov asboblarining shkalasi darajalanadi.

Qattiq, suyuq va gazsimon moddalarning temperaturasini o'lchash uchun amalda turli xil qurilmalar - termometrlar qo'llaniladi.

Temperaturani o'lchash usuliga ko'ra barcha termometrlar ikki guruhg'a bo'linadi: kontaktli va kontaktlitsiz (Bevosita muhit bilan kontaktda bo'ladigan va muhit bilan kontaktda bo'lmaydigan.) Birinchi guruhg'a kengayish termometrlari, manometrik termometrlar, termoelektrik termometrlar va qarshilik termometrlari (termistorlar) kiradi. Ikkinchchi guruhg'a esa turli turdag'i pirometrlar kiradi.

KENGAYISH TERMOMETRLARI

Kengayish termometrlari temperaturani o'lchash vositalari hisoblanib, ularning ishlash usuli moddalarning hajmi va chiziqli kengayishi, termometr tushriigan muhit temperaturasining o'zgarishiga asoslangan. Kengayish termometrlari ikki turga bo'linadi: 1. Suyuqlikli. 2. Mexanik.

Suyuqlikli kengayish termometrlari

Suyuqlikli kengayish termometrlari yordamida temperaturani o'lchash termometrga joylashtirilgan suyuqlikning issiqlik ta'sirida turlicha kengayish koefitsiyentiga asoslangan.

Termometrning suyuqlik to'dirilgan qismi issiqlikdan kengayish koefitsiyenti kichik bo'lgan maxsus shisha sirtlaridan tayyorланади. Suyuqlikli kengayish termometrlarining temperaturani o'lchash chegarasi -200°C dan +750°C gacha.


Suyuqlikli termometrlarda o'lchash chegarasiga qarab, termometrik modda sifatida quyidagi suyuqliklar qo'llaniladi: Pentan (-200... +20°C), petroleylı efir

(-120...+25°C), etil spirti (-80...+70°C), toluol (-90...+200°C), kerosin

(-60...+300°C) va simob (-35...+750°C).

Temperaturasi o'chanayotgan muhit bilan kontaktda bo'lgan termometr uning temperaturasini qabul qilgan bir paytda, termometrik suyuqlik isishi yoki sovishi natijasida, o'zining hajmini o'zgartiradi, ya'ni shisha trubkada sati o'zgarib, temperatura o'lchov birligida darajalangan shkalada temperatura qiymatini ko'rsatadi.

Simobi kengayish termometrlari quyidagi xususiyatlariga ko'ra ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Birinchidan, simob temperaturaning -38... + 350°C gacha bo'lgan chegarasida (normal bosimda) va +750°C gacha oshirilgan bosimda suyuq holatda bo'ladi. Ikkinchidan, simob ouson tozalanadi hamda uning bug'lari shisha naychada kam bosim hosil qiladi.



2.1- rasm. Simobli texnik termometrlar. *a* - burchakli, *b* - to'g'ri,
c - elektr kontaktli.

Bunday termometrlarning kamchiligi esa boshqa organik suyuqliklarga nisbatan kengayish koefitsiyenti kichik bo'lib, simobli termometrlarning sezgirligini kamaytiradi. Simobli texnik termometrlarning umumiy ko'rinishi 2.1- rasmida keltirilgan.

Suyuqlikli kengayish termometrlarining texnik tavsiflari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1 – jadval

Belgilanishi		O'lichash chegarasi, °C	Shakesining bo'linmalar oraliqi, °C	Ostki qismining uzunligi, mm	
To'g'ri	Burchakli			To'g'ri	Burchakli
T-2	B-2	(-30+50)	0,5:1		
T-4 T-5	B-4	0...100	1		
T-6 T-7					
T-8 T-9	B-5	0 .. 160		66:103:163	104:141:201
T-10 T-11	B-6	0...200	1:2	253:403:633	
	B-7	0...300	2	1003	
	B-8	0...350			
	B-9	0...400	5		
	B-10	0...450		103:163:253	103:141:201
	B-11	0...500		403	291

Izoh.


1. Termometrlar yuqori qismining uzunligi 240 mm. Yuqori o'lchash chegarasiga ega bo'lgan to'g'ri va burchakli (T-2 T-6; B-2 B-6) termometrlar yuqori qismining uzunligi esa 160 mm.

2. Termometrlar yuqori qismining diametri 20 mm ga teng, pastki qisminiki esa 8,5 mm dan ko'p emas.

3. Termometrlarning ko'rsatish xatoligi bir bo'linma sonidan oshmaydi.

Dilatometrik termometrlar

Dilatometrik termometrlarning ishlashi qattiq jismlaming issiqlikdan chiziqli kengayishiga asoslangan. Sterjenli dilatometrik termometrlarning (2.2- rasm) ishlash usuli esa sterjen va trubkaning issiqlikdan kengayish farqlaridan foydalanishga asoslangan. Trubka 7 va sterjen 2 ning issiqlikdan chiziqli kengayish koefitsiyentlari turlicha bo'ladi. Trubka chiziqli kengayish koefitsiyenti kichik bolgan (kvarts, invar), sterjen esa chiziqli kengayish koefitsiyenti katta bo'lgan (latun (jez), mis, alyuminiy, po'lat) materiallardan tayyerlanadi. Sterjenning chiziqli harakati richag mexanizmi 3 yordamida asbobning ko'rsatgichiga uzatiladi.



2.2 – rasm. Dilatometrik termometr

Umuman, metallar va ularning qotishmalari yuqori chiziqli kengayish koefitsiyentiga ega. Bu ko'rsatkich latun uchun $18,9 \cdot 10^6 \cdot K^{-1}$, nikel uchun esa $13,4 \cdot 10^6 \cdot K^{-1}$ ga teng. Shu bilan bir qatorda chiziqli kengayish koefitsiyenti kichik bo'lgan qotishmalar va materiallar ham mavjud. Masalan, invar qotishmasi (64 % Fe va 36 % Ni) uchun

$$\alpha = 0,9 \cdot 10^{-6} \cdot K^{-1}, \text{ kvars uchun } \alpha = 0,55 \cdot 10^{-6} \cdot K^{-1} \text{ va chinni uchun}$$

$$\alpha = 4 \cdot 10^{-6} \cdot K^{-1}$$

Bimetalli termometrlar

Bimetalli termometrlarning ishlashi ham dilatometrik termometrlarga o'xshaydi. Bimetalli termometrlarning issiqlikdagi kengayishiga asoslangan.

Bimetalli termometrlar spiral yoki tekis prujina shaklidagi sezgir elementlarda iborat (2.3- rasm) bo'lgan ikkita har xil metall plastinkadan tashkil topgan. Plastinkalar butun uzunligi bo'yicha kavsharlangan. Plastinkalardan biri 1 yuqori kengayish koefitsiyentiga ega bo'lganligi uchun, issiqlik oshishi natijasida plastinka shaklidagi prujina ma'lum burchakke buriladi. Bu burilish esa o'z navbatida asbob ko'rsatgichining burilishi olib keladi. Dilatometrik va bimetalli termometrlar yordamida -150°C dan $+700^{\circ}\text{C}$ gacha bo'lgan temperaturalar o'chanadi. O'chash xatoligi 1—2,5 % ni tashkil qiladi.



2.3- rasm. Bimetalli termometr


MANOMETRIK TERMOMETRLAR

Manometrik termometrlarning ishlash usuli geometrik yopiq hajm ichiga joylashtirilgan termometrik moddalarning (gaz, suyuqlik va kondensatsion suyuqlik), hajmi o'zgarmagan holda bosimining o'zgarishi, ular kiritilgan muhit temperaturasiga bog'liqligiga asoslangan.

Geometrik hajmnинг qanday modda bilan to'ldirilganligiga qarab, manometrik termometrlar gazli, suyuqliki va kondensatsion (tez bug'lanuvchi suyuqlik) bo'lishi mumkin. Har birining ishlash usuli gazli manometrik termometr bilan bir xil.

Manometrik termometr (2.4- rasm) sezgir element - termoballon 1, bosim o'zgarishini uzatuvchi kapillyar (trubka nay) 6, manometrik prujina 3, tishli uzatma 4, o'lchov o'zgarishining ko'rsatkichi 5 hamda ko'rsatish darajasi 2 dan iborat.

Sezgir element - termoballon temperaturasi o'lchanishi kerak bo'lgan muhitga tushirilganda, muhit temperaturasining o'zgarishiga mos ravishida geometrik hajm (termoballon, kapillyar nay, trubkali prujinalar) ichidagi termometrik moddalar (gaz, suyuqlik yoki bug') ning bosimi o'zgaradi. Bu o'zgarish miqdori asbob ko'rsatgichining harakati bilan aniqlanadi.



2.4 – rasm. Manometrik termometr.

Hajm o'zgarmaganda manometrik termometrlarda bosimning temperatura o'zgarishiga bog'liqligi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$P_t = P_0 [1 + \beta(t - t_0)] \quad (2.6)$$

bu yerda: P , va t - lar / va t_0 temperaturalardagi ishchi moddal: uning bosimi;

β - bosimning temperatura koefitsiyenti.

Gazli termometrlarda bosimning temperatura koefitsiyenti gazlar hajmi kengayishining termik koefitsiyentiga teng:

$$\beta = \frac{1}{273} \cdot 1^{\circ}\text{C} \quad (2.7)$$

suyuqlikli asboblar uchun esa

$$\beta = \frac{\pi}{\mu P_0} \quad (2.8)$$

bu yerda: α -suyuqlik hajmi kengayishining termik (issiqlik)koefitsiyenti;

μ — suyuqlikning siqilish koefitsiyenti.

(2.6) - tenglamadan ko'riniб turibdiki, sezgir element - termoballonning qizis temperurasi qancha yuqori bolsa, termometr sistemasidagi bosim shuncha katta bo'ladi.

Asbobni darajalash jarayonida shkala temperatura o'lchov birligida (graduslarda) darajalanadi.

Manometrik termometrlarda ishchi modda sisatida quyidagilar qo'llaniladi:

a) suyuqlikli termometrlarda: simob- temperaturani o'lchash chegarasi -30°C dan $+55^{\circ}\text{C}$, ksilol (-40°C dan $+400^{\circ}\text{C}$), metil spirti (-40°C dan $+150^{\circ}\text{C}$) gacha;

b) gazli termometrlarda: azot yoki geliy -130°C dan $+350^{\circ}\text{C}$ gacha chegaradagi temperaturani o'lchanish uchun;

d) kondensasion termometrlarda: xlormetil -20°S dan $+100^{\circ}\text{S}$ gacha, xlormetil 20°C dan 170°C gacha, benzol 90°C dan 200°C gacha chegarada temperaturani o'lchash uchun qo'llaniladi.

Barometrik bosimning (tashqi muhit ta'sirining) manometrik termometrlar ko'rsatishiga ta'sirini kamaytirish uchun manometrik sistemani to'ldirishda boshlang'ich bosim hosil qilinadi va uning qiymatini (3.6) tenglamadan aniqlash mumkin:

$$P_0 = \frac{\Delta P}{\beta(t-t_0)} \quad (2.9)$$

bu yerda: $\Delta P = P_t - P_0$ - termometrik sistemada temperatura t , dan t gacha o'zgarganda bosimning o'zgarishi.

Termometrik sistemasi gaz va suyuqlik bilan to'ldirilgan termometrlarning o'lchov aniqligi: 1; 1,6; 2,5; simob bilan to'ldirilgan termometrlarning o'lchov aniqligi: 0,6; 1; 1,6; kondensatsion termometrlarning o'lchov aniqligi: 1; 1,6; 2,5; 4

TERMOELEKTRIK TERMOMETRLAR

Temperaturani masofadan turib o'lchash uchun termoelektrik termometrlar qo'llaniladi.

Termoelektr o'zgartgich (termopara), ikkilamchi o'lchov asbobi va birlamchi simlardan tuzilgan qurilma *termoelektrik termometr* deb nomlanadi.

Termoelektrik termometr yordamida temperaturani o'lchash 1821-yilda T. Zeeb tomonidan yaratilgan «termoelektrik hodisalar» kashfiyoti asosida amalga oshiriladi.

Termoelektrik o'zgartgichlarning ishlash usuli ikkitsi turli xildagi A va B o'tkazgichlardan iborat (2.5- rasm) yoki zanjirda temperaturalar farqi hisobiga termoelektr yurituvchi kuch (TEYUK) hosil bo'llishiga asoslangan. O'tkazgichlarning bir uchi bir - biriga kavsharlangan, ikkinchi uchi esa bo'sh (erkin) bo'ladi. Kavsharlangan qism issiq ulanma, ikkinchi, tashqi muhitdagi qismi esa sovuq ulanma deyiladi. Termoparaning kavsharlangan qismi temperaturasi o'lchanayotgan muhitga tushirilganda 1 va 2 nuqtalarda temperaturalar farqi hosil bo'lib, zanjirda, TEYUK ya'ni elektr toki hosil bo'ladi.



2.5-rasm. Termoelektrik o'zgartgich.

Ulanmalar t_0 va t temperaturagacha qizdirilganda hosil bo'lgan umumiy TEYUK quyidagi tenglama bilan ifodalaradi:

$$E_{AB}(tt_0) = e_{AB}(t) + e_{BA}(t_0) \quad (2.10)$$

bu yerda: $E_{AB}(tt_0)$ — zanjirda hosil bo'lgan umumiyl TEYUK,

$e_{AB}(t)$, $e_{BA}(t_0)$ — issiq va sovuq ulanmalarda hosil bo'lgan potensiallар farqi — TEYUK.

Agar ulanmalarda temperaturalar bir-biriga teng bo'lsa, zanjirda hosil bo'lgan TEYUK nolga teng bo'ladi, ya'ni

$$E_{AB}(tt_0) = e_{AB}(t) + e_{BA}(t_0) = 0 \quad (2.11)$$

(2.11) tenglamadan:

$$e_{AB}(t) = -e_{BA}(t_0) \quad (2.12)$$

(2.12) tenglamani (2.10) tenglamaga qo'yosak, u holda:

$$E_{AB}(tt_0) = e_{AB}(t) - e_{BA}(t_0) \quad (2.13)$$

Shunday qilib, hosil bo'lgan TEYUK o'zgaruvchi temperaturalar, ya'ni ulanmalardagi temperaturalar murakkab funksiyasi bo'lib, qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi. Ulanmalardan birining temperaturasini o'zgarmas deb olsak, ya'ni $t_0 = \text{const}$ bo'lsa, u holda:

$$E_{AB}(tt_0) = e_{AB}(t) = f(t) \quad (2.14)$$


(2.14) ifoda mazkur termopara uchun darajalash yo'li bilan TEYUK va temperatura nisbatini topish, temperaturani o'lchash masalasini teskari yechish kerakligini, ya'ni termoparaning TEYUKni o'lchash bilan temperaturaning qiyimating aniqlash mumkin ekanligini bildiradi.

Termoelektrik termometr yordamida temperaturani o'lchash uchun termoelektrik o'zgartigich zanjiriga o'lchov asbobi ikki xil usulda ulanadi:

- termoelektrik o'zgartigichning (TEO') erkin uchlariga (2.6-*a* rasm);
- uning elektrodlaridan biriga (2.6-*b* rasm).


Agar o'lchov asbobini ularash nuqtalari «a» va «b» da temperatura har doim bir xil bo'lsa, u holda zanjirda TEYUK o'zgarmaydi. Biroq temperaturani o'lchash jarayonida bu shart har doim ham bajarilmaydi, chunki birinchidan, TEO' ning erkin uchlarida temperatura doimiy bo'lsada, shu TEO' ning darajalash temperatursidagi

farg' qiladi; ikkinchidan, erkin uchlairining temperaturasi o'lchash jarayonida vaqt davomida o'zgarish xususiyatiga ega. Termo EYUK ning katteligiga tashqi muhit temperaturasi ta'sirini bartaraf etish uchun, TEO'ni o'lchov asbobiga ulashning ikki xil sxemasi mavjud.



2.6- rasm. TEO'ning kompensatsion qutisiz ulash sxemalari.


1. TEO'ni termoelektrik o'tkazgichlar yordamida ulash. Bu holda TEO'ning erkin uchi o'tkazgichning butun uzunligi bo'yicha ko'chirilishi mumkin, ya'ni amalda TEO'ning erkin uchini o'zgaruvchan temperaturali muhitdan o'zgarmas temperaturali muhitga o'tkazish mumkin. Demak, TEO'ning (2.6- b rasm) erkin uchi «a» va «b» nuqtadan termoelektrod o'tkazgichlar D va E yordamida «a'» va «b'» nuqtagacha uzaytiriladi. Termoelektrod o'tkazgichlar sifatida TEO'ning o'zi tayyorlangan modda tanlanadi. 2. TEO'ni o'lchov asbobiga ulash uchun (temperaturani kompensatsiya qilish qurilmasi bo'limgan) TK-54 modda maxsus kompensatsion qutidan foydalanish ko'zda tutiladi (2.7- rasm).



2.7 – rasm. Termoelektrik o'zgartgichning kompensatsiyalovchi quti bilan ularish sxemasi.

Kompensatsiyalovchi qutining ishlashi TEO'ning erkin uchlarida tashqi muhit temperaturasi o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan TEYUKni ko'prikl sxema yordamida muvozanlashtirishga asoslangan.

Termoelektrik o'zgartigich 1 termoelektrod o'tkazgichlar 2 yordamida kompensatsiyalovchi quti bilan ulanadi. Buning natijasida TEO'ning erkin uchla qutining ko'prikl sxemasi elektr qarshiligining ma'lum temperatura koefitsiyenti ega bo'lgan matroganindan tayyorlangan doimiy qarshiliklar R_1 , R_2 , R_3 va nikelda tayyorlangan o'zgaruvchan qarshilik R_d ni ulaydi. R_d qarshilik ko'prikkha beriladigan kuch'anishni ma'lum qiyamatgacha o'zgartirishga xizmat qiladi va TEO' materialiga bog'liq bo'lgan turli kattalikka ega. TEO' va o'lchov asbobi 4 quti ko'prigining «ab» diagonaliga ketma-ket ulangan, tok manbayi 5 va qoshimcha qarshilik R_d esa «d» diagonalga ulangan. Atrof-muhit temperaturasi 293 K (20°C) bo'lganda ko'pri muvozanatda bo'ladi. Atrof-muhit temperaturasi yuqorida keltirilgan qiyamatdan chetga chiqsa (o'zgarsa), sovuq ulanmaning temperaturasi o'zgaradi, o'zgaruvchan qarshilik ham o'zgaradi, ko'prikl muvozanati buziladi va «a» va «b» diagonal uchlarida TEO'ning EYUK qiyamatiga teng hamda teskari ishorali (yo'nalgan potensiallar farqi hosil bo'ladi). Natijada TEO'ning sovuq ulanmasining TEYUK avtomatik kompensatsiyalash amalga oshiriladi va o'lchov asbobining ko'satish faqat TEO'ning issiq ulanmasida TEYUKning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. TEO'ning qurilmasi 2.8- rasmida keltirilgan.



2.8 - rasm. Termoelektrik o'zgartigich.
a-sezgir element; b-o'zgartigichning tuzilishi

Aynan TEO' ikkita 0,5 mm diametrli termoelektroddan (platina va radiyototishmasi va platina) yoki 1,5-3 mm diametrli elektroddan (xromel-alyumel va

xromel-kopel) tashkil topgan bo'lib, bir uchi toblanadi (buraladi) va kavsharlanib, termopara (termojuft)ning 1 issiq ularmasini hosil qiladi. Issiq ularma (ishchi uch) chinni moslama 2 ichiga joylashtirilgan. Ba'zi hollarda TEO' uncha yaxshi bo'limgan metallardan tayyorlansa, ishchi uchi toblanadi va himoya g'ilofining tubiga kavsharlanadi. TEO'ning erkin uchlari chinni bolakchalar 4 yordamida himoyalanib, termoo'zgartigichning 6 bosh qismida joylashgan ulagichlarga chiqarilgan, bosh qism esa qopqoq 10 bilan yopilgan (2.8 - b rasm). Ulovchi o'tkazgichlar maxsus teshik // dan kiritiladi. Bosh qismning ichida ikkita qo'zg'aluvchan qisqichli 8 kolodka 7 joylashgan bo'lib, termoelektrod va ulash simlarini qotirish uchun ikki juft vintga ega. Qo'zg'aluvchan qisqichlar har bir elektrudni issiqlikdan cho'zilish erkinligini ta'minlaydi, bu esa o'tkazgichlarda TEO'ning tez ishdan chiqishiga olib keladigan mexanik kuchlanishlarni bartaraf etadi. Himoya g'ilofi 3 TEO'ni qotirish (o'matish) uchun qo'zg'aluvchan flanes 5 joylashtirilgan.

Termoelektrodlar sifatida ba'zi toza metallar va qotishmalar ishlataladi. Masalan, platinarodiy - platina va rodiy qotishmasi, xromel - xrom va nikel qotishmasi, kopel - mis va nikel qotishmasi, alyumel - alyuminiy va nikel qotishmasi hamda ba'zi maxsus qotishmalar. Sanoatda temperaturani o'lhash uchun keng tarqalgan ayrim standart termoparalarning texnik tafsiflari 2-jadvalda keltirilgan.

Termoparalarning texnik tafsiflari

2 - jadval

Termoelektrod turi	Gradurov ka	Termoelektrod Materiali	Uzoq muddatga ishlataliganda temperaturani o'lhash chegarasi, K	Qisqa muddatga ishlataliganda temperaturani o'lhash ruxsat berilgan chegarasi, K
TPP	PP-1	Platinarodiy (10% rodiy) – platina	253 – 1573	1873
TPR	PP-30/6	Platinarodiy(30% rodiy)–platinarodiy	573 – 1873	2073
TXA	XA	Xromel-alyumel	223 – 1273	1573
TXK	XK	Xromel-kopel	223 – 873	1073

Termoelektrik o'zgartigichning afzallikiari quyidagilardan iborat: yuqori o'lhash chegarasiga ega, yuqori sezgirlik, kichik inersionlik, qo'shimcha tok manbayı talab qilinmaydi, o'lhashni masofaga uzatish imkoniyatiga ega.

Termoelektrik o'zgartgichning erkin uchlarida temperaturani bir xilda saqlah turish talab qilinishi ularning kamchiligi hisoblanadi. Birinchi nomlari yozilgan qotishmalar musbat elektrodlar hisoblanadi.

TEO'lar bilan komplektda birqalikda ikkilamchi asbob sifatida pirometrik millivoltmetr va avtomatik potensiometrlar ishlataladi.

QARSHILIK TERMOMETRLARI

Temperaturani past chegaralarda o'lhashda keng qo'llaniladigan termo o'lchov asbobi *qarshilik termometri* hisoblanadi. Bu termometrlami markazlashdirilgan holda, masofadan turib ko'p nuqtalarda temperaturani o'lhashi asosiy o'r'in tutadi (boshqalardan farq qiladi). Qarshilik termometrlari yordamida temperaturani o'lhash temperatura o'zgarishi bilan o'tkazgichlar va yarim o'tkazgichlar qarshiligining o'zgarish xususiyatiga asoslangan.

Termometming sezgir clementlarini tayyorlash uchun platina va mis metallaridan foydalaniлади. Platinadan tayyorlangan termometrlar -200°C dan $+1100^{\circ}\text{C}$ gacha, misdan tayyorlanganlari esa -50°C dan $+200^{\circ}\text{C}$ gacha chegarada temperaturalarni o'lchaydi.

Qarshilik termometri bilan birqalikda ishlataladigan o'lhash kompleksi quyidagi elementlardan iborat: qarshilik termometri, elektr ularash simlari, tolmanbayi va o'lhash asbobi.

Bitta o'lhash asbobiga qayta ulagich yordamida bir nechta qarshilik termometrlarini ularash mumkin.

Qarshilik termometrlarini darajalash ular tayyorlangan materialni 0°C dagi qarshiligidagi o'lhash bilan amalgalash oshiriladi. Quyidagi daraja turlari mavjud:

Daraja turi	20	21	22	23	24
0°C dagi qarshiliqi, Om	10	46	100	53	100

20, 21 va 22 — darajali qarshilik termometrlari uchun platinadan, 23, 24 — darajalisi uchun esa misdan foydalaniлади.

4- Javval 20 va 22 – darajali, platinadan					
t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om
400	249,38	550	300,58		
410	252,88	560	303,90		
420	256,16	570	307,21		
430	259,83	580	310,50		
440	263,29	590	313,79		
450	266,74	600	317,06		
460	270,18	610	320,32		
470	273,60	620	323,57		
480	277,01	630	326,80		
490	280,41	640	330,03		
500	283,80	650	333,25		
510	287,18	-	-		
520	290,55	-	-		
530	293,91	-	-		
540	297,25	-	-		

21 – darajali, platinadan tayyorlangan qarshilik termometrlarining darajalish jadvali

R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om	t, $^{\circ}\text{C}$	R, Om
63,99	250	89,96	400	114,72	550	137,27	-200	1728	-50	80,0	100	139,10
65,76	260	91,64	410	116,32	560	139,79	-190	21,65	-40	84,03	110	142,95
67,52	270	93,33	420	117,93	570	141,32	-180	25,98	-30	88,04	120	146,78
69,28	280	95,00	430	119,52	580	142,83	-170	30,29	-20	92,04	130	150,60
71,03	290	95,86	440	121,11	590	144,34	-160	34,56	-10	96,03	140	154,41
72,78	300	98,34	450	122,70	600	145,85	-150	38,80	0	100,00	150	159,21
74,52	310	100,01	460	124,28	610	147,35	-140	43,02	10	103,96	160	162,00
76,26	320	101,66	470	125,86	620	148,84	-130	47,21	20	107,91	170	165,78
77,99	330	103,31	480	127,43	630	150,33	-120	51,38	30	111,85	180	169,54
79,71	340	104,96	490	128,99	640	151,81	-110	55,52	40	115,78	190	173,29
81,43	350	106,60	500	130,55	650	153,30	-100	59,65	50	119,70	200	177,03
83,15	360	108,23	510	132,10	-	-	-	63,75	60	123,60	210	180,76
84,86	370	109,86	520	133,65	-	-	-	67,84	70	127,49	220	184,48
86,56	380	111,48	530	135,20	-	-	-	71,91	80	131,37	230	188,18
88,26	390	113,10	540	136,73	-	-	-	75,96	90	135,24	240	191,88

7- jadval

23 – darajali, platinadan tayyorlangan tayyortangani

$t, {}^{\circ}\text{C}$	R. Om	$t, {}^{\circ}\text{F}$	R. Om	$t, {}^{\circ}\text{C}$	R. Om									
-50	41,71	0	53,00	50	64,29	100	75,58	150	86,87	-200	7,95	-50	36,80	100
-40	43,97	10	55,26	60	66,55	110	77,84	160	89,13	-190	9,96	-40	39,65	110
-30	46,23	20	57,52	70	68,81	120	80,09	170	91,38	-180	11,95	-30	40,50	120
-20	48,48	30	59,77	80	71,06	130	82,35	180	93,64	-170	13,93	-20	42,34	130
-10	50,74	40	62,03	90	73,32	140	84,61	-	-	-160	15,90	-10	44,17	140
										-150	17,85	0	46,00	150
										-140	19,79	10	47,82	160
										-130	21,72	20	49,64	170
										-120	23,63	30	51,45	180
										-110	25,54	40	53,26	190

7- jadval

24– darajali, platinadan tayyorlangan qarshilik
termometrlarining darajalash jadvali

$t, {}^{\circ}\text{C}$	R. Om	$t, {}^{\circ}\text{F}$	R. Om	$t, {}^{\circ}\text{C}$	R. Om	$t, {}^{\circ}\text{C}$	R. Om							
-50	78,70	0	100,00	50	121,30	100	142,60	150	163,90	-100	27,44	50	55,06	200
-40	82,96	10	104,26	60	125,56	110	146,86	160	168,16	-90	29,33	60	56,86	210
-30	87,22	20	108,52	70	129,82	120	151,12	170	172,42	-80	31,21	70	58,65	220
-20	91,48	30	112,78	80	134,08	130	155,38	180	176,68	-70	33,08	80	60,43	230
-10	95,74	40	117,04	90	138,34	140	159,64	-	-		34,94	90	62,21	240

Platina va misdan tayyorlangan qarshilik termometrlarini darajalash 4, 5, 6, 7-jadvallarda keltirilgan.

$R_0 = 100 \text{ Om}$ - 21 darajali termometrlar uchun;

$R_0 = 10 \text{ Om}$ - 20 darajali termometrlar uchun.

(0°C dagi qarshiligi 10 Om bo'lgan termometrlar uchun barcha qiymatlarni 10 ga bo'lish tavsiya etiladi).

Termometrlarning darajalash jadvallarida keltirilgan turli temperaturalardagi elektr qarshiliklar quyidagi formulalar bo'yicha aniqlanadi:

a) platinadan tayyorlangan qarshilik termometrlari uchun:

$$R_t = R_0 [1 + At + Bt^2 + Ct^3 (t - 100)],$$

agar $-200^\circ \text{C} \leq t \leq 0^\circ \text{C}$ bo'lsa; (2.14)

$$R_t = R_0 (1 + At + Bt^2), \text{ agar } 0^\circ \text{C} \leq t \leq +650^\circ \text{C} \text{ bo'lsa; (2.15)}$$

b) misdan tayyorlangan qarshilik termometrlari uchun:

$$R_t = R_0 (1 + \alpha t), \text{ agar } -50^\circ \text{C} \leq t \leq +180^\circ \text{C} \text{ bo'lsa; (2.16)}$$

bu yerda: R_0 - termometrning 0°C temperaturalagi qarshiligi,

R_t - termometrning $t^\circ \text{S}$ temperaturalagi qarshiligi;

A, B, C - qiymatlari darajalash yo'li bilan, mos ravishda,

kislорodning ($-182,97^\circ \text{C}$), suvning (100°C) va

kumushning ($444,6^\circ \text{C}$) qaynash temperaturalarida
aniqlanadigan doimiy koeffitsiyentlar;

A - misning elektr qarshiligi termik koeffitsiyenti.

$A = 3,96847 \cdot 10^{-3} \text{ I/grad};$


$B = -5,847 \cdot 10^{-7} \text{ I/grad};$

$C = -4,22 \cdot 10^{-12} \text{ I/grad};$

$\alpha = 4,26 \cdot 10^{-3} \text{ I/grad}.$

Platinali qarshilik termometr diametri $0,03\ldots0,1 \text{ mm}$ li simlardan tayyorlanadi. Platining qimmataho metalligi termometrning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Misning afzallik tomonini esa narxining arzonligi va yuqori tozalik darajasiga ega bo'lgan juda ingichka sim olish imkoniyati borligi ko'rsatadi.

Sanoatda gazsimon suyuq moddalarning temperaturasini o'lchash uchun moslashgan (bir xillashtirilgan) konstruksiyali qarshilik termometrlari ishlab chiqariladi (2.9- rasmida qarshilik termometrining konstruktiv sxemasi keltirilgan). Termometr himoyalangan po'lat g'ilof 5 ichiga joylashtirilgan sezgir element 6 termometri qotirish uchur xizmat qiladigan himoyalangan po'lat g'ilof 5 ga kavsharlangan rezbali shtutser 4 dan iborat. Armirlangan (armaturalangan) chinni trubkachalar 3 ichidan o'tgan simlar yordamida sezgir element bosh qismi 1 da joylashtirilgan ularmalar quduqchasi bilan birlashtiriladi (ulanadi).



2.9 – rasm. Qarshilik termometri.

Termometrlarning asosiy texnik tavsiflari 8 – jadvalda keltirilgan.

Qarshilik termometrlarining texnik tavsiflari.

8-jadval

Turi	Aniqlik toifasi	Temperaturani o'lchash chegarasi, $^{\circ}\text{C}$	Darajasi (graduirovka)	$^{\circ}\text{C}$ dagi boshlang'ich qarshiligi, Om
PT platinali	I	0....650 - 200....0	Gr 20	10
			Gr 21	46
			Gr 22	100
misli	II	- 50....180	Gr 23	53
			Gr 24	100


6651-84 DS ga ko'ra termometrlarning chiqish signali standart hisoblanib, temperaturaning har bir qiymatiga qarshilikning belgilangan qiymati to'g'ri keladi.

YARIM O'TKAZGICHLI TERMOSEZGICHLAR

Yarim o'tkazgichli termometrik qarshiliklar yoki termistorlarning termik koefitsiyenti toza metallarniga nisbatan 8-10 marta yuqori bo'lganligi uchun, temperaturani avtomatik boshqarish sistemalarida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, ularning boshlang'ich qarshiliigi katta va geometrik o'lchamlari juda kichik bo'ladi. Boshlang'ich qarshilikning katta bo'lishi esa, tashqi zanjirlardagi qarshilikning issiqlikdan o'zgarishini hisobga olmaslik imkonini beradi.

Qanday materialdan tayyorlanganiga qarab, termistorlar mis marganesli (MMT) va kobalt marganesli (KMT) turlarga bo'linadi.

MMT-1 (KMT-1) termistorlarining tuzilishi 2.10-rasmida keltirilgan.



2.10 – rasm. Yarim o'tkazgichli qarshilik termometrlari. a-mis marganesli MME-1; b- mis marganesli MME-4.

Oxirida kontakt qiluvchi qalpoqchalar 2 bo'lgan tashqi tomonidan emal bo'yoyq bilan bo'yagan yarim o'tkazgichli silindr 1 ga chiqish simlari kavsharlangan. Termistorlarning diametri 2 mm, uzunligi 12 mm va inersionligi 85 sekundni tashkil etti. Termistorlarning bu turlari namlik o'rtacha (normal) bo'lgan hollarda qo'llaniladi. MMT-4 (KMT-4) turidagi termistorlar ham silindr 3 shakhlida tayyorlangan bo'lib, uning oxirida chiqish simlari 6 ulangan qalpoqcha 1 joylashgan. Yarim o'tkazgichli silindr metall folga 2 bilan o'ralgan bo'lib, himoyalovchi metall g'ilof 4 ichiga joylashgan. Tepa qismida esa shishali izolyator 5 mavjud.

Termometrlar ing bu turi yuqori namlikli sharoitlarda va suyuqliklarda qo'llaniladi. Ularning diametri 4 mm. uzunligi esa 20 mm boladi.

Temperaturani o'lchashoagi xatolikning kichikligi, o'lchashni ma'lum masofaga uzatish va markazlashtirish imkoniyatining borligi va boshqalar qarshilikli termoo'zgartigichlarning afzalligini ko'satadi. Ularga qo'shimcha tok manbayining talab etishi, sezgir elementning ma'lum miqdorda uzunligi, zaharli moddalar ta'sirida yemirilishi qarshilikli termoo'zgartigichlarning kamchiligi hisoblanadi.

Qarshilik ter noo'zgartigichlari bilan birgalikda ishlaydigan ikkilamchi asbositlari muvozanat va nomuvozanat ko'priklari hamda logometrlar ishlataladi.

NURLANISH PIROMETRLARI

Yuqorida ke silgan, temperaturani o'lchashga mo'ljallangan barcha termometrlar termometrning sezgir elementi bilan o'chanayotgan jism yoki muhit orasida bevosita kontakt bo'lishini taqozo etar edi. SHuning uchun temperaturani o'lchashning bunday usullari ha'zan kontaktli usullar deb yuritiladi. Bu usulni qo'lhashning yuqori chegarasi 1800—2500°S. Ammo sanoatda va tadqiqotlarda bunda: yuqori temperaturalarni ham o'lchashga to'g'ri keladi. Bundan tashqari ko'pincha o'chanayotgan jism va muhit bilan termometrning bevosita kontakti mumkin bo'lmaydi. Bunday hollarda temperaturani o'lchashning kontaktisiz vositalari qo'llaniladi.

Nurlanish pirometrlarining ishslash printsipi qizdirilgan jismning issiqligi ta'sirida hosil bo'lgan nurlanish energiyasini o'lchashga asoslangan. Nurlanish pirometrlari 20 dan 6000°S gacha bo'lgan temperaturalarni o'lchashda ishlataladi.

Issiqlik nurlanishi nurlanayotgan jism ichki energiyasining elektromagnit to'lqinlari tarzida tarqalish jarayonidan iborat. Bu to'lqinlar boshqa jismalar tomonidan yutilganda ular qaytadan, yana qaytadan issiqlik energiyasiga aylanadi. Jismlar uzuvaligiga teng bo'lgan elektromagnit to'lqinlarni 0 dan — gacha bo'lgan oraliqda tarqatadi. Qattiq va suyuq jismalarning ko'pi nurlanishning uzlusiz spektriga ega, ya'ni barcha uzuvaliklardi to'lqinlarni tarqatadi. Boshqa jismlar (soi metallar va gaziar) nurlanishning selektiv spektoriga ega, ya'ni ular to'lqinlardi spektrning ma'lum uchastkalaridagina tarqatadi. To'lqin uzuvaligi $\lambda=0,4$ $\lambda=0,76$ mkm gacha bo'lgan uchastka ko'rindigan spektriga mos keladi. Ko'rindigan spektrning har bir to'lqin uzuvaligi ma'lum rangga mos keladi.

$\lambda=0,4$ dan $\lambda=0,44$ mkm gacha bo'lgan to'lqin uzuvaliklari to'q binafsha rangga, $\lambda=0,44$ dan $\lambda=0,49$ mkm gacha — ko'k zangori, $\lambda=0,49$ dan $\lambda=0,59$ mkm gacha to'q va och yashil; $\lambda=0,58$ dan $\lambda=0,63$ mkm gacha — sarik — to'q sariq; $\lambda=0,63$ dan $\lambda=0,76$ mkm gacha — och va to'q qizil rangga mos keladi.

$\lambda=0,76$ uzuvalidagi to'lqinlar ko'rindigan infraqizil issiklik nuriga kiradi.

Qizdirilgan jism temperaturasini orttirib borgan sari va uning rangi o'zgarish bilan spektral energetik ravshanlik, ya'ni ma'lum uzuvalidagi to'lqinlarning tezda ortadi, shuningdek, yig'indi (integral) nurlanish sezilarli ortadi. Qizdirilgan jismalarning ko'rsatilgan xossalardan ularning temperaturasini

o'lchashda foydalilanadi. shu xossalarga qarab nurlanish pirometrlari kvazimonoxromatik (optik) spektral nisbatli (rangli) va to'liq nurlanishli (radiatsion) pirometrarga bo'linadi.

Nazariy jihatdan absolют qora jismning nur chiqarishi hodisasingina asoslanishi mumkin, unda nur chiqarish koefitsienti deb 1 qabul qilinadi. Agar jism o'ziga tushayotgan nur energiyasini butunlay yutsa, u jismni absolют qora jism deyiladi. Barcha real fizik jismlar o'ziga tushayotgan nurlarning biror qismini qaytarish qobiliyatiga ega. SHuning uchun jismning nur chiqarish koefitsienti birdan kichik, shu bilan birga u ma'lum jism tabiatiga ham, uning sirtqi holatiga ham bog'liq. Tabiatda absolют qora jism yo'q, ammo o'z xossalariiga ko'ra absolют qora jismga vaqin bo'lgan jismlar mavjud. Masalan, qora g'adir-budir bo'yoq (neft' qurumi) bilan qoplangan jism barcha nur energiyasi 96% gacha yutadi.

Spektral energetik ravshanlik va integral nurlanish moddaning fizik xossalariiga bog'liq. SHuning uchun pirometrlar shkalasi mutlaq qora jism nurlanishi bo'yicha darajalanadi. Temperatura ortishi bilan spektral energetik ravshanlikning ortishi turli uzuvalidagi to'lqinlar uchun turlicha va nisbatan uncha yuqori bu'limgan temperaturalar sohasida absolют qoroz jism uchun Vin tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$E_{\text{sh}} = C_1 \cdot \lambda^{-5} \cdot e^{-\frac{C_2}{\lambda^2}} \quad (2.17)$$

Bunda:

E_{sh} — λ uzuvalidagi to'lqin uchun absolют qora jismning spektral energetik ravshanligi;

T — jismning mutlaq temperaturasi;

C_1 va C_2 — nurlanishning qabul qilingan birliklar sistemasiga bog'liq bo'lgan konstantalari qiymati; $C_1 = 2\pi k C^2$;

h — Plank doimiysi;

C — yorug'lik tezligi;

$C_2 = NhC/R$;

N — Avogadro doimiysi;

R — universal gaz doimiysi;

e — natural logarifm asosi.

Turli uzuvalidagi to'lqinlarning spektral energetik ravshanligi bir xil bo'limgani uchun Vin tenglamasi optik pirometriyada ma'lum uzuvalidagi to'lqinlar uchun qo'llaniladi (odatda to'lqin uzuvaligi 0,65 yoki 0,66 mkm bo'lgai qizil rang uchun). Vin tenglamasidan taxminan 3000 K gacha bo'lgan temperaturalar uchun foydalansa bo'ladi. Undan ham yuqoriroq temperaturalarda mutlaq qora jismning nurlanish jadalligi Plank tenglamasi bilan xarakterlanadi:

$$E_{\text{sh}} = C_1 \cdot \lambda^{-5} \cdot (e^{-\frac{C_2}{\lambda^2}} - 1)^{-1} \quad (2.18)$$

Mutlaq qora jismning integral nurlanishi Stefan — Bol'tsman tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$E_{\text{sh}} = C_2 \left(\frac{T}{100} \right)^4 \quad (2.19)$$

bunda E_0 — mutlaq qora jismning iurlanish doimiysi; T — nurlanayotgan sirtning mutlak temperaturasi, K.

Real fizik jismlar energiyani mutlaq qora jnsmga qaraganda kamroq jadallik bilan nurlantiradn. Kvazimonxromatik pirometr bilan ham to'la nurlanish pirometri bilan o'lchan natijasida shartli temperatura deb ataladigan temperaturaga ega bo'linadi. SHartli temperaturadan (ravshanlik temperaturasidan) haqiqiy temperaturaga o'tish uchun Vin tenglamasini o'zgartirishdan foydalaniladi.

Fizik jismning kvazimonoxromatik pirometr yordamida o'lchan yorug'lilik temperaturasi T_y , bo'yicha haqiqiy temperaturasi T qiymati quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$T = \left(\frac{1}{T_y} - \frac{\lambda}{C_2} \ln \frac{1}{\epsilon_x} \right)^{-1} \quad (2.20)$$

bunda T_y — jismning pirometr yordamida o'lchan ravshanlik (shartli) temperaturasi, K; λ — to'lqin uzunligi, mkm; C_2 — Vin tenglamasi doimiysi; ϵ_x — jismning berilgan to'lqin uzunligi uchun qoralik darajasi.


Real jism temperaturasi T ning to'liq nurlanish pirometri yordamida o'lchanayotgan haqiqiy qiymati quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = T_y \sqrt{\frac{1}{\epsilon}} \quad (2.21)$$

bunda T_y — to'liq nurlanish pirometri bilan o'lchan shartli temperaturasi, K; ϵ — barcha uzunlikdagi to'lqinlar uchun jismning qoralik darajasi.

Kvazimonoxromatik (optik) pirometrlar

Optik piometrlarning ishlash printsipi temperaturasi o'lchanayotgan jismning nurlanish ravshanligini etalon jismlarning monoxromatik nurlanish ravshanligi bilan solishtirishga asosagan. Etalon jism sifatida, odaida, nurlanish ravshanligi rostlanadigan cho'g'lanish lampasining tolasidan foydalaniladi. Bu guruhdagi keng tarqalgan asboblardan biri — cho'g'lanish tolesi yo'qolib ketadigan monoxromatik optik piometrdir. Bu asbobning printsipial sxemasi 2.11.- rasmida keltirilgan Qizdirilgan jismning nurlanish oqimi ob'ektiv 1 orqali yig'iladi va piometrik lampa 2 ning toza yuzasiga proektsiyalanadi. Okulyar 3 yordamida ob'ektning tasviri bilar kesishgan lampa tolasining tasviri kuzatiladi. Lampa tolesi ta'minlash manbai E ning o'zgarmas tokidan cho'g'lanadi. Manbaning kuchlanishi reostat R yordamida sekin-asta rostlash yo'li bilan ob'ekt va tola ravshanliklari tenglashguncha oshirib boriladi. SHu payt ob'ekt tasviri bilan kesishgan tolaning qismi, rasmda ko'rsatilganidek, yo'qolib ketadi. Ravshanliklari tenglashgandan so'ng tok kuchini yoki lampa kuchlanishini o'lchaydigan asbob bilan piometr ko'rsatishlari hisoblanadi.



2.11- Optik pirometrning principial sxemasi.

Optik pirometrlarning temperaturasini o'lchash oralig'i 800°S dan 10000°S gacha. Yo'l qo'yiladigan asosiy xatoliklar chegarasi $\pm 1,5\%$ dan oshmaydi. Optik piometr ko'chma asbobdir. U bilan u'zluksiz o'lchash va temperaturani qayd qilish mumkin emas.

Bunday piometrdan farqli o'laroq, fotoelementli piometrlar (fotoelektr piometrlar) ko'rsatishlarni yozib olish va ularni masofaga uzatish imkoniga ega. Bu asboblardan tz o'tadigan jarayonlardagi temperaturani o'lchashda foydalilanildi.

Fotoelektr piometrlarning ishlash printsipi fotoelementning fototokni o'zgartirish xususiyatiga asoslangan. Fototok tushayotgan yorug'lik oqimi intensivligiga bog'liq bo'lib, uning kuchi quydagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$I = a \cdot T^n \quad (2.22)$$


bu erda:

a —asbobning sezgirligiga bog'liq bo'lgan asbob doimiysi;

n — asbobning spektr xarakteristikasiga bog'liq bo'lgan asbob doimiysi;

T —fizik jismning temperaturasi.

Olingan temperaturaning nurlanishini xarakterlovchi fototok juda kichik bo'lib, uni kuchaytirish uchun elektron kuchaytirgichlar qo'llanadi.



2.12-rasm.Fotoelektrik pirometrning principial sxemasi

FEF (2.12- rasm) turidagi fotoelektr pirometrlarda nur oqimi bo'yicha mansiy teskari bog'lanishdan foydalilaniladi. Mazkur bog'lanish yorug'ligi elektron kuchaytirgich chiqishida kuchlanish funktsiyasidan iborat bo'lgan qizdirish lampasining fotoelementni yoritishi bilan amalga oshiriladi. Nurlanayotgan jismdan chiqayotgan nur oqimi linza 1 bilan bir joyga yig'iladi va qizil yorug'lik fil'tri 2 kassetasining yuqori teshigi orqali fotoelement 3 ga tushadi. Fotoelementga kassetaning pastki teshigi orqali ham cho'g'lanish lampasi 4 dan nur oqimi tushadi. Fotoelementning galma-gal goh nurlanayotgan jismdan, goh cho'g'lanish lampasidan yoritilishi yorug'lik fil'tri kassetasining oldiga o'matilgan yorug'lik modulyatorining 50 Gts chastota bilan tebranuvchi to'sig'i 5 yordamida ta'minlanadi.

Erug'lik fil'tri kassetasida tebranuvchi to'siq va teshiklar shakli shunday tanlanganki, fotoelementga ikkala nurlanish manbaining sinusoidal o'zgaruvchi nur oqimlari tushadi. Bunda ikkala nur oqimlarining fazalari 180° ga siljigan bo'ladi.

Fotoelement chiqishida fototok paydo bo'ladi. uning kattaligi jism va lampa tomonidan yoritilganlik darajasiga bog'liq. SHu yoritilganliklar teng bo'lmasa, fotoelement zanjirida o'zgaruvchan fototok hosil bo'lib, u yo jism fototoki bilan, yo lampa fototoki bilan ustma-ust tushadi. Bu tok fotoelement chiqishida R₁ rezistorda kuchlanishning sinusoidal tushunishi hosil qiladi, bu kuchlanish S kondensator orqali uch kaskadli elektron kuchlanish kuchaytirgichi 6 ga uzatiladi. Fototokning nur oqimlari farqiga proportional bo'lgan o'zgaruvchi tashkil etuvchisi 6 kuchaytirgichda kuchaytiriladi va fotosezgir detektor 7 orqali elektron lampaga o'tkaziladi. SHu lampa toki chiqish parametridan iborat, elektron lampaning anod zanjiriga mansiy teskarn bog'lanishli lampa 4 ulangan. Lampani qizdirish toki o'lchanayotgan jism va lampaning yoritilgalingi o'zaro teng bo'lguncha va fototokning o'zgaruvchi tashkil etuvchisi o'zaro nolga teng bo'lguncha o'zgartirib boriladi. Bu bilan lamladagi tok kuchi o'lchanayotgan jismning yorug'lik temperaturasi bilan bir qiymatli bog'liq bo'lib qoladi.

Lampani ta'minlovchi tok kuchi tezkor avtomatik potensiometr bilan lampa zanjiridagi R qarshilikdagi kuchlanish tushuvi miqdori bo'yicha o'lchanadi. Potensiometr yorug'lik temperaturasi darajalari bilan darajalangan. Fotoelektr pirometrning o'lhash chegaralari 800 dan 4000°C gacha. Asosiy xatolik o'lhash yuqori chegarasining $\pm 1\%$ ini tashkil etadi.


Spektral nisbatli (rangli) pirometrlar

Rangli yoki spektral pirometrlar qizdirilgan jismning nurlanish spektridagi energiyaning nisbiy taqsimplanishi bo'yicha temperaturani o'lhashga mo'ljalangan. Temperatura cho'g'langan jismning spektrida tanlangan soha, masalan, ko'k sohalardagi ravshanliklar nishbatidan aniqlanadi. Agar cho'g'langan jismning nurlanish spektrida λ_1 va λ_2 to'lqin uzunligidagi ikkita monoxromatik nurlanish (qizil va ko'k sohada) tanlansa, temperatura o'zgarishi bilan bu nurlanishlar ravshanliklariniig nisbati ham o'zgaradi. Qora bo'limgan jism uchun ravshanliklar nisbati quyidagicha ifodalanadi:

$$R = \frac{\epsilon_{\lambda_1}}{\epsilon_{\lambda_2}} R_i$$

(2.23)

bunda ϵ_{λ_1} va ϵ_{λ_2} — λ_1 va λ_2 to'lkin uzunliklarning nurlanish qobiliyati koeffitsienti; R_i — qora jism uchun λ_1 va λ_2 to'lqin uzunliklari ravshanligi nisbati.




2.13. Fotoclementli rangli pirometrning prinsipial sxemasi

Fotoelementli rangli pirometrning printsipial sxemasi 2.13.- rasmda ko'rsatilgan. O'chanayotgan jismdan chiqqan nurlanish ob'ektiv 1 orqali o'tib, fotoclement 3 ga tushadi. Fotoelement oldida qizil va ko'k fil'trli aylanuvchi dunksimon obtyurator 2 o'rnatilgan. Fotoelement goh qizil, goh ko'k ranglar bilan yoritiladi va shunga ko'ra tegishli impul'slar chiqaradi. Bu impul'slar elektron kuchaytirgich 4 bilan kuchaytirilib, logarifmlovchi qurilma 5 orqali o'zgarmas tokka aylantiriladi. Bu tok qayd qilinadi. Pirometrning o'lhash chegarasi 1400°S dan 2800°S gacha. Asosiy xatolik miqdori o'lhash yuqqorigi chegarasining +1 % idan oshmaydi.

Hozirgi vaqtida haqiqiy temperatura piometri PIT-1 deb ataladigan piometrlar keng yoyilmoqda. Ular spektral nisbatli piometrdan iborat bo'lib, xotirasida saqlanadigan axborot asosida hisoblanadigan tuzatishni avtomatik kiritiladi. Piometr 800...2000°S o'lhash diapazoniga mo'ljallangan. Haqiqiy temperaturani o'lhash xatoligi $\pm 1\%$ dan osh-maydi.

To'lq nurlanish (radiatsion) piometrlari

Radiatsion piometrlar (to'lq nurlanish piometrlari) qizdirilgan jismning temperaturasini o'lhashga mo'ljallangan. Piometr optik sistema (linza, oyna) bilan ta'minlangan. Bu sistema jismdan chiqqan nurlarni mitti termobatareya, qarshilik termometri va yarim o'tkazgichli temoqarshiliklardan iborat o'zgartgichga lo'playdi. O'lhash asboblari shifatida millivol'tmetr, avtomatik potentsionetr va muvozanatlashtirilgan ko'priklardan



2.14-rasm. Radiatsion pirometrning principial sxemasi foydalaniladi.

2.14.-rasmda temrobatareyali radiatsion pirometrning printsipial sxemasi ko'rsatilgan. Piometr ob'ektiv linza 1 va okulyarli teleskop 2 dan iborat. Nurlanish manbaidan chiqqan nurlarning yo'lida cheklovchi diafragma 3 o'rnatilgan, ob'ektiv linza fokusida esa termobatareyada 4 joylashgan. Okulyar linza oldiga ko'zni muhafaza qiluvchi rangli shisha 5 qo'yilgan. Termobatareyada to'plangan nurlar uni qizdira bosilaydi va nurlanishning to'liq energiyasiga proporsional bo'lgan eYUK paydo bo'ladi. Bu eYUK millivel'metr bilan o'chanadi.

100°C dan 4000°C gacha temperaturani o'chaydigan radiatsion pirometriarning turin konstruktsiyalari mavjud bo'lib, ular o'zlarining optik sistemi, termojuftlari ulash sxemasi va boshqa elementlari bilan farq qiladi. O'zgartirichlari qarshilik termometridan iborat bo'lgan ba'zi radiatsion piometrlar nisbatan kichik, mesalan, 20°C dan 100°C gacha temperaturalarni o'chay oladi. O'zgartigich qabul qiladigan nurlar energiyasini aniq hisobga olish juda qiyin. CHunki o'zgartirici va atrof muhit o'itasida o'zar ossiqlik almashuvi mavjud. Shuning uchun ash'ob hisobga olib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yishi tabiiy.

Lekin shu kamchiliklarga qaramay, radiatsion piometrlar sanoatda juda keng qo'llaniladi. Piometriarning ko'rsatishlarini masofaga uzatish yoki avtomatik ravishda yozib olish va ular yordamida temperaturani rostlash mumkin. 2500°C gacha temperaturani o'chashda piometr ko'rsatishlarining xatosi $\pm 1,5\%$, 2500°C dan ortiq temperaturani o'chaganda esa $\pm 2,5\%$ dan oshmaydi.

Seriyalab chiqarilayotgan APIR-S turidagi to'liq nurlanish piometrlari temperaturani 30 dan 2500°C gacha bo'lgan oraliqda o'chashga mo'ljallangan. Maxsus tayyorlangan piometrlar -100 dan $+3500^\circ\text{C}$ gacha temperaturalar oralig'ida qo'llaniladi.

TEMPERATURANI MAXSUS O'CHASHI TERMOMETRLARI

Qattiq jismlar sirtining temperaturasini o'chash

Sirlarning temperaturasini kontaktli va kontaktssiz usullar bilan o'chash mumkin. Temperaturani kontaktli termometrlar bilan o'chashda, odalda, ikkita muammo mavjud:

1. Termometr va o'chanayotgan sirt temperaturalariping tengligini ta'minlash kerak;
2. Termometr bilan o'chash joyida temperaturaning yoki sirtning temperatura

maydonining buzib ko'rsatilishini yo'qo tish zarur.

Termometr va o'lchanayotgan sirt temperaturalarining tengligini ta'minlash uchun o'lhash ob'ekti sirtidan termometrga issiqlik o'tishining eng yaxshi sharoitlarini yaratish lozim. Yaxshi issiqlik kontaktini ta'minlash uchun maxsus tayyorlangan termometri sirtga elimlash, kavsharlash yoki payvandlash maqsadga muvosiq.

O'lhash ob'ekti sirtining temperaturasi yoki temperatura maydonining buzilishiga termometrning o'lchanayotgan sirtga qo'shimcha issiqlik olib kelishi yoki olib ketishi sabab bo'lib, ishlagan vaqtida yuz beradi. Shuning uchun sirt temperaturasini o'lhash joyida qo'shimcha issiqlik almashish bo'lmaydigan sharoitlar yaratish kerak. Ba'zan termometr orqali issiqlik almashishidan qochish mumkin bo'limganda, shu issiqlik almashishni temperatura o'lchanadngan joydan boshqa joyga ko'chirishga harakat qilinadi.

Sirt temperurasini, masalan, quvur temperurasini uzuksiz o'lhash uchun termometri sirtga maxsus qisqich bilan taqab qo'yiladi. Quvurning izolyatsiyasi borligni o'lhash joyidan issiqlikni chiqib ketishi (yoki issiqlik kirib kelishi) amalda mumkin emasligini taqozo qiladi va shuning uchun termometr sirt temperurasini buzib ko'rsatmaydi.

Harakatdagi sirlarning (vallarning, kalandrlarning va b.) temperurasini o'lhash anchagini murakkab. Bunday holda nurlanish bo'yicha kontaktlari o'lhash usullaridan foydalanish maqsadga muvosiq, ammo bu usullarni qo'llashni amalga oshirib bo'lmaydi, chunki o'lchanayotgan sirtni to'g'rndan-to'g'ri ko'rish mumkin emas va h. SHuning uchun kontaktli termometrlar keng qo'llaniladi. Bunda issiqlik qabul qilgich (termopriyomnik) bilan temperurasni o'lchanayotgan sirtning ishqalanishiga bog'liq bo'lgan qator qo'shimcha xatoliklar paydo bo'ladi. SHu xatoliklar termopriyomnik kontaktining to'g'riligiga, nazorat qilinayotgan sirt tozaligiga va boshqa omillarga bog'liq. Sirt aylanma harakat qilganda signalning uzatilishi aylanma kontaktli qurilma orqali amalga oshiriladi. Uning sodda varianti kontakt xalqlaridir.

Alanga (gaz oqimlarining) temperurasini o'lhash

Alanga temperurasini o'lhashning o'ziga xos xususiyatlari va qiyinchiliklari bor. O'lhash usulini tanlashda o'lchanayotgan temperaturalar darajasi, maqbul aniqlik va alanga turi tahlil qilinadi. Alanga temperurasni ko'pgina sanoat qurilmalarida 1600...1900°C atrofida bo'iadi. Uni nurlanish pirometrlari yoki kontaktli termometrlar yordamida o'lchanadi. Bu temperaturani nurlanish bo'yicha o'lchaganda uni pirometrning vizirlash o'qi bo'ylab fazoviy o'rtaleshtirish yuz beradi. O'lhash natijalariga alangadagi nurlanish komponentlari ta'sir etadi. Pirometr qabul qiladigan to'lqinlar uzunligini tanlash katta ahamiyat kasb etadi. Gazlarning nur tarqatmaydigan issiq yoki sovuq zonalarini maxsus bo'yamasdan turib, pirometrlar bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bunday o'lhashning kamchiliklariidan biri temperaturani optik o'q bo'ylab o'rtaleshtirishdir. SHuning uchun topilgan natija alanganing qaysi nuqlasiga tegishli ekanini aniqlab bo'lmaydi. Bu jihatdan o'lchamlari uncha katta bo'limgan

moclekti termometrlarni qo'llash katta afzaliklarga ega. Ammo bunday mometning temperaturasi gaz temperaturasidan ancha ($100\ldots200^{\circ}\text{S}$ ga) farq lishi mumkin chunki u termometring issiqlik balansi bo'yicha aniqlanadi.

Eritmaning temperaturasini o'lhash

Eritmalarining temperurasini o'lenash murakkabligi asosan termometr himoya ilotining aktiv zunglashi bilan bog'liq. Tuz eritmalarining temperurasini Ichashda himoya g'iloflari bir necha o'n soatdan keyin eritmaning aggressiv ta'siri babli ishdan chiqad. SHuning uchun ko'pincha g'ilofni sisatsiz, arzon, osonlik an almashiriladigan, bir vaqtida temojuft elektrodidan iborat bo'ladigan latdan yadaladi. Shlisha eritmalar temperurasini o'lchanayotgan iloflari uglerodli bloklardan yoki qimmatbaho metallardan yasaladi.


Qovushoq muhitlar temperurasini o'lhashda ma'lum qiyinchiliklar paydo ladi. Bu hollarda issiqlikka sezgir elementni osongina tozalashni, ko'pincha nashtirishni ham ta'minlash zaruri. Bunda sezgir element bilan o'lchanayotgan shit orasida etarli darajada yaxshi kontakt ta'minlangan bo'lishi kerak.

Biror o'lhash usulini tanlash va uning konstruktiv bajarilishi eritma nperaturasini o'lchanayotgan konkret sharoitlari, ularning turin materiallar bilan zaro ta'sirlashuvi, nurlanish qobiliyati va boshqa fizik hamda kimyoviy xossalari an belgilalaradi.

2.2.TEMPERATURANI O'LCHASHDA ISHLATILADIGAN IKKILAMCHI ASBOBLAR

PIROMETRIK MILLIVOLTMETRI.AR

Pirometrik millivoltmetrlar — magnitoelektrik asboblar sistemasiga kiradi. Ularning ishlash usuli elektr toki o'tayotgan o'tkazgich bilan doimiy magnit oralig'ida hosil bo'lgan magnit maydonining o'zaro ta'siriga asoslangan.



2.15-rasm. Millivoltmetr sxemasi.

Millivoltmetr (2.15 - rasm) qutblari uchiga yumshoq temir 3 joylashtirilgan doimiy magnit 2 va qo'zg'almas po'lat magnit o'tkazgich 5 dan tuzilgan. Silindrik magnit o'tkazgichning qutblar orasida bo'lishi magnit qarshiligidini kamaytirib, bir xil oraliq hosil qiladi va radial magnit oqimini yuzaga keltiradi.

Magnit qutblari uchlari bilan magnit o'tkazgich orasidagi aylanma havo bo'shilig'ida to'g'ri burchakli ramka 4 joylashgan. Ramka himoyalangan ko'p o'ramlari mis simdan tashkil topgan. Ramkaning markazi bo'yicha ikki tomonidan yarim o'q o'matilgan bo'lib, rubin yoki agatdan tayyorlangan tayanch podshipniklar yordamida burilishi mu'mkin. Ramkaning aylanish o'qi magnit o'tkazgichning-o'qiga to'g'ri keladi.

Ramka ko'rsatgich 1 bilan birgalikda yengil aylanadi, uning bir uchi shkala bo'ylab harakatlansadi, ikkinchi uchida esa ikkita yukli «mo'ylov» 6 mavjud. Yuklarning vint kesimi bo'yicha harakati natijasida qo'zg'aluvchan sistemaning muvozanatiga erishiladi, ya'ni og'irlik markazi aylanish o'qi bilan to'g'ri keladi. Teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment hosil qilish va harakatlanuvchi ramkaga

termoelektr termoni etrlarni qo'llash katta afzaliklarga ega. Ammo bunday termometrning temperaturasi gaz temperaturasidan ancha ($100\ldots200^{\circ}\text{S}$ ga) farq qilishi mumkin chunki u termometraning issiqlik balansi bo'yicha aniqlanadi.

Eritmaning temperaturasini o'chash

Eritmalarini temperurasini o'chash murakkabligi asosan termometr himoya g'ilosming aktiv zanglashi bilan bog'liq. Tuz eritmalarining temperurasini o'chashda himoya g'iloflari bir necha o'n soatdan keyin eritmaning agressiv ta'siri sababli ishdan chiqadi. SHuning uchun ko'pincha g'ilofni sisatsiz, arzon, osonlik bilan almashtiriladigan, bir vaqtida temojuft elektrotdidan iborat bo'ladigan po'latdan yaxaladi. Shilsha eritmalarini temperurasini o'chash uchun himoya g'iloflari uglerodli bloklardan yoki qimmatbaho metallardan yasaladi.


Qovushoq muhitlar temperurasini o'chashda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladи. Bu hollarda issiqlikka sezgir elementni osongina tozalashni, ko'pincha almashtirishni ham ta'minlash zarur. Bunda sezgir element bilan o'chanayotgan muhit orasida etarli darajada yaxshi kontakt ta'minlangan bo'lishi kerak.

Biror o'chash usulini tanlash va uning konstruktiv bajarilishi eritma temperurasini o'chashning konkret sharoitlari, ularning turlin materiallar bilan o'zaro ta'sirlashuvi, nurlanish qobiliyati va boshqa fizik hamda kimyoiy xossalari bilan belgilarnadi.

2.2.TEMPERATURANI O'LIHASHIDA ISHLATILADIGAN IKKILAMCHI ASBOBLAR

PIROMETRIK MILLIVOLTMETRI.AR

Pirometrik millivoltmetrlar — magnitoelektrik asboblar sistemasiga kiradi. Ularning ishlash usuli elektr toki o'tayotgan o'tkazgich bilan doimiy magnit oralig'ida hosil bo'lgan magnit maydonining o'zaro ta'siriga asoslangan.



2.15-rasm. Millivoltmetr sxemasi.

Millivoltmetr (2.15 - rasm) qutblari uchiga yumshoq temir 3 joylashtirilgan doimiy magnit 2 va qo'zg'almas po'llat magnit o'tkazgich 5 dan tuzilgan. Silindrik magnit o'tkazgichning qutblari orasida bo'lishi magnit qarshiligini kamaytirib, bir xil oraliq hosil qiladi va radial magnit oqimini yuzaga keltiradi.

Magnit qutblari uchlari bilan magnit o'tkazgich orasidagi aylanma havo bo'shlig'ida to'g'ri burchakli ramka 4 joylashgan. Ramka himoyalangan ko'p o'ramli mis simdan tashkil topgan. Ramkaning markazi bo'yicha ikki tomonidan yarim o'q o'matilgan bo'lib, rubin yoki agatdan tayyorlangan tayanch podshipniklar yordamida burlishi mumkin. Ramkaning aylanish o'qi magnit o'tkazgichning-o'qiga to'g'ri keladi.

Ramka ko'rsatgich 1 bilan birgalikda yengil aylanadi, uning bir uchi shkala bo'ylab harakatlanadi, ikkinchi uchida esa ikkita yukli «mo'ylov» 6 mavjud. Yuklarning vint kesimi bo'yicha harakati natijasida qo'zg'aluvchan sistemaning muvozanatiga erishiladi, ya'nii og'rilik markazi aylanish o'qi bilan to'g'ri keladi. Teskari ta'sir ko'rsatuvchi moment hosil qilish va harakatlanuvchi ramkaga

termoparada hosil bo'lgan tokni uzatish uchun fosforli bronzadan tayyorlangan ikkit spiral prujina 7 xizmat qiladi. Manganin simdan tayyorlangan qoshimcha qarshilik shkala oralig'ini to'g'rakash hamda tashqi muhit temperaturasining o'zgarishini asbobning ko'stishiga ta'sirini bartaraf etish uchun qo'llaniladi (manganinning temperatura koeffitsiyenti kichik). Tashqi qarshilikni to'g'rakash reostat yordamida amalga oshirilib, uning qiymati tashqi zanjir qarshiligidan tanlanadi (tashqi zanjir reoxordi qarshiliqi asbobning shkalasida ko'satilgan qiymatiga mos bo'lishi kerak).

Temperaturani o'lchashda termoparada hosil bo'lgan tok (TEYUK) spiral prujinalar orqali ramkaga uzatiladi. Ramkadan o'tayotgan tok kuchining doimiy magnit maydoni bilan o'zaro ta'siri natijasida aylanish momenti yuzaga kelib, uning ta'sirida ramka buriladi. Ramkaning burilishi momcntlar muvozanatlashganda to'xtaydi.

Asbob darajasi (shkalasi) °C larda darajalangan bo'lib, termoparada hosil bo'lgan TEYUK ning har bir qiymatiga ko'satgichning muayyan bir holati to'g'ri keladi. Ramkadan o'tgan tok bilan doimiy magnit maydon orasidagi o'zaro ta'sir tufayli yuzaga kelgan aylantiruvchi moment quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$M_{ayl} = K_1 BI. \quad (2.23)$$

bu yerda: M_{ayl} — aylantiruvchi moment;

K_1 — ramkaning geometrik hajmi va cho'lg'amlari soni

bilan aniqlanadigan doimiy koeffitsiyent;

V — ramka bilan magnit qutblari oralig'idagi magnit induksiysi;

I — ramkadagi tok.

Spiral prujinalar hosil qilgan ramkaning aylanishiga teskari ta'sir ctuvchi moment quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{tes} = K_2 E\varphi \quad (2.24)$$

bu yerda: K_2 - fosforli bronzadan tayyorlangan spiral prujina hajmidan aniqlanadigan doimiy koeffitsiyent; E - spiral prujinalarning elastiklik moduli; φ - spiral prujinalarning burilish burachgi. Agar muvozanat holat, ya'ni $M_{ayl} = M_{tes}$, bo'lsa,

$$K_2 E\varphi = K_1 BI \quad (2.24)$$

U holda,

$$\varphi = \frac{K_1 B}{K_2 E} \cdot I = K \frac{B}{E} \cdot I \quad (2.25)$$

Asbob konstruksiyalari parametrlariga bog'liq bo'lgan kattaliklar o'lchash jarayonida o'zgarmasligini hisobga olsak,

$$\varphi = K'I \quad (2.26)$$

bu yerda:

$$K' = \frac{B}{E} \quad (2.27)$$

Ushbu ifodadan xulosa qilish mumkinki, pirometrik millivoltmetr shkalasi chiziqlidir.

Sanoatda ko'rsatadigan, yozadigan hamda rostlovchi millivoltmetrlar ishlab chiqariladi. Ularning ko'rsatish shkalasi temperatura o'lchov birliklari (graduslarda) yoki millivoltlarda darajalanadi. Ba'zida esa ikkala daraja ham birgalikda qo'llaniladi. 9-jadvalda ko'rsatuvchi millivoltmetrlarning texnik tavsifi keltirilgan.

Millivoltmetrlarning texnik tavsifi

9 - jadval

Turi	Bajariladigan funksiya	Darajasi (Om) Graduirovka	Tashqi qarshiligi (Om)	Aniqlik toifasi
SH 9003	Bitta kanal bo'yicha temperaturani o'lchash	XK, XA	0,5	2,0
SH 9004	12 kanal bo'yicha temperaturani P692 turidagi birlashtiruvchi blok bilan birgalikda o'lchash	XK, XA		
SH 4500	Bitta kanal bo'yicha temperaturani o'lchash	XK, XA, PP, PR	15	1,5
SH 452	Bitta kanal bo'yicha ogohlantiruvchi signal berib, temperaturani o'lchash, roslash (rostlovchi bloki mavjud)	XK, XA	15	1,0, 1,5
SH 541	Bitta kanal bo'yicha temperaturani o'lchash			1,0


SH 4550	Bitta kanal ho'yicha temperaturani o'lchash va P3, f D, PiD (rostish qonunlar bo'vicha rostish) rostlovchi bloki mavjud	XK, XA	20 gacha	
SH 4516		XK, XA		1,0

POTENSIOMETRLAR

Temperaturani termoparalar yordamida o'lchashda millivoltmetrlardan foydalanylганда, улarning о'lchash aniqligi uncha yuqori bo'lмаганлиги sababli, hozirgi paytda temperaturani o'lchashda kompensatsion yoki potensiometrik usul keng qo'llanilmoqda.

Potensiometрning ishlashi termoelektr o'zgartigichlarda hosil bo'lgan elektr yurituvchi kuchni nolga keltirish usuliga asoslangan. Bunday o'lchanayotgan EYUK ma'lum doimiy manbadagi kuchlanishni pasaytirish yordamida muvozanatlashtirilib, natija nolga keltiriladi.

TEYUKni o'lchashi uchun mo'ljallangan potensiometрning soddalashtirilgan prinsipial sxemasida (2.16- rasm) yordamchi manbaning kuchlanishidan hosil qilingan tok V va S nuqtalarini orasida ulangan o'zgaravchan qarshilik R_s (reostat) orqali sanjirdan o'tadi. Reostat L uzunlikdag'i kalibrlangan o'tkazgichdan iborat. V nuqta bilan reostatning sirpanuvchan kontaktining har qanday D nuqtasi orasidagi potensiallar farqi R_{BD} qarshilikka proporsional bo'ladi.



2.16. - rasm. Potensiometрning prinsipial sxemasi.

Termoelektr o'zgartirgich (TEO) bilan kctma-ket qayta ulagich P yordamida sezgir millivoltmetr NP (nol-pribor) ulanadi, qaysiki u zanjirda tok birligini ko'sratuvchi sezgir element (indikator) hisoblanadi. TEO' shunday ulanadiki, tarmoqdan o'tayotgan tokning yo'nalishi yordamchi manbadan berilayotgan tok kuchining yo'nalishi bilan bir xil bo'lishi kerak. TEYUK ni o'lchash uchun reoxordning sirpanuvchi kontakti nol-priborming ko'sratgichi nolni ko'sratgungacha suriladi. Ayni paytda tarmoqda kuchlanishning pasayishi o'lchanayotgan TEYUK ga teng bo'ladi. Bu hol uchun quyidagi tenglik o'rinnlidir:

$$E(t\tau_0) - IR_{BD} = 0 \quad (2.28)$$

bu yerda: E — manba kuchlanishining IR_{BD} tarmoqda kamayishi.

Shunday qilib, zanjir tarmog'idagi tok kuchi butun zanjirdagi tok kuchiga teng:

$$U_{BD}/R_{BD} = E/R_{BD} \quad (2.29)$$

Kompensatsiya paytda $U_{BD} = E(t\tau_0)$ ekanligini hisobga olinsa,


$$E(t\tau_0) = U_{BD} = ER_{BD}/R_{BC} \quad (2.30)$$

Reoxord kalibrlangan qarshilikka, ya'ni uning har bir uzunligining teng tarmog'i bir xil qarshilikka ega bo'lgani uchun:

$$E(t\tau_0) = EL/L, \quad (2.31)$$

Shunday qilib, $E(t\tau_0)$ TEYUK reoxord qarshiligi tarmog'idagi kuchlanishning kamayish miqdori bilan aniqlanib, boshqa qarshiliklarga bog'liq emas. Reoxord shkala bilan ta'minlangan bo'lib, uning bo'linmalari millivolt yoki temperatura graduslariga teng bo'lishi mumkin.

Doimiy tok kuchlanishida hosil bo'lgan temperaturalar va boshqa parametrlarni o'lchash uchun avtomatik potensiometrlar keng qo'llaniladi. 2.17- rasmda elektron avtomatik potensiometrning tuzilish sxemasi keltirilgan.



2.17.- rasm. Elektron avtomatik potensiometrning sxemasi.


Yarimo'tkazgichli signal kuchaytirgich solishirish orqali amalgalash oshiriladi. Potensiometrning kompensatsiyalash sxemasi sirpangich K ga ega bo'lgan reoxord, o'zgartgichli elektron kuchaytirgich 1. reversiv elektr dvigatel RD va tok manbayi E dan iborat. Elektr dvigatel RD reduktor 2 orqali sirpangich K va asbobning ko'rsatgichi 3 bilan bog'liq. O'zgartgich o'zgarmas kuchlanish E ni o'zgaravchan kuchlanishga aylantirib beradi. Kompensatsiyalovchi sxemalaming ishi sirpangich K ni reoxorod bo'ylab kuchlanish kamayishining farqi tomonga surib, ya'nii elektron kuchaytirgichga beriladigan tchrinoparada hosil bo'lgan TEYUK va reoxordda kuchlanishning pasayish farqini kompensatsiyalaydi. Reversiv dvigatel orqali amalgalash oshirilayotgan bu harakat kuchlanishlar farqi nolga teng bo'lgunqa qadar davom etadi. Shunday qilib, sirpangich K va unga biriktirilgan ko'rsatgichning holati TEYUK ning qiymatini, ya'nii o'lchanayotgan temperaturaning miqdorini ko'rsatadi. Qarshilik R kompensatsion zanjirdagi ishchi tokni rostlash uchun xizmat qiladi.

LOGOMETRLAR

Logometrlar magnitoclektrik asboblar sistemasidan bo'lib, ikki tok- termometr va doimiy reostat zanjirdagi toklar nisbatini o'lchashga mo'ljallangan (2.18- rasm).

Logometrnning qo'zg'aluvchi qismi bir-biriga $15-20^\circ$ burchak ostida qattiq bog'langan hamda o'z o'qi atrofida aylanish imkoniyatiga ega bo'lgan R_{n1} va R_{n2} ramkalardan iborat. Ramkalar himoyalangan ingichka mis simlardan tayyorlangan bo'lib, doimiy magnit qutblari N va S orasiga joylashgan.

Logometrnning magnit sistemasi pirometrik millivoltmetrning magnit sistemasiga o'xshash bo'lib, faqat magnit o'tkazgich 1 bilan magnit qutblari uchlari 2 orasidagi havo bo'shlig'inining shakli bilan bir-biridan farq qiladi. Logometrlarda havo bo'shlig'i magnit qutblari uchi markazidan uning chetiga tomon kamayib boradi.



2.18. – rasm. Elektron logometr sxemasi.

Shuning hisobiga magnit induksiyasi markazdan uning chetki tomonlariga qarab, taxminan kvadratga ko'tarish qonuni asosida oshadi. Ramkalarga tok uzatish harakaliga teskari ta'sir ko'rsatuvchi kichik momentga ega bo'lgan spiral prujinalar orqali amalga oshiriladi. Bu prujinalar ramkalarini hamda ularga mustahkam qotirilgan ko'rsatgich J ni tok manbai E uzilganda dastlabki holatiga kelishini ta'minlaydi. Ramkalarga tok umumiy ta'minlash manbayi E dan beriladi. Birinchi ramka zanjiriga o'zgarmas qarshilik R_1 ikkinchi ramka zanjiriga o'zgarmas qarshilik R_2 va qarshilik termometrining o'zgaruvchan qarshiliqi R , ulangan. Doimiy qarshiliklari R_1 va R_2 manganindan tayyorlangan. Ramkalar sxemaga shunday ulanganki, ular hosil qilgan aylantiruvchi momentlar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan bo'ladi.

Ramkalarda hosil bo'lgan aylantiruvchi momentlar:

$$M_1 = K_1 B_1 I_1 \quad (2.32)$$

$$M_2 = K_2 B_2 I_2 \quad (2.33)$$

Bu yerda: K_1 va K_2 - ramkalarining geometrik o'lchamlari va o'ramlar soniga bog'liq bo'lgan doimiy koeffitsiyentlar. B_1 va B_2 - ramkalar joylashgan tarmoqdagi magnit induksiyalari; I_1 va I_2 - ramkalardan o'tayotgan tok kuchi miqdori. Agar boshlang'ich holatda

$$R_{p1} + R_1 + R_2 = R_{p2} + R_2 \quad (2.34)$$

bo'lsa, u holda ramkalardan o'tayotgan tok kuchlari teng bo'lib $I_1 = I_2$ momentlari ham bir-biriga teng bo'ladi, ya'ni $M_1 = M_2$ hamda qo'zg'aluvchan sistema muvozanat holatda bo'ladi.

Temperaturasi o'lchanayotgan muhitning temperaturasi oshishi bilan termometrning qarshiliqi oshadi. Bu esa ikkinchi ramkada tok kuchining va aylanish momentining kamayishiga olib keladi. Katta moment ta'sirida qo'zg'aluvchan sistema soat mili yo'nalishida aylana (burila) boshlaydi. Bu paytda ikkinchi ramka magnit induksiyasi katta bo'lgan tomonga, birinchi ramka esa magnit induksiyasi kichik bo'lgan tomonga o'tadi. Ma'lum bir holatda qo'zg'aluvchan sistema muvozanatlashadi, ya'ni

$$K_1 B_1 I_2 = K_2 B_2 I_2 \quad (2.35)$$

Bu tenglamadan:

$$\frac{I_2}{I_1} = \frac{B_2 B_1}{K_1 K_2} = K \frac{B_2}{B_1} \quad (2.36)$$

Agar tok kuchining kuchlanish va qarshiliklar nisbatiga bog'liqligini hisobga olib, yozish mumkiv:

(2.37)

$$\frac{I_1}{V_2} = \frac{U}{R_1 + R_2} \text{ va } I_1 = \frac{U}{R_1 + R_2 + R_{p2}}$$

(2.37) tenglamaga (2.38) da'gi tok qiymatlarini qo'yosak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{\frac{U}{R_1 + R_2}}{\frac{U}{R_1 + R_2 + R_{p2}}} = \frac{R_1 + R_2 + R_{p2}}{R_1 + R_2} = K \frac{R_{p2}}{R_1} \quad (2.38)$$

Ramkalarning burilish burchagi toklar nisbatiga bog'liq bo'lgani uchun

$$\varphi = f\left(\frac{R_1 + R_2 + R_{p2}}{R_1 + R_2}\right) \quad (2.39)$$

ga ega bo'lamiz.

Bu yerda R_1 ; R_{p1} , R_2 ; R_{p2} o'zgarmas qarshiliklar bo'lgani uchun ramkalarning burilish burchagi termometr qarshiligi qiymatiga bog'liqidir.

$$\varphi = f(R_t) \quad (2.40)$$

ya'nisi qo'zgauvchan sistemaning burilish burchagini termometr qarshiligining funksiyasi deb qarash mumkin.

Hozirgi paytda sanoatda faqat 21, 22, 23 - darajali L-64, L-64I, L-64-02 markali ko'rsatadigan logometrlar ishlab chiqarilmoqda. Ularning tashqi qarshiligi 5 va 15 Cm, aniqlik tojiasi esa 1,5 ga teng.

MUVOZANAT KO'PRIKLARI

Muvozanat ko'priklari qarshilik datchiklari termometrlari bilan birgalikda ishlash uchun mo'ljalangan asosiy o'lchov asbobi hisoblanib, ular ikki xil bo'ladi: Laboratoriya sharoit'arida qo'l bilan muvozanatlanadigan va sanoatda avtomatik ravishda muvozanatlanadigan ko'priklar. Avtomatik muvozanat ko'priklari ko'rsatuvchi, o'ziyozar va rostlovchi asbeb sifatida ishlatalidi.

Qarshilik termometri ulanadigan doimiy tok muvozanat ko'prigining principial sxemasi 38-rasmda keltirilgan. Ko'prikk ikkita doimiy qarshilik R_1 va R_2 , o'zgaruvchan qarshilik (reoxord) R_3 , simlar qarshiligi R , va qarshilik termometri R_t dan iborat. Ko'priknning asosiy diagonaliga doimiy tok manbayi E , ikkinchi «bd» diagonaliga esa qayta ulagich P orqali nol-pribor HP sezgir galvanometr ulanadi. Ko'priknning muvozanat holatida «bd» diagonalda tok kuchi $I_0=0$ bo'lib, qarshiliklarda kuchlanishning kamayishi bir xil bo'lgani uchun

$$I_1 R_1 = I_2 R_2 \quad (2.41)$$

deb yozish mumkin. Shuningdek, ko'priknning qolgan «bc» va «cd» yelkalarida ham kuchlanishning kamayishi bir xil:

$$I_1 R_3 = I_2 (R_t + R_c) \quad (2.42)$$

(2.41) tenglamani (2.42) tenglamaga bo'lsov.

$$\frac{R_1}{R_2} = \frac{R_t}{R_t + 2R_c}; \quad (2.43)$$

yoki

$$R_t = \frac{R_1 R_2}{R_1} - 2R_c; \quad (2.44)$$


Shunday qilib, muhit temperaturasining o'zgarishi natijasida R_t termometrnning qarshiliqi o'zgaradi va yelkalarida muvozanat buziladi. Ko'priknin muvozanat holatiga qaytarish uchur, reoxord R_t ning surgichi muvozanat holat ta'minlangunga qadar suriladi.

Atrof-muhitni temperaturaga ta'siri natijasida yuzaga keladigan xatolikni bartaraf etish uchun qarshilik termometrining uch simli ulash sxemasi qo'llaniladi. Bunday ulash usulida bir simning qarshiliqi R_t qarshilikka, ikkinchi simning qarshiliqi esa o'zgaruvchan qarshilikka qo'shiladi. U holda muvozanat tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$R_t + R_c = (R_t + R_c) \frac{R_1}{R_1}; \quad (2.45)$$

Agar $R_1 = R_2$ bo'lsa, $R_t + R_c = R_3 + R_c$ bo'ladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, uch simli ulashda similarning qarshiliqi o'lichov natijasiga ta'sir qilmaydi.



2.19 – rasm. a) muvozanat ko'priknning prinsipial elektrik sxemasi; b) uch simli ulash sxemasi

Sanoatda har xil turdag'i o'ziyozar, bir va bir necha nuqtalardagi temperaturani o'lchaydigan, signal beruvchi va rostlovchi avtomatik muvozanat ko'priklari keng tarqalgan.

Avtomatik muvozanat ko'priklarida kontaktli kompensatsiyalovchi o'zgaruvchan rezistorlar eng ishonchli element hisoblanib, ular yordamida o'lchanayotgan kattalik qarshilikli termoo'zgartgich qarshiligi bilan kompensatsiyalanadi.

Avtomatik muvozanat ko'priklarda reoxordning surgichi avtomatik ravishda siljiydi. Bunday ko'priklarning o'lchash sxemasi doimiy yoki o'zgaruvchan tok manbaidan ta'minlanadi. O'zgaruvchan tok muvozanat ko'priklarida aktiv qarshiliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun doimiy tok ko'priklari uchun chiqariladigan yuqoridagi tenglamalar o'zgaruvchan ko'priklar uchun ham saqlanadi. O'zgaruvchan tok muvozanat ko'priklari bir qator afzalliklarga ega: o'lchash sxemasi kuch transformatorining bir o'ramidan ta'minlanadi, ya'n'i qo'shimcha ta'minlash manbai talab qilinmaydi, shu bilan birga tebranish o'zgartgichning ham zaruriyati bo'lmaydi.


Ko'rsatuvchi va o'ziyozar elektron avtomatik muvozanat ko'prigining principial sxemasini (2.20-rasmi) ko'rib chiqamiz. Principial sxemaga quyidagicha shartli begililar kiritamiz:

R_s - reoxord shunti, u reoxord qarshiliga belgilangan qiymat yetkazib turish uchun xizmat qiladi; R_d - o'lchash diapazonini belgilash qarshiligi; R_a - shkala boshlang'ich qiymatini rostlovchi qo'shimcha qarshilik; R_1, R_2, R_3 - ko'priksxemasining qarshiliklari; R_b - tokni cheklovchi ballast qarshilik; R_t - qarshilik termometri;

R_e - simlar qarshilagini rostlovchi qarshilik; RD - asinxron kondensatorli reversiv dvigatel; SD - diagramma lentasini siljutuvchi sinxon dvigatel; C_1 va C_2 - qo'zg'alish o'ramining magnit oqimi bilan boshqaruvchi o'ram o'tasidagi sijish fazasini (90°) va uyg'onish o'ramida kuchlanishni (127 V) kerakli miqdorga yetkazish uchun xizmat qiladigan kondensatorlar; C_3 - reversiv dvigatel boshqaruvchi o'ramini shuntlovchi kondensator, shu o'rindagi tokning induksiyasini kompensatsiyalaydi. TO - tokni olib ketuvchi.

Ko'priksxemasidagi barcha qarshiliklar manganin simdan tayyorlangan bo'lib, qarshilik termometri uch simli ularash sxemasi usulida ulangan. Bu holda termometrni ko'priklar bilan ulaydigan simlarning qarshiligi ko'priknинг yelkalariga taqsimalanadi. Shuning uchun atrof-muhit temperaturasining tebranishi natijasida, ulangan simlar qarshiliginining tebranishi sababli hosil bo'lgan xato miqdori kamayadi. Termometr qarshiliginining tebranishi natijasida ko'priksxemasining muvozanati yo'qoladi, «a» va «b» cho'qqilardan kuchaytirgichning kirish qismiga nobalans kuchlanish keladi. Kuchaytirgich esa bu kuchlanishni reversiv dvigatel ishga tushguncha kuchaytiradi. Dvigatelning chiqish vali reoxord surgichi va karetka bilan kinematik bog'langanligi uchun bu val ularni nobalans kuchlanish kamayib, nolga teng bo'lguncha siljitudi. Ko'priksxemasi muvozanat holatga kelganda, reversiv dvigatelning rotori to'xtaydi.

Reoxord surgichi esa ko'satgichli karetka bilan birga o'chanayotgan termometr qarshiligiga teng holatni egallaydi.



2.20- rasm. Avtomatik elektron muvozanat ko'prigining principial sxemasi.

Doimiy tok manbaidan ishlaydigan muvozanat ko'prigining o'lchash sxemasi ham yuqoridagiga o'xshash, faqat uning elektron kuchaytirgichi tebranishli o'zgartirgich bilan ta'minlangan. Shuning uchun uning kuchaytirish potensiometrikiga o'xshash.

Asbobsozlik sanoatida 0,25; 0,5; 1,0 aniqlik toifasiga ega bo'lgan KCM-1 va KCM-3 (diskli diagnostikali) hamda KCM-2 va KCM-4 (lentali) diagnostikali avtomatik muvozanat ko'priklar ishlab chiqariladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Temperatura haqida tushunchalar. Temperatura shkalalari ma'lumot bering ?
2. Manometrik termometrlarning ishlash usulini tushuntiring ?
3. Termoelektrik termometrlarning ishlash usulini tushuntiring ?
4. Suyuqlikli kengayish termometrlarining ishlash usulini tushuntiring bering ?
5. Dilatometrik termometrlarning ishlash usulini tushuntiring ?
6. Manometrik termometrlarning ishlash usulini tushuntiring bering ?
7. Termoelektrik o'zgartirgichning kompensatsiyalovchi sxemasi nima?
8. Pirometrik millivol'tmetrlaga tushuncha bering ?
9. Potensiometrlar tushunchaga bering ?
10. Qarshilik termometrlariga tushuncha bering ?

131-BOSIM' VA SIYRAKLANISHNI O'LCHASHI 31 BOSIM HAQIDA TUSHUNCHALAR VA BOSIMNI O'LCHASHI ASBOBLARI

Sanoatning ko'pgina ta'moqlarida texnologik jarayonlar borishini xarakterlovchi 3 atavliklardan biri bosim hisoblanadi. Bosim deb tekis yuzaga normal ta'sir korsatib, ravon taqsimlangan kuchga aytildi:

$$P = \frac{F}{s} \quad (3.1)$$

bu yerdagi: F - yuzaga ta'sir etuvchi kuch, N.

s - tekislik yuzasi, m^2 .

Xalqaro birliliklarning sistemasida bosimning o'lchov birligi qilib Paskal (Pa) qabul qilingan. Paskal (Pa) bu 1 N kuch bilan 1 m^{-2} yuraga tekis va ravon ta'sir ettiliganda hosil bo'lgan bosim kuchiga teng.

Bundan tashqari amalda bosimni XBS da bo'limgagan o'lchov birliklari bilan (texnik atmosfera, fizik atmosfera, mm suv ustuni, mm simob ustuni) ham o'lchanadi:

Bosimning turli o'lchov birliklari orasidagi munosabat 10-jadvalda keltirilgan.

Bosimning turli o'lchov birliklari orasidagi munosabat

10 - jadval

Bosimning o'lchov birliklari	O'tkazish koefitsiyentlari				
	kgk/m ² yoki mm suv ust	kgk/m ² yoki at (texnik atmos)	atm (fizik atmos)	mm. simob. ust	Pa
kgk/m ² yoki mm suv ust	1	10^4	$0.0968 \cdot 10^{-3}$	$73,556 \cdot 10^{-3}$	9,80665
kgk/m ² yoki at (texnik atmos)	10^4	1	0,9678	735,56	98066,5
atm (fizik atmos)	10332	1,0332	1	760,00	101325
mm. simob. ust	13,6	$1,36 \cdot 10^3$	$1,316 \cdot 10^{-3}$	1	133,322
Pa	0,101	$10,2 \cdot 10^{-6}$	$10,13 \cdot 10^{-6}$	$7,50 \cdot 10^{-3}$	1

Bosimni o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar manometrlar siyaklanishni o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar vakuummetrlar va atmosfera bosimini o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar barometrlar deyiladi.

Absolyut bosim P_{ab} bilan atmosfera bosimi P_a orasidagi farq *ortiqcha bosim* deyiladi:

$$P_{ort} = P_{ab} + P_a \quad (3.2)$$

Agar absolyut bosim P_{ab} atmosfera bosimi P_a dan kichik bo'lsa, u holda ortiqcha bosim mansiy ishoraga ega bo'ladi. Atmosfera bosimi P_a bilan ortiqcha bosim P_{on} orasidagi farq *siyraklashgan bosim* deyiladi:

$$P_s = P_a + P_{ort} \quad (3.3)$$

Bosimni o'lhash asboblari o'lchanayotgan kattalikning turiga va ishlash usuliga ko'ra tasniflanadi. O'lchanayotgan kattalikning turiga ko'ra bosimni va siyraklanishni o'lchaydigan asboblar quyidagilarga bo'linadi:

barometrlar - atmosfera bosimini o'lhash uchun mo'ljallangan;

manometrlar - ortiqcha bosimni o'lhash uchun mo'ljallangan;

differensial manometrlar - bosimlar farqini o'lhash uchun mo'ljallangan;

vakuummetrlar - siyraklangan bosimni o'lhash uchun mo'ljallangan;

manovakuummetrlar - ortiqcha hamda siyraklashgan bosimni o'lhash uchun mo'ljallangan.

Kichik hajmdagi (40 kPa gacha) bosim, siyraklanish va bosimlar farqini o'lhash uchun mo'ljallangan asboblar *naporomerlar*, *tyagomerlar* va *tyagonapomerlar* deyiladi.

Ishlash usuliga ko'ra bosimni o'lhash uchun mo'ljallangan asboblar to'rt guruhga bo'linadi:

1. *Suyuqlikli manometrlar*, ularda o'lchanayotgan bosim suyuqlik ustuni hosil qilgan bosim bilan muvozanatlashib, uning balandligi bo'yicha bosim qiymati aniqlanadi.


2. *Deformatsion (prujinall) manometrlar*, bu asboblarda o'lchanayotgan bosim turli konstruksiyadagi egiluvchan elementlarning deformatsiyalanish qiymati yoki ularda hosil bo'ladigan kuch qiymati bilan aniqlanadi.

3. *Yuk porshenli manometrlar*, ularda o'lchanayotgan bosim porshen massasi yoki qoshimcha yuklar hosil qiladigan bosim bilan muvozanatlashadi.

4. *Elektrik manometrlarning ishlashi* ma'lum materiallarning ularga tashqi bosim ta'sir etganda elektrik xususiyatlarining o'zgarishiga asoslangan.

SUYUQLIKLI MANOMETRLAR

Suyuqlikli manometrlar tuzilishining oddiyligi va yuqori aniqlikda o'lchashi bilan ajralib turadi. Ularning ishlashi ishchi suyuqlik sifatida qo'llaniladigan simob, suv, transformator moyi yoki spirt ustuni hosil qilgan tashqi bosim bilan muvozanatlashishga asoslangan.



3.1- rasm. Suyuqlikli manometrlar:

a) U simon; b) kosali; d) qiya trubali maxsus kosali.

U simon manometr (3.1.- a rasm) U shaklida buklangan shisha trubkadan iborat bo'lib, shisha trubka ishchi suyuqlik bilan sathi ikkala trubkada ham bir xil balandlikka ega bo'ladi (ya'nii daraja ko'satkichining 0 belgisida bo'ladi). Shisha trubkaning bir uchi bosimi P o'lchanishi kerak bo'lgan muhitga ulanadi, ikkinchi uchi esa atmosfera bilan tutashadi. Ko'satish darajasi bo'yicha hisob bajariladi.

Trubkalardagi sahlar farqi h , ishchi suyuqlikning zichligi ρ hamda atmosfera bosimi bilan birgalikda suyuqlikning balandligi hosil qilgan kuch yordamida ortiqcha bosim P_{ort} aniqlanadi:

$$P_{ort} = P_{cb} + h \rho g \quad (3.4.)$$

U simon manometrlarning yuqori o'lchash chegarasi 10 kPa gacha bo'lib, o'lchash xatoligi 2 % dan oshmaydi. U simon manometrlar siyraklanish va bosimlar farqini o'lchash uchun ham qo'llaniladi. Har bir o'lchashda ikki marta (ikki shkalada) hisob olib borilishi ularning kamchiligi hisoblanadi. Yuqoridagi kamchilik ikki xil turli diametrlri idishdan iborat kosali manometrlarda (3.1.- b rasm) qisman bartaraf etiladi.

O'chanayotgan bosim P tafsirida kosada suyuqlik sathi h balandlikka kamayadi, trubkada esa h balandlikka ko'tariladi (trubkaning diametri kosaning diametriga qaraganda bir necha marta kichik). Sathilar farqi h kosali manometrlarda asosan ingichka trubkada ishchi suyuqlik $h_1 > h$, holatni ta'minlaydigan darajada so'rish natijasida erishiladi.

Kosali manometrlarning yuqori o'lhash chegarasi 10 kPa bo'lib, o'lhash xatoligi 0,4...0,25 % ni tashkil qiladi.

Kichik hajmdagi ortiqcha bosim va siyraklanishlarni aniq o'lhashda qiya trubkali maxsus kosali manometrlar ishlatalidi 3.1.- d rasm). Trubka burilish burchagining o'zgarishi h balandlikning kichik qiymatlarida ham koproq anqlikda o'lhash imkonini yaratadi.

Shishali suyuqlikli manometrlar ko'satishini yozish va uni masofaga uzatishga moslanmag'an. Shuning uchun ham ulardan faqat mahalliy o'lchovlarda hamda boshqa sistemadagi manometrlami tekshirish va darajalashda foydalaniлади.


DEFORMATSION (PRUJINALI) MANOMETRLAR

Deformatsion (prujinali) manometrlarning ishlashi moddaning o'chanayotgan bosimi bilan sezgir elementlar deformatsiyalanishi (egilishi) natijasida hosil bo'lgan kuch bilan muvozanatlashishiga asoslangan Chiziqli, burchak ko'rinishidagi deformatsiyalar asbobning ko'satuvchi yoki qayd etuvchi qismiga uzatiladi. Shu bilan bir qatorda bu o'zgarish masofaga uzatish uchun elektrik yoki pnevmatik signalga aylantirilishi mumkin.

Bu manometrlarda sezgir element sifatida bir va ko'p o'ramli prujinalar, egiluvchan membranalar va silfonlardan foydalaniлади (3.2- rasm).

Bir va ko'p o'ramli manometrlarda (3.2 - a, b rasm) o'chanayotgan bosim trubkaning (prujinaning) qo'zg'almas qismi orqali uning ichki yuzasiga uzatiladi. Prujinaning ikkinchi uchi esa kavsharlangan bo'lib, ko'satish sistemasi bilan ulanadi. Prujinalar latun va boshqa mis qotishmalaridan tayyorlanadi. Yuqori bosimlами o'lhash uchun esa ular xromel-nikelli polatlardan tayyorlanadi. Prujinaning ko'ndalang kesimi ellips ko'rinishida bo'lib, uning katta o'qi prujina o'ramlari yuzasiga perpendikulyardir.

Bosim oshishi bilan prujinaning ko'ndalang kesimi aylana shaklini egallahga intilib, ellipsning kichik o'qi kattalashadi va uning burilish burchagi kamayadi (kichrayadi). Prujinali manometrlarning shkalasi bir xil o'lchamda bo'lgani uchun, prujina berilayotgan kuchlanish va deformatsiya oralig'ida proporsional holatda ishlaydi. Bir o'ramli prujina erkin uchining qo'zg'alishi 5...8 mm dan oshmaydi. Shuning uchun manometrlarda ko'satgichning burilish burchagini oshirish maqsadida tishli yoki richagli uzatish mexanizmi qo'llaniladi.



3.2 – rasm. Deformatsion (prujinali) manometrlarning sezgir elementlari.

Bir o'ramli prujinali manometrlar namunaviy, nazorat qiluvchi va texnik asboblar sifatida tayyorlanadi. Aqliqlik toifa (klass) lari 0,2 dan 4,0 gacha bo'lib, 100 kPa dan ... 1000 MPa gacha o'lchash chegarasiga ega.


Ko'p o'ramli trubkali prujina ketma - ket ulangan bir nechta bir o'ramli prujinalardan tashki¹ topgan bo'lib, shuning hisobiga erkin uchi ma'lum miqdorda ko'proq qo'zg'alib, qisman kuchlanish hosil qiladi. Shuning uchun ko'p o'ramli prujinalar qayd qiluvchi manometrlarda keng qo'llaniladi. Keyingi paytlarda yuqori o'lchash chegarasi 160 MPa ga teng bo'lgan manometrlar ishlab chiqarilmogda.

Membranali manometrlarda egiluvchan membrana (3.2 – d rasm), yumshoq membrana rezinali qoshimcha prujina bilan (3.2 - e rasm) membrana qutili, bir qutili (3.2-f -rasm) va ikki qutili (3.2-g rasm) sezgir elementlar ishlataladi.

MM turidagi membranali manometr (3.3-rasm) 2,5 MPa gacha bo'lgan bosimiarni o'lchash uchun mo'ljallangan. Manometrda o'lchanayotgan bosim ta'sirida qutida joylashgan membrana 2 egilib, tishli uzatma 6 orqali richag 4 bilan ulangan shtok 3 ni qo'zg'atadi. Tishli uzatma tishli aylana 8 bilan bog'liq bo'lib, asbobning shkalasi 5 bo'yicha harakatlanuvchi ko'rsatkich 7 bilan prujina 9 orqali bog'langan. Manometring pastki qismida esa uni o'lchanayotgan ob'yektga o'rnatish uchun mo'ljallangan rezbali shtutser ko'zda tutilgan. Membranali manometrlar uncha katta bo'limgan bosimlarni o'lchash uchun mo'ljallangan. O'lchash sistemasi

sezgirligining pastligi, rostlashning qiyinligi va membrananing charchashi natijasida xarakteristikasining o'zgarishi - membranal manometrlarning kamchiligi hisoblanadi.

Egiluvchi membrana, qutili manometrlar atmosfera bosimini o'lchash uchun qo'llaniladi va barometrlar deyiladi. Atmosfera bosimi ichida vakuum hosil qilingan geometrik yopiq membrana qutisiga ta'sir ko'rsatadi. Membranalarni tayyorlash uchun bronza, jez va xrom-nikelli qotishmalardan foydalaniladi.



3.3.-rasm. Membranal manometr.

Sifonli manometrlarning ishlash usuli o'lchanayotgan bosimning ko'ndalangiga gofrirlangan yupqa devorli silindrik sig' im ko'rinishida tayyorlangan sezgir elementning egilish deformatsiyasi natijasida hosil bo'lgan kuch bilan muvozanatlanishiga asoslangan (3.2- h-i rasm). Sifonlar chinni, bronzadan yoki zanglamaydigan chidamli po'latdan tayyorlanadi. Sifon devorining qalinligi 0,1...0,3 mm oraligida bo'ladi, diametri esa 8 dan 150 mm gacha o'zgaradi. Amalda chiziqli elastiklik xarakteristikasiga ega. Sifonning qattiqligini oshirish uchun uning ichki qismiga vintli prujina joylashtiriladi (3.2- i rasm).


Sanoatda 25...400kPa gacha bo'lgan bosim va bosimlar farqini va 0...98 kPa gacha bo'lgan siyraklanishni o'lchaydigan sifonli manometrlar ishlab chiqariladi.

YUK-PORSHENLI MANOMETRLAR

Yuk-porshenli manometrlarning ishlash usuli bosimni kalibrlangan yuklar bilan muvozanatlanishiga asoslangan. Ular yuqori bosimlarni (1000 MPa gacha) o'lchash uchun hamda namunaviy va nazorat asboblari sifatida ishlataladi (aniqlik toifasi 0,02; 0,05; 0,2). Porshenli manometrlar texnik o'lchovlarda kam ishlataladi.

Ishchi manometrlarni va o'lchashni tekshirish uchun mo'ljallangan yuk-porshenli manometrlarning tuzilishini ko'rib chiqamiz (3.4- rasm).

Po'lat idish 14 voronka 10 va ignali klapan orqali transformator moyi bilan to'ldiriladi. Tik o'natilgan silindr 7 ga kanal chiqarilgan bo'lib, uning ichiga yuk quyiladigan tarelka 5 ga silliqlangan porshen 6 o'natilgan. Tekshirilayotgan manometr 4 ni o'matish uchun 3 va 11 shutserlar mavjud. Ignali jo'mraklar 1, 2, 12 moy o'tish kanallarini berkitish uchun, jo'mrak 8 esa moyni tushirish uchun xizmat qiladi. Idish ichidagi ishchi bosim yuklar og'irligi 5 bilan aniqlanadi. Porshen 13 ning harakati esa yukli porshen 6 ning ko'tarilishiga olib keladi.



3.4- rasm. Yuk-porshenli manometr.

ELEKTR MANOMETRLAR


Elektr manometrlar asosan yuqori chastotali o'ta yuqori va pulsatsiyali bosimlarni o'lchashda qollaniladi. Elektr manometrlarning ishlash usuli sezgir elementning bosim ta'sirida elektrik xarakteristikalarining o'zgarishiga asoslangan bo'lib (3.5- rasm) quyidagi turlarga bo'linadi:

1. P'ezoelektrik manometrlar.
2. Induksion manometrlar.
3. Tenzometrik manometrlar.
4. Qarshilikli manometrlar.
5. Sig'imli manometrlar.
6. Induktiv manometrlar.

P'ezoelektrik manometrlarda turli xil kristall dielektrik materiallarning deformatsiyalanishi natijasida ularning yuzasida elektr zaryadlari hosil bo'lishi (pezoelektrik effekt hodisasi) dan foydalaniлади. Bunday dielektriklar sifatida kvars, turmalin, bariy-titanilar qollaniladi. Bu manometrlarning berilgan ta'simi juda tczlik bilan sezishi ularning afzalligi hisoblanadi.

Induksion manometrlarda sezgir elementning egilishi natijasida hosil bo'ladigan bosim induksion o'zgartgich yordamida ikkilamchi asbobga uzatiladigan elektr signalga aylantiriladi.

Elektr signalni masofaga uzatuvchi manometr - MED induksion manometrlar orasida eng keng tarqalgandir. Diametri 160 mm bo'lgan korpusga bir o'ramli trubkasimon prujinali ushlagich, uzatish mexanizmi va induksion chulg'am (g'altak) joylashtirilgan (3.5- rasm).



3.5- rasm. Induksion manometr.

Tekshirilayotgan sistemaning bosimi P shtutser orqali trubkali prujinaga uzatiladi, prujina deformatsiyalanib, induksion chulg'am magnit o'tkazgich 3 ni harakatga keltiradi. O'lchanayotgan bosimning har bir qiymatiga chulg'amdag'i magnit o'tkazgichning ma'lum (aniq) holati to'g'ri keladi. Manometring chulg'ami 2 va ikkilamchi asbobning chulg'ami 4 differensial-transformator sxemasi bo'yicha ulangan. Asbobning chiqish kattaligi transformatorning birlamchi va ikkilamchi chulg'amlari orasidagi o'zinduskiyadir. Magnit o'tkazgichning chulg'amlar orasiga kirish kattaligi qancha katta bo'lsa, ikkilamchi o'ramga shuncha ko'p kuchlanish uzatilib ikkilamchi asbobga beriladi. Induksion manometrlar o'zaro almashinadigan ikkilamchi asboblar va markazlashtirilgan tekshirish va rostlash sistemalari bilan birgalikda ishlaydi. Sanoatda yuqori o'lhash chegarasi 160 MPa gacha bo'lgan, anqlik toifalari 1; 1,5 bo'lgan MED turdag'i asboblar ishlab chiqariladi!

Elektr manometrlarning yana bir turi - qarshilikning o'zgarishi hisobiga bosimni o'lhashda qo'llaniladigan tenzdatchiklardir. Tenzometring ishslash usuli kuch yoki unga proporsional bo'lgan deformatsiyani deformatsiyalangan jismga yopishdirilgan sim qarshiligining o'zgarishiga aylantirishdan iborat. Tenzodatchik - diametri 0,02...0,05 mm bo'lgan manganin simdan tayyorlanib, sim bir-biriga yopishgan yupqa qog'oz orasiga sirtmoq shaklida joylashtiriladi. Simning uchlariga chiqish klemmalari ulanadi. Tenzometring sezgir elementi elastik element yuzasiga yopishdirilib, bosim ta'sirida elastik element deformatsiyalanganda, manganin sim cho'ziladi va qarshiliqi o'zgaradi. Tenzodatchik elektr ko'prikl. sxemasiga qarshilikm o'lhash uchun ulanadi. Ko'priknинг shkalasi esa bosim birliklarida darajalanadi.

- Tenzometrlarda elektr qarshilikning bosimga bo'lgan bog'lanishi chiziqli, inersionligi kichik va o'lhash qiyin bo'lgan yerlarga joylashtirilishi uning afzalligi hisoblanib, o'lhash xatoligi 2 % dan oshmaydi. Sezgirlik miqdorining juda kichikligi, temperatura o'zgarishiga bog'liqligi, ularning sanoat texnologik qurilmalarida kam qo'llanilishi esa uning kamchiligi hisoblanadi.


Ishlash chiqarishda eng ko'p qo'llaniladigan manometrlarning texnik xarakteristikalarini

11-jadval

Nomliasi: ishi	Turi	Yuqori o'lchash chegarasi	Aniqlik toifasi	Qo'llanish joyi
Ko'rsatuvchi manometrlar	TM(M')	0,16; 0,25; 0,4; 0,6; 1,0; 1,6; 2,5; 4,6; 10,16; 25; 40	4	Suyuq va gazsimon moddalarning bo'simini o'lchaydi
	AMU	0,6; 1; 1,6; 2,5; 4; 16 va 10	1,5	Ammiak bosimini o'lchash uchun
	MID	0,16...10; 16 va 25	2,5	Havo bosimini o'lchash uchun
	MM	4 va 25	4	Kislorod bosimini o'lchash uchun
	MP	0,16; 0,25; 0,4...10; 16 va boshqalar	1,5	Turli xil gazlar bosimini o'lchash uchun
Signal beruvchi manometrlar	EKM	0,1 va 10	1,5	Suyuq gaz va bug'larning bosimini o'lchash uchun
	MED	0,1 va 1,6	1,5	Suyuq gaz va bug'larning bosimini o'lchash uchun

ELEKTR ASBOBLAR

Bu guruhdagi asboblarning ishlash printsipi bosimni u bilan funktsional bog'liq bo'lgan biror elektr kattalikka bevosita yoki b'ilvosita o'zgartirishga asoslangan. Bularga induktiv, sig'imli, qarshnlikli, p'ezoelektr va boshqa manometrlar kiradi.



3.6-rasm. Induktiv manometrnning printsiplial sxemasi

Bosimni o'lhashning eng ko'p tarqalgan vositalari kuch kompensatsiyasi asosida qurilgan asboblar hisoblanadi. Biroq ular ko'pancha paronetrlar (ko'rsatkichlar) bo'yicha temperatura xatoligi, tez ta'sirchanligi, garabit o'lchamlari va massasi bo'yicha ancha mukammal o'zgartikichlardan (induktiv, sig'imli, tenzorezistorli, p'ezoelektrik o'zgartikichlardan) orqada qoladi. Bundan tashqari, kuch kompensatsiyali o'zgartikichlarning va pishangli sistemalarning konstruktsiyasida harakatlanuvchi massalarning bo'lishi o'lhash vositalarining zarbga chidamliligiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning qondirilishini qiyinlashtiradi.

Hozir mikroelementli texnikani keng joriy qilish va sxemali hamda konstruktiv echiqlarni takomillashtirish asosida yuqorida qarab chiqilgan bosimni o'lhashning an anaviy vositalari yanada zamonaviy kompleks qurilmalar bilan doimo siqib chiqarilmoqda. Bu albatta, turli tarmoqlarda TJABS ni yaratishda shart va talablarning turli tumanligi sababli avval ishlab chiqarilgan bosimni o'lhash o'zgartikichlaridan foydalanishdan to'la voz kechish kerakligini anglatmaydi.

Induktiv ashoblarning ishlash printsipi g'altak induktivligining tashqi bosim ta'siridan o'zgarishiga asoslangan.

3.6-rasmida induktiv o'zgartiruvchi element bilan jihozlangan bosimni o'lhash o'zgartikichiniing sxemasi ko'rsatilgan.

Bosimni qabul qiluvchi membrana / o'ramli elektromagnit 2 ning harakatlanuvchi yakori hisoblanadi. O'lchanayotgan bosim ta'sirida membrana siljiydi, bu induktiv o'zgartikichli elementning elektr qarashilagini o'zgartiradi. Agar g'altakning aktiv qarshiligi, magnit oqimlari hisobga olinmasa va o'zakda yo'qotilsa, o'zgartikich elementning L induktivligini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin.

$$L = W^1 \mu_0 \cdot S / \delta \quad (3.5)$$

bu erda:

W^1 — g'altak o'ramlari soni;

μ_0 — havoning magnit singdiruvchanligi,

S — magnit o'tkazgich ko'ndalang kesimining yuzi;

δ — havo oralig'iniiq uzunligi.

Membrananing deformatsiya kattaligi o'lchanayotgan bosimga mutanosibligini e'tiborga olib


$$\delta = K * P. \quad (3.6)$$

(3.6) tenglamani quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$L = W^1 \mu_0 \cdot S / K * P \quad (3.7)$$

(3.7)- tenglama bosimni o'lhash induktiv o'zgartikichning statik xarakteristikasini ifodalaydi.

L ni o'lhash, odadta, o'zgaruvchan tok ko'priklari yoki rezonansli LS-konturlar tomonidan amalga oshiriladi. 0,5..1,0 MPa bosimda membrananing qalinligi 0,1...0,3 mm, bosim 20...30 mPa bo'lganda esa 1,3 mm. Membrananing siljishi millimetring yuzdan bir ulushini tashkil etadi. Induktiv bosim o'zgartikichlarning asosiy xatosi $\pm \{0,2-5\}\%$.



3.7-rasm. Sig'imi manometr sxemasi

Sig'imi manometrlarning ishlash printsipi bosim o'zgarishi bilan yassi kondensator qoplamlari o'tasidagi masofani o'zgartirishi natijasida uning sig'iming o'zgarishiga asoslangan. Sig'imi manometrning printsipial sxemasi 3.8-rasmda keltirilgan. O'lchanayotgan bosim asbobga naycha / orqali keladi va membrana 2 orqali qabul qilinadi. Membrana 2 va elekrod 3 kondensator qoplamlarini hosil qiladi. Kondensator esa o'lhash sxemasiga qisma 4 lar orqali ulanadi. Kondensator sig'iming qoplamlar o'tasidagi masofaga bog'liqligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$C = \frac{S - \epsilon}{l}. \quad (3.8)$$

Bunda:

S - qoplamlar yuzi;

ϵ - qoplamlar orasidagi muhitnikg dielektrik singdiruvchanligi;

l — qoplamlar o'tasidagi masofa.

Bosim ta'sirida membrana egilib, elekrod 3 ga yaqinlashadi. Membrananing egilishi natijasida (masofa o'lchanayotgan bosimga nisbatan mutanosib o'zgaradi. Qoplamlar yuzi va dielektrik singdiruvchanlik o'lhash jarayonida o'zgarmaydi. SHuning uchun (3.8) ifodani quyidagicha yozish mumkin:

Bundan

$$\dot{N}S = k/l \quad (3.9)$$

Shunday qilib, kondensator sig'imi o'lchanayotgan bosimga mutanosibdir. C ni o'lchov axboroti signaliga aylantirish uchun, odatda, o'zgaruvchan tok ko'priklaridan yoki rezonansli LS – konturlardan foydalilanildi. Sig'imi asboblar 120 MPa gacha bo'lgan bosimni o'lhashda qo'llanadi. Membrananing qaliligi 0,05...1 mm. Ulardan tez o'zgaruvchi bosimlarni o'lhashda foydalilanildi. Sig'imi manometrlarning ko'rsatishiga atrof muhitning temperaturasi ta'sir qildi. CHunki temperatura o'zgarishi natijasida qoplamlalar o'tasidagi masofa o'zgaradi. Sig'imi

manometlarning yana bir kamchiligi parazit sig'implar ta'siridir. O'lhash xatoligi asbob shkalasining $\pm 0.2\ldots 5\%$ idan oshmaydi.

Qarshilik manometrlarining ishlash printsipi sezgir element qarshiligining tashqi bosim ta'sirida o'zgarishiga asoslangan. Sezgir elementlar qatoriga manganin, platina, konstantan, volfram, yarimo'tkazgich va hokazolar kiradi. Qarshilik manometrlarida qo'llash uchun eng quayi manganindir. Manganin ΔR elektr qarshilik orttirmasining R bosimiga nisbatan chiziqli bog'lanishiga ega:

$$\Delta R = K_p \cdot R \cdot P. \quad (3.10)$$

Bunda:

K_p — manganin qarshiligining o'zgarish koefitsierti, $1/\text{Pa}$;

R — qarshilik, Ω .

Manganin qarshiligining chiziqli bog'lanishi tajriba ma'lumotlardan 3000 mPa bosimgacha tasdiqlanadi. Bundan tashqari, manganin elektr qarshiligining temperatura koefitsienti juda kichik. O'zgartigich sezgirligining kichikligi bu manometrlarni juda yuqori (100 mPa dan ortiq) bosimlarni o'lhash uchun qo'llashga yo'l qo'yamaydi. Manganin uchun $K_p = 22,95 \cdot 10^{-2}$ dan $24,61 \cdot 10^{-2} \text{ } 1/\text{Pa}$ gacha.

O'zgartigichdagi manganin qarshiliginini o'lhash uchun, odatda, ko'priklar, aniq o'lchovlar uchun esa potensiometrlar qo'llaniladi. Manganin qarshilikli manometrlarning yo'l qo'yadigan asosiy xatosi $\pm 1\%$ dan oshmaydi.

Asbobsozlik sanoatida chiqarilayotgan MM-2500 manganinli manometrlar 2500 mPa gacha bosimni o'lchaydi.

YArimo'tkazgichli datchiklarning p'ezokoeffitsienti manganinnikidan ming marta ortiq, lekin datchiklar qarshiligining bosimga bo'lgan bog'lanishi nochiziqlidir. Bundan tashqari, katta miqdordagi gisterezis mavjud bo'lib, temperatura ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. YArimo'tkazgichli qarshilik datchiklari mexanik jihatdan pishiq emas, ular 10 mPa dan ortiq bosimlarni o'lhashga yaroqsiz.

Elektr qarshilik usuli bo'yicha bosimni o'lhashda sezgir element sifatida tenzodatchiklar qo'llaniladi. Tenzometrning ishlash printsipi kuch yoki unga mutanosib bo'lgan deformatsnyani deformatsiyalangan jismga yopishtilirigan sim qarshilgingin o'zgarishiga aylantirishdan iborat.

Sezgir element detaliga yopishtilirigan tenzodatchiklar o'lchanayotgan bosim P ni elektr qarshilik o'zgarishi bilan sezadi. Bu tenzosezgirlik koefitsienti K_t bilan baholanadi:

$$K_t = \frac{\Delta R / R}{\Delta P / P} \quad (3.11)$$

bunda $\Delta R / R$ — tenzometr qarshiligining nisbiy o'zgarishi; $\Delta P / P$ — simning nisbiy deformatsiyasi; K_t — koefitsient qiymati metallar uchun 0,5 ... 4,0 chegarasida bo'ladi.


Yuqori metrologik va soydalish xarakteristikalariga ega bo'lgan tenzorezistorli bosimni o'lhash o'zgartikchilari bir qator afzalliklariga ko'ra: gabarit o'lchamlari va massasi kichik, vaqt bo'yicha yuqori darajada barqaror, aniqligi yuqori, tebranishga chidamliligi turli aggressiv muhitlar bilan kontaktda ishlashi

mumkinligi, uchqunga havfsiz qilib ishlaganiga ko'ra yanada kengroq tarqalmoqda. Avtomatik nazoratning sanoat sistemalari uchun va o'zgarmas tokning (0...5; 0...20 yoki 4...20 mA) standart chiqish signallari bilan ishlovchi mikroprotsessor texnikasi asosidagi TJABS tarkibidagi sistemalari uchun Sapsir seriyasidagi elektr o'Ichov tenzometrik o'zgartknchlari kompleksi ishlab chiqarilmoqda: odatdagicha ishlangan Sapsir-22 va portlashdan himoyalangan turdag'i Sapsir-22 Ex. O'zgartkichlarning aniqlik sinfi 0,25 va 0,5.

Sapsir seriyasidagi o'Ichov o'zgartkichlar kompleksi mutlaq va ortiqcha bosimni, siyraklanishi, shuningdek suyuqlik va gazlarning sarflanishini, kimyoviy aktiv, qovushoq va kristallanuvchi suyuqliklarning satxini, suyuq muhit zichligini va bosim bilan bog'liq boshqa kattaliklarni keng doirada nazorat qilishga imkon beruvchi datchiklar qatoriga kiradi.

Sapfirming ishlash printsipi kremniyning geteroepitaksial plynokalaridagi tenzoreszistiv effektdan foydalanishga asoslangan. O'chanayotgan parametrling ta'siri texnoplonyonkali yarim o'tkazgichli tenzorezistorli sezgir elementni deformatsiyalaydi. Tenzorezistorlar deformatsiyasi natijasida qarshilikning o'zgarishi elektron qurilmalar yordamida me'yorashtirilgan tokli chiqish signaliga aylanadi.

Sapsir-22 o'zgartkich komplekti kuchaytiruvchi qurilmasi bo'lgan o'Ichov blokidan va manba blokidan iborat. Sezgir element deformatsiyasi, o'chanayotgan parametrling mutanosib kattaligi kremniyli tenzorezistorlarning qarshilikning o'zgartiradi. elektron qurilma qarshilikning bu o'zgarishini o'zgarmas tokning me'yorashtirilgan chiqish signaliga almashtiradi.



3.8. Sapsir-22 DD-Ex bosimlar farqini o'Ichovchi o'zgartkichning sxemasi


3.8- rasmida Sapsir-22 DD-Ex bosimlar farqini o'Ichovchi o'zgartkichning sxemasi ko'rsatilgan. Tenzoo'zgartkich 4 metall membranadan iborat bo'lib, unga yuqori tormondan nomuvozanat ko'priking elkalarini tashkil etuvchi to'rtta kremniyli tenzorezistorlar bilan changlatilgan sapfirlri membrana kavsharlangan. Tenzoo'zgartkich 2 asosga mahkamlangan va o'chanayotgan muhitdan ikkita ajratuvchi metall membranalar 1 va 3 bilan bo'lingan. Termoo'zgartkich va membranalar orasidagi berk bo'shliqlar polimetilsilosanli suyuqlik bilan to'ldirilgan. Bosimlarning o'chanuvchi farqi $P_1 - P_2$ -- tenzoo'zgartkichlarga aytib

o'tilgan membranalar va suyuqliklar orqali ta'sir qiladi. Tenzoo'zgartkich germetik chiqishlar 5 orqali kiritilgan elektron qurilma 6 ga ulanadi. SHu qurilma yordamida tenzorezistorlar qarshiligining o'zgarishi me'yorlashtirilgan tokli chiqish signaliga almashadi, u masofadan turib uzatish uchun havfsiz uch o'tkazgichli liniya bo'yicha ta'minot bloki 7 ga uzatiladi. Ta'minot bloki portlashga havfsiz xonaga o'matiladi va birlamchi o'zgartichning ikki o'tkazgichli liniya bo'yicha ta'minotini ta'minlaydi. SHu liniyaning o'zidan chiquvchi tokli signal uzatiladi. Ko'rsatilgan vazifa bilan bir qatorda ta'minot bloki chiqish signalining quvvatini tashqi R_y yuklanishni ulash uchun zarur sathgacha oshiradi va chiqish signalining berilgai qiymatini shakllantiradi (0...5, 0...20 yoki 4..20 mA). Ortiqcha bosimli mutlaq bosimli va siyraklanish tenzorezistorli o'zgartichlarda qarab chpqilganlarga o'xshash, o'Ichov bloklaridan foydalaniлади. Farqi shundaki, o'Ichovchi o'zgartich, ob'ektga «plyusli kamera» bilan ullanadi, «minusli kamera» orqali esa atmosfera bilan ullanadi. Mutlaq bosimni o'Ichovchi o'zgartichlarda minusli kamera vakuumlangan.

Ortiqcha bosimni, siyraklashish va bosimlar farqini o'chaydigan tenzorezistorli o'Ichovchi o'zgartichlarning aniqlik sinflari 0,6; 1,0; 1,5. O'Ichash oraliqlari: ortiqcha bosimniki $-0...10^3$ dan $0...60$ MPa gacha; siyraklanish $-1...0$ dan $-10...0$ kPa gacha; mutlaq bosimniki $0...2,5$ kPa dan $0...2,5$ MPa gacha; bosimlar farqi $0...1$ KPa dan $0...2,5$ MPa gacha.

P'ezoelektrik manometrlarning ishlash printsipi ba'zi kristall moddalarining mexanik kuch ta'sirida elektr zaryad hosil qilish qobiliyatiga asoslangan. Bu hodisa p'ezoeffekt deb ataladi. P'szoefekt kvarts, turmalin, segnet tuzi, bariy titanat va boshqa moddalar kristallarida kuzatiladi. Bu tipdag'i asboblarda ko'pincha kvarts ishlataladi. Kvartsning p'ezoelsktr effekti $+500^\circ\text{S}$ gacha bo'lgan temperaturaga bog'liq emas, lekin $+570^\circ\text{S}$ dan oshgan temperaturada bu effekt nolga teng bo'lib qoladi.

F kuch ta'sirida kristall plastinka yuzalarida paydo bo'ladigan elektr zaryad ushbu formula bilan topiladi:



3.9. P'ezoelektrik manometr sxemasi

$$Q = K_p F; \quad (3.12)$$

Bunda:

K_p — p'ezoelektrik doimiy, KI/N . K_p ning qiymati plastinaning o'lmiga boglik emas va kristalning tabiatini bilan bog'lanadi.

Kvarts u chun $K_p = 2,1 \cdot 10^{12} \text{ KI/N}$.

3.9-rasmda p'ezoelektrik manometrining sxemasi ko'rsatilgan. O'chanayotgan bosimni 4 membrana kuchga aylantiradi, bu kuch esa diametri 5 mm va qalinligi 1 mm bo'lgan kvarts plastinalar 2 ning ustunlarini siqilishga majbur qiladi. Vujudga kelayotgan Q elektr zaryad I chiqishlar orqali katta kirish qarshiligidagi (10^{13} Om) ega bo'lgan elektron ku chaytirgich 5 ga uzatiladi. Zaryadning qiymati o'chanayotgan P bosim bilan quyida gicha bog'langan:

$$Q = K_p S P$$

Bunda:

S — membrananiig samarali yuzi

Asbobning inertsiyaligini kamaytirish uchun kamera 3 ning hajmi minimallashtiriladi.

100 MPa (1000 kgf/cm²) gacha bosimlarni o'chashga imkon beruvchi p'ezokvartsli manometrlar tez o'zgaruvchi bosimlarni o'chashda keng qo'llanadi. P'ezoelektrning a'zalligi uning inertsiyeligidir. Bu asboblar bosimlari tez o'zgaradigan jarayonlarni (kavitsiya, portlash) o'rGANISHDA juda qulay. P'ezoelektr manometrlarning aniqlik sinfi 1,5; 2,0.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bosim deb nimaga aytildi ?
2. Induksion manometrning ishlash usuli ?
3. Elektr manometrlar ?
4. Silfonli manometrlarning ishlash usuli ?
5. Deformatsion (prujinali) manometrlar to'g'risida tushuncha bering ?
6. Bosimning turli u'chov birliklari orasidagi munosabat ?
7. Silfonli asboblarning o'chash chegarasini aytинг.
8. Suyuqlikli asboblarning turlarini aytинг.
9. Differentsial manometrlar nimani o'chaydi?
10. Bosimni o'chash asboblarini turlarini aytинг.

IV.-bob. SUYUQLIK VA SOCHILUVCHAN

MODDALAR SATHINI O'LCHASH

Sanoatning barcha tarmoqlarida texnologik jarayonlarning borishida moddaning sathini bir xilda saqlash asosiy o'rinni tutadi. Asosan omborxonalarda keladigan xomashyolarni, tayyor mahsulotlarni saqlashda ularning sathini doimiy saqlab yoki tekshirib turish talab etiladi.

Ishlash usuliga ko'ra sath o'lchagichlar quyidagi larda bo'linadi: Ko'rsatish oynasi, qalqovichli, gidrostatik, elektrik, radioizotopli, ultratovushli va vaznli sath o'lchagichlar.

Suyuqlikning sathini o'lchashda asosan ko'rsatish oynasi, qalqovichli hamda gidrostatik sath o'lchagichlar qo'llaniladi.


Sathni o'lchashda qo'llaniladigan tuzilishi jihatidan eng sodda asbob ko'rsatish oynasi hisoblanib, bug' qozonlarida hamda turli xil sig'implarda tozalangan suyuqliklar sathini o'lchashda ishlataladi. U sati o'lchanayotgan suyuqlik solingan idish bilan birlashtirilib, trubka sath o'lchov birligida darajalangan shkalaga ega.

QALQOVICHLI SATH O'LCHAGICHLAR

Qalqovichli sath o'lchagichlar turli xil suyuqliklar sathini o'lchashda keng qo'llaniladi. Qalqovichli sath o'lchagichlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

- qalqovichchi doimiy qalqib turuvchi sath o'lchagich;
- qalqovichchi doimiy cho'kib turuvchi sath o'lchagich.


Birinchi turdag'i sath o'lchagichlarda (4.1- rasm) yumshoq trosning bir tomoniga qalqovich I, ikkinchi tomoniga esa uni tortib turish uchun yuk osilgan. Yukning yon tomoniga ko'rsatgich 4 o'matilgan bo'lib, sathning o'zgarishiga qarab reykali shkala bo'yib harakatlanadi. Trosning harakati esa 3 roliklar yordamida bcshqariladi.



4.1-rasm Qalqovichli sath o'lchagichning sxemasi

Ikkinchi turdag'i sath o'lchagichning sxemasi 4.2- rasmida keltirilgan bo'lib, u sath o'zgarishini masofaga uzatishi bilan oldingilaridan farq qiladi. Qalqovich vazifasini esa silindr shaklidagi metall trubka bajaradi. Qalqovichchi doimiy cho'kib turuvchi sath o'lchagichning ishlashi metall trubkaning suyuqlikka cho'kish chuqurligiga qarab uning og'irligining o'zgarishiga asoslangan.

Sathi o'lchanayotgan suyuqlik solingan idish I ga richag mexanizmi 4 orqali o'tgan yumshoq tros 3 ga metall trubka 2 osilgan. Idishda suyuqlikning sati o'zgarsa, metall trubkaning trosga beradigan og'irlik kuchi o'zgarib, richag mexanizmi yordamida sterjenli torsion trubka 5 ni burilishga olib keladi. Torsion trubkaning burilish burchagi suyuqlik sathining o'zgarishiga proporsionaldir. Sterjen uchiga o'rnatilgan to'siq asbob ishlashi uchun beriladigan siqilgan havo yo'lini berkitadi (suyuqlik sati ko'paygan holatda). Pnevmatik qurilma 7 dan beriladigan siqilgan havo bir paytning o'zida shkalasi o'lchov birliklarida darajalangan o'lchov asbobi 8 ga uzatiladi.



4.2- rasm. Qalqovichи doimiy cho'kib turuvchi sath o'lchagichning sxemasi

GIDROSTATIK SATH O'LCHAGICHLAR


Gidrostatik sath o'lchagichilar (4.3.- rasm) ham Kimyo va oziq-ovqat sanoatida suyuqliklar sathini o'lchashda keng qo'llaniladi. Ulaming ishlashi quyidagi usulga asoslangan. Agar suyuqliki idishga vertikal holatda o'matilgan trubka tushirilib, unga siqilgan havo berilsa, havoning pezometrik trubkadagi bosimi idishdagи puflanadigan suyuqlik balandligining og'rligiga teng bo'ladi. Bu esa o'z navbatida idishdagи suyuqlik sathini belgilaydi.

Pezometrik sath o'lchagichlar asosan aralashmalar va aggressiv suyuqliklar sarfini o'lchash uchun qo'llaniladi.

Gidrostatik sath o'lchagichlar ikki turga bo'linadi:

†. Pezometrik sath o'lchagichlar.

2. Difmanometrik (suyuqlikning balandligini bevosita o'zgartirish yo'li bilan sathni o'lchash).



4.3.- rasm. Gidrostatik sath o'lchagichlarning sxemasi.

a) pezometrik.

b) difmanometrik.

Difmanometrik sath o'lchagichlarda sath o'zgarishini idishdagi suyuqlik ostidagi va ustidagi bosimlar farqi bilan aniqlanadi. O'lchash asboblarining shkalalari sath o'lchov birliklarida yoki foizlarda darajalanadi.

ELEKTRIK SATH O'LCHAGICHLAR


Elektrik sath o'lchagichlar orasida eng ko'p ishlataladigan sig'imli va omik (qarshilikli) asboblardir. Ularda suyuqlik sathining o'zgarishi biror elektr signaliga o'zgartiriladi.

Sig'imli sath o'lchagichlarda sezgir element sifatida kondensatorli o'zgartigichlar qo'llanilib, moddaning sati o'zgarishi bilan ularning sig'imi o'zgaradi. Sig'imli sath o'lchagichlarda nazorat qilinayotgan muhitning dielektriklik xususiyatlaridan foydalilaniladi. Ular odatda silindrik o'zgartigich va ikkilamchi asboblardan iboratdir (4.4.- rasm).

Sathi o'lchanishi kerak bo'lган suyuqlik quyilgan idish 1 ga izolyatsion material bilan qoplangan elektrod 2 tushiriladi. Elektrod idish devorlari bilan birlgilikda silindrik kondensatorni tashkil qilib, uning sig'imi suyuqlik sati tebranishi bilan o'zgaradi. Sig'iming kattaligi elektron blok 3 orqali o'lchanadi va o'lchash asbobi 4 ga uzatiladi. Sath o'zining ma'lum qiymatiga erishganda o'lchash asbobi signalizatsiya sxemasida releli elementidan yoki sathni o'lchash sxemalarida ko'rsatuvchi asbobni tashkil qiladi.

Elektrik sig'im, odatda, rezonans va ko'priksxemalarida o'lchanadi. Rezonans usulida o'lchanayotgan sig'im induktivlik konturiga parallel ulanadi va rezonans konturini hosil qiladi. Rezonans konturi o'zgartigichning sig'imidagi ta'minlovchi chastota rezonansiga rostlanadi. O'zgartigichning sig'imi o'zgarishi natijasida uning chastotasi o'zgaradi va rezonans buziladi. Bu usuldan ko'pchilik sig'imli sath signalizatorlarida foydalilaniladi.


Ko'prikl usulida esa nazorat qilinayotgan sig'im ko'priknig bir yelkasiga ulanadi. Sath o'zgarishi bilan sig'im o'zgaradi va ko'prikdal balans vujudga keladi. Nobalanslik signali kuchaytirg'ch orqali sath birligida darajalangan ko'satuvchi elektr asbobiga uzatiladi. Ko'prikl usuli ko'pchilik sig'imli sath o'lchagichlarda ishlataladi. Rezervuardagi satun o'lhash chegaralari 0 - 5 m; elektron blokdan sathni distansion ko'satgichgacha bo'lgan eng katta masofa 1000 m bo'lib, ko'rsatish xatoligi 2 % ga teng.



4.4.- rasm. Sig'imli sath o'lchagich sxemasi.

Konduktometrik sath o'lchagichlarning ishlash usuli o'lchanayotgan muhitga tushirilgan maxsus elektrod yordamida suyuqlik yoki sochiluvchan moddalarning elektr qarshitligini o'lhashga asoslangan. Bunday sath signalizatorlarining eng oddiy qurilmasida elektr o'tkazuvchi mahsulotli sig'imga tushirilgan ikki elektrod ulanganda, signal beruvchi lampanning kontaktlari ishlaydi. Bitta elektrod vazifasini yerga ulangan sig'inning metall devori o'taydi, ikkinchi o'lchaydigan elektrod esa undan elektr izolatsiyalangan bo'lishi kerak.

4.5. - rasmda konduktometrik sath signalizatorining principial elektr sxemasi keltirilgan. Kuchlanishi 7 voltidan katta bo'limgan o'zgaruvchan tok maxsus tok manbaidan ikki elektrodlı o'lechov o'zgartgich ($O'O'$) ga berilib, tekshirilayotgan mahsulotning sathiunga yetganda zanjir ulanadi. Bu paytda elektromagnit relening kontakti harakatlinib, kerakli signal beruvchi yoki rostlovchi kontraktlagni ulaydi.



4.5. – rasm. Konduktometrik sath
signalizatorining principial elektr sxemasi.

Asbobsozlik sanoatida ishlab chiqariladigan bu turdag'i sath signalizatorlari Kimyo va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Asboblar mahsulotning ishchi temperaturasi 200°C bo'lqanda 5 mm gacha xatolik bilan sath signalini ta'minlaydi.


Radioizotopli sath o'lchagichlar boshqa sath o'lchagichlarga nisbatan mukammal bo'lib, bunda suyuqlik va sochiluvchan moddalarning sathini o'lchash uzlusiz va diskret ravishda amalga oshiriladi. Ularning ishlesh usuli berk idish ichidagi suyuqlik yoki sochiluvchan moddalarga y nur!ari ta'sir ettirilganda, ularning modda qatlamida yutilishiga asoslangan. Nurlanish manbai sifatida ko'pincha o'zidan y nurlar chiqaradigan Co (kobalt-60), Cs (seziy-137), Se (selen-75) va boshqa moddalar ishlatiladi.

Ultratovushli sath o'lchagichlarning boshqa asboblardan farqi - ular sathni kontaktsiz usulda o'lchaydi, ularning ishlash usuli suyuqlik, gaz (havo) chegarasidan tovush to'lqinlarining qaytishiga asoslangan. Bu esa suyuqlik va havo sirtida akustik qarshilikning keskin farqi natijasida sodir bo'ladi. Yuqori aniqlikda va katta diapazonda o'lchashi ularning afzalligini ko'rsatsa, o'lchash sxemasining murakkabligi esa kamchiligi hisoblanadi.

SOCHILUVCHAN MODDALAR SATH O'LCHAGICHLARI

Sochiluvchan moddalarning sathini o'lchash uchun asosan vaznli sath o'lchagichlar hamda membranalı sath signalizatorlari keng qo'llaniadi. Membranalı sath signalizatorlarining ishlash usuli sochiluvchan moddaning idish tubiga va idish devorlariga bosim hosil qilish xususiyatiga asoslangan. Ular sochiluvchan moddalarning idishda chegaralangan sathini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Membranalı sath signalizatorining sxemasi 4.6.- rasmida keltirilgan bo'lib, umarkazidan shtok 2 bilan qotirilgan membranadan iborat. Sochiluvchan modda hosil qilgan bosim ta'sirida membrana egilib, shtok kontakt qurilmasi 3 ga ta'sir ko'rsatadi. Kronshteyn 4 ga qaytaruvchi prujina 5 qotirilgan bo'lib, rostlovchi vint 6 yordamida tortiladi. Signalizator 8 ichida saqlagich (izolyator) qotirilgan. Bu signalizator

asosan bunker devorlariga, un, don va boshqa mahsulot saqlanadigan baland minoralarda turli xil balandlikda o'rnatiladi. Sochiluvchan modda hosil qilgan bosim ta'sirida membrana egiladi va shtokning harakati orqali kontakt qurilmasi ulanib, sochiluvchan moddaning sathi berilgan qiymatga yetganligi to'g'risida elektr signal beriladi. Sath kamayganda esa prujina 5 membranani oldingi holatiga qaytaradi va kontakt qurilmasi uziladi (ajratiladi).



4.6. – rasm. Membranalı sath signalizatorining sxeması

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sath nima? U qanday birliklarda o'chanadi?
2. Suyuqliklarning sathini o'chanash asboblari qanday turlarga bo'linadi?
3. Sath signalizatorlari nima?
4. Sochiluvchan moddalarning sathi qanday asboblar yordamida o'chanadi?
5. Gidrostatik sath o'chagichlarning ishlash usuli nimaga asoslangan?
6. Qalqovuchli sath o'chagichchning ishlash usuli nimaga asoslangan?
7. Radioizotopli sath o'chagichlar qacerlarda ishlataladi
8. Ulrtatovushli sath o'chagichlarning o'chanash diapozoni qancha?
9. Vaznli sath o'chagichchning ishlash usulini tushuntiring.
10. Elektrik sath o'chagichlarning turlarini ayting.

V-bob. MODDANING SARFI VA MIQDORINI O'LCHASHI

Sanoatning ko'pgina tarmoqlari, ishlab chiqarish texnologik jarayonlarda moddaning sarfi, miqdori va hajmini o'lchash, ularni tekshirish va boshqarishdu hamda kerakli xom-ashyo, yarim mahsulot va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda asosiy o'tin egallaydi.

Moddaning miqdori deb ma'lum vaqt oralig'iда quvurming yoki boshqa tashuvchi qurilmasining ko'ndalang kesimidan o'tadigan moddaning massasi yoki hajmining yig'indisiga aytildi. Moddaning miqdori hajm yoki massa birliklarda ifodalanadi. Hajmnning asosiy birligi *metr kub* (m^3), massaning asosiy birligi esa *kilogramm* (kg). Asbob orqali oqib o'tayotgan moddaning massasi yoki hajmini vaqtning istalgan oralig'iда o'lchaydigan asbob hisoblagich (schyotchik) lar deyiladi.

Vaqt birligi ichida quvurming berilgan kesimidan o'tadigan modda miqdori moddaning sarfi deyiladi. Qanday birliklarda o'lchanishiga qarab moddaning sarfi hajmi va massali bo'lishi mumkin. Hajmiy sarf m^3/s larda, massali sarf esa kg/s larda o'lchanadi. Sarfni o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar sarf o'lchagichlar deyiladi.

O'lchash usuliga ko'ra sarf va miqdorni o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar quyidagi guruhlarga bo'linadi: tezlik va hajm hisoblagichlari; bosimlar farqi o'zgaruvchan va o'zgarmas sarf o'lchagichlar; o'zgaruvchan sathli sarf o'lchagichlar; elektromagnit va ultratovush sarf o'lchagichlar; tarozilar va dozatorlar; donali mahsulotlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan asboblar.

5.1. MODDALAR SARFINI O'LCHASHI ASBOBLARI

BOSIMLAR FARQI O'ZGARUVCHAN SARF O'LCHAGICHLAR

Bu sarf o'lchagichlarning ishlash usuli quvurda moddaning oqim yo'llida o'matilgan qandaydir toraytirish qurilmasi yordamida hosil qilinadigan bosimlar farqini o'lchashga asoslangan bo'lib, suyuqliklar, gazlar (bug'lар) ning sarfini o'lchash vositasi sifatida keng tarqalgan. Toraytirgichlar sifatida asosan standart diafragmalar, soplolar hamda boshqa soplolari ishlataladi.

Oqib o'tayotgan sarf miqdori bosimlar farqi va moddaning oqim tezligiga to'g'ri proporsionaldir. Suyuqlikning sarfi Q (m^3/s larda) va bosimlar farqi ΔP (Pa) orasidagi munosabat quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$Q = \alpha \cdot \varepsilon \cdot F_0 \sqrt{\left(\frac{2}{\rho}\right) \Delta P} \quad (5.1)$$

bu yerda: α - toraytirish qurilmasining geometrik ko'rinishi va o'lchanayotgan muhitning fizik holatiga bog'liq bo'lgan sarf koeffitsiyenti;
 ε -toraytirish qurilmasidan e'tishda o'lchanayotgan muhitning siqilishini hisobga oladigan tuzatuvchi

κ - koeffitsiyent (suyuqliklar uchun $\kappa = 1$);


F - toraytirish qurilmasining o'tish yuzasining kesimi, m^2 ;

ρ - o'lchanayotgan moddaning zichligi, kg/m^3 ;

ΔP - besinlar farqi, Pa.

Toraytirish qurilmasi sarf o'lchagichning birlamchi o'zgartgichi hisoblanib, buning tashqari uning komplektiga ulash tizimlari (impuls trubkalari), qoshimcha qurilmalar (ajratish idishlari, kondensatsion idishlar) va o'lhash asbobi (differensial menemetr) kiradi.

S.1. - a rasmida toraytirish qurilmasining quvurda o'matish sxemasi, oqimning undan o'tishi va oqim yo'nalishi bo'yicha statik bosimning taqsimlanish egri ohizig'i keltirilgan. D diametrga ega bo'lgan qurvuring 1-1 kesimidan oqimning toraytishi boshilanib, diafragma oldida inersiya kuchining ta'siri diafragmadan keyingiga qaraganda katta bo'ladi. Shundan so'ng oqim qurvuring to'liq kesimi bo'yicha kengayadi. Diafragma oldida va undan so'ng uyurma maydoni hosil bo'llib, diafragma oldidagiga nisbatan diafragmadan keyingi soha katta bo'ladi. Quvur devorlari yonida oqimning bosimi diafragma oldida hosil bo'lgan ta'sir natijasida P_1 , gacha o'sadi, diafragmadan keyingi eng qisqa kesim 2-2 ga, bosim esa P_2 gacha kengayadi. Oqimning 2-2 kesim yuzasi diafragmaning aylanasidan ham kichik. Shundan so'ng oqimning kenayishiga qarab quvur devorlari yonida bosim osha boshlaydi. Ammo dastlabki qiymatidan P (yo'q.) ga farq qiladi. Bu esa ishqalanish va uyunnali maydon hosil bo'lish sababi yo'qotilgan asosiy energiya hisoblanadi.



S.1.- rasm. Toraytirish qurilmasi (diafragma).

Sarf koeffitsiyentining qiymati barcha qurilmalar uchun tajriba yo'lli bilan aniqlangan bo'llib, ularni dastlabki darajalashsiz qo'llash mumkin.


Standart diafragmalar (normal) konsentrifik teshikka ega bo'lgan yupqa metall disk 2 dan iborat bo'llib, uning kirish qismi o'tkir qirrali silindr shaklida, so'ng esa 30-45° burchak ostida konus ko'rinishida yo'naladi. Normal diafragmaning qalinligi 0,1 D (qurvuring diametri), aylananan silindr shaklidagi qismining uzunligi esa 0,02 D ga teng. Normal diafragmalar kamerali (S.1. - b rasm, o'qdan yuqorida) va kamerasiz bo'ladi (S.2. - b rasm, o'qdan pastda).

Kamerali diafragmalarda bosim ikkita tenglashtiruvchi aylana kameralar / yordamida olinadi. Kameralar korpusda disk oldida, undan keyin esa quvurning ichki yuzasi bilan tutashgan aylana ariqchalar joylashgan. Aylana shaklidagi kameralar quvur aylanasi bo'yicha bosimning o'rtacha qiymatini olishga imkon yaratib, bosimlar farqini aniqroq o'lchashni ta'minlaydi. Kamerasiz diafragmalarda esa bosim diafragma korpusida yoki disk eldida va orqasida joylashtirilgan quvurning flaneslaridagi ikkita teshik 3 yordamida olinadi. Normal diafragmalar $0,05 \leq (d/D) \leq 0,7$ shart bajarilganda diametri 50 mm dan kichik bo'limgan quvurlarda ishlatalidi.

Diafragmalar zanglamaydigan po'latdan tayyorlanadi. Diskning yon yuzasiga uning zavodda qo'yilgan raqami, diafragma teshigining diametri (mm larda) quvurning ichki diametri (mm larda), oqim yo'nalishini ko'rsatadigan ko'rsatgich, kirish tomonidan (+) belgisi va chiqish tomonidan (-) belgisi yozilgan bo'ladi.

BOSIMLAR FARQI O'ZGARMAS SARF O'LCHAGICHALAR (ROTOMETRLAR)

Bu asbobning ishslash usuli harakatlanuvchi qalqovich massasi bilan asbobning oqim o'tish teshigida bosimlar farqi natijasida yuzaga keladigan kuch o'zaro muvozanatlashishiga asoslangan. Bunda o'tish teshigining yuzasi sarf qiymatiga qarab o'zgaradi, bosimlar farqi esa doimiy bo'ladi (o'zgarnaydi).



5.2.- rasm. Bosimlar farqi o'zgarmas sarf o'lchagich (rotometr).

a) qalqovichli rotometr sxemasi; b) shisha trubkali rotometr sxemasi.

Rotometrning (bosimlar farqi o'zgarmas sarf o'lchagich) sxemasi 5.2-rasmda keltirilgan. Asbobning o'lchanayotgan qismi ichida qalqovich yoki porshen 2 joylahtirilgan vertical shisha trubka 1 dan iborat. Trubka orqali o'tayotgan o'lchanayotgan moddaning oqimi (suyuqlik yoki gaz) qalqovichni ko'taradi. Qachonki trubka devorlari bilan qalqovich jismi orasidagi oraliq masofa ma'lum o'lchanma etganda, qalqovichga ta'sir etuvchi kuchlar o'zaro tenglashadi. Qalqovich esa sarf kattaligiga mos keladigan ma'lum balandlikda to'xtaydi.

Oqimda qo'yilgan qalqovichga o'lchanayotgan mahsulotning itarish kuchi F (N) ta'sir etib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_1 = V_q (\gamma_q - \gamma_s) \quad (5.2.)$$

bu yerda: V_q - qalqovichning hajmi, m^3 ;
 γ_q, γ_s -qalqovich tayyorlangan material va

o'lchanayotgan mahsulotning solishtirma og'irligi
 (N/m^3) :

F_1 kuchga qarama-qarshi yo'nalgan, oqim harakatidan F_2 kuch yuzaga keladi:

$$F_2 = S_q \cdot b \Delta P \quad (5.3)$$

bu yerda: S_q - qalqovichning istalgan joyidagi kesim yuzi, m^2 ;
 ΔP - bosimlar farqi.

Muhitning o'zgarmas oqimiga mos bo'lgan qalqovichning muvozanat holati F_1 , va F_2 kuchlar o'zaro teng, ya'ni $F_1 = F_2 = \text{const}$ bo'lganda ta'minlanadi (bu holda ishqalanish kuchi hisobga olinmaydi). Demak, qalqovichning istalgan joyining kesim yuzi o'zgarmas ekan, unda bosimlar farqi ham doimiy bo'ladi. Shuning uchun ham rotometrlar bosimlar farqi o'zgarmas sarf o'lchagichlar deb nom olgan.

Sarf o'lchagich orqali oqib o'tayotgan mahsulotning sarfi Q (m^3/s) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q = \alpha (S_T - S_q) \sqrt{(2/\rho) \Delta P} \quad (5.4)$$

bu yerda: α - mahsulotning sarf koefitsiyenti;

S_T - qalqovich ko'tarilgan ma'lum balandlikka to'g'ri

keladigan trubkaning ko'ndalang kesim yuzi, m^2 ;

ρ - o'lchanayotgan moddaning zichligi, kg/m^3 .

Formuladan ko'rinib turibdiki, S_T dan boshqa barcha kattaliklarning o'zgarmas qiymatlarida sarf qalqovichning ko'tarilish balandligi bo'yicha aniqlanadi. Oddiy (shishali) rotometrlarda bu balandlik qalqovichni yuqorigi tekisligi holatiga ko'z bilan qarab o'rnatiladi. Hisoblash uchun esa trubkaning tashqi yuzasida hajm birliklari darajalangan shkala mavjud. Rotometrlar yordamida aggressiv va aggressiv bo'llagan suyuqlik va gazlarning kichik sarsini o'lchash mumkin. Ular yuqori o'lchash chegarasiga ega. Rotometrning butun shkalasi bo'yicha nisbiy xatolik kattaligi doimiydir.


Asosan 2 turdag'i rotometrlar ishlab chiqariladi: shishali ko'rsatuvchi va ko'rsatishni masofaga ikkilamchi asbobga uzatuvchi (elektrik, pnevmatik signallarni ko'rsatuvchi va ko'rsatmaydigan ikkilamchi asbobga uzatiladi).

Ko'rsatishni masofaga uzatuvchi rotometrlar

Ko'rsatishlarni masofaga elektr differensial – transformator orqali uzatiladigan rotometrning principial sxemasi 5.3. – rasmida keltirilgan. Rotometring o'lhash qismini diafragmali 2 silindrik metall korpus 1 dan iborat.

Diafragma 2 teshigida shtok 4 ga qattiq o'matilgan konussimon qalqovich 3 harakat qiladi. Shtokning ustki qismida differensial-transformatorli o'zgartgichning o'zagi 5 o'rnatilgan. O'zak trubka 6 ichida joylashtirilgan. Trubka tashqarisida esa o'zgartgichning g'altagi 7 mavjud.

Differensial – transformatorning temir o'zagi 5 rotometri qalqovichidagi shtok 4 bilan mehanik bog'langan.




5.3. -rasm. Ko'rsatishlarni masofaga elektr differensial-transformator orqali signal uzatadigan rotometring printsipial sxemasi.

Sarf o'zgarishi bilan qalqovich shtok orqali temir o'zakni suradi. Natijada transformatorning ikkinchi cho'lg'amidagi EYUK ham o'zgaradi. Temir o'zak yuqoriga siljisa, EYUK oshadi, pastga siljisa kamayadi. Transformator bilan o'tkazgich orqali ulangan ikkilamchi asbobning shkalasi sarf o'lchov birligida darajalanigan bo'ladi.

INDUKTSION SARF O'LCHAGICHLAR

Induktsion sarf o'lchagichlarning ishlash usuli tashqi magnit maydoni ta'sirida elektr o'tkazuvchi suyuqlik oqimining induksiyalanishi natijasida hosil bo'lgan EYUK ni o'lhashga asoslangan. 5.4. – rasmida induksion sarf o'lchagichlarning sxemasi keltirilgan. Nomagnit materialdan tayyorlangan quvur 1 dan oqib o'tayotgan suyuqlik elektromagnit 2 tomonidan yuzaga kelgan magnit maydon kuch chiziglarini kesib o'tadi. Magnit maydon ta'sirida suyuqlik oqimining o'rtacha tezligiga proporsional ravishda elektr yurituvchi kuch hosil bo'ladi. Bu yerda suyuqlik oqayotgan quvurning kesimi o'zgarmaydi (doimiy bo'ladi).

Induktsiyalangan EYUK quvurming bir xil yo'nalishdagi ko'ndalang kesimida ornatilgan elektrodlar yordamida qabul qilinadi, EYUK kattaligi kuchaytirilib, ikkilamichi asbob yordanvida o'lchanadi. Sarf o'lchagichda ADS (absoblar davlat sistemasi) dagi har qanday bloklarni o'lhash imkoniyatiga ega bo'lib, chiqish signali 0-5 mA tok kuchiga va 0,02-0,1 MPa ga teng bo'lgan sifilgan havo bilan ishlaydi.



5.4.- rasm. Induksion sarf o'lchagich.

Induksion sarf o'lchagichlar bir qator qulayliklarga ega. Sezgir elementning o'lchanayotgan mahsulot bilan kontaktida bo'lmasligi uni mahsulot bilan yuzaga keladigan kimyoviy o'zgarishlardan saqlaydi. Bu esa Kimyo va oziq-ovqat sanotida muhim anamiyatga ega. Asbob inersiyasiz hisoblanib, uni avtomatik rostlash sistemalurida qo'llash foydalidir. Asbobning ko'rsatishi suyuqlikning zichligiga, qovushoqligiga va oqimning xarakteriga (turg'un, turg'un bo'limgan) bog'liq emas.

Induksion sarf o'lchagichlar bir qancha kimyo va oziq-ovqat mahsulotlarining sarfini o'lhash uchun qo'llaniladi.


Sarf o'lchagichlari ichki diametri 3 dan 1000 mm gacha bo'lgan quvurlarda 1-2500 m³ soat sarflarni o'lhashni ta'minlaydi, xatoligi 5 % dan oshmaydi.

Suyuqlik va gazsimon moddalar miqdorini o'lhash uchun ishlatiladigan hisoblagichlar ishlash usuliga ko'ra tezlik, hajm va vazn hisoblagichlariga bo'linadi. Ishlab chiqarishda ko'proq tezlik va hajm hisoblagichlari ishlatiadi. Gazlar miqdorini o'lhashda esa hajmiy usuldan foydalilanadi.

5.2. MODDALAR MIQDORINI O'LHASH ASBOBLARI TEZLIK SCHETCHIKLARI

Bu asboblarning ishlash usuli spiralsimon parrakka yoki boshqa o'lhash elementiga ta'sir ko'rsatadigan harakatdagi oqimning o'rtacha tezligini o'lhashga asoslangan. Aylanish qismining shakliga ko'ra hisoblagichlar vintli va parraklilarga bo'linadi. Birinchisi o'lchanayotgan oqimga parallel holda, ikkinchisi esa unga

perpendikulyar holatda joylashtiriladi. Parrakning aylanishlar soni oqimning o'rtacha tezligiga, ya'nii oqib o'tayotgan suyuqlik yoki gazning sarsiga proporsionaldir. Spiralsimon parrakli tezlik hisoblagichning principial sxemasi 5.5-rasmida keltirilgan bo'lib, u asbobning korpusi 10 ichiga joylashtirilgan spiralsimon parrakdan iborat. Parrakning o'qiga krestovina 7 ga qotirilgan orqa podshipnik 6 oldidan chervyak 8 o'tkazilgan. Chervyak bilan bog'lanadigan chervyakli valqa aylanishni uzatuvchi mexanizm 3 ga uzatadi. Bu mexanizm aylanishni o'q bilan bog'langan salnik 4 orqali o'tuvchi ko'rsatish mexanizmi 5 ga uzatadi.



5.5- rasm. Spiralsimon parrakli tezlik hisoblagichi.

Asbob katta ko'rsatgichining shkalasi bo'linmalar oralig'i $0,001 \text{ m}^3$ bo'lgan 100 qismga, kichkina ko'rsatgichlar shkalasi esa bo'linmalar oralig'i 0,1; 10; 100; 1000 m^3 bo'lgan 10 qismga bo'lingan. Suyuqlik kirish tomonidan aylanish qismi oldidan oqim yo'nalishini to'g'rilagich 2 o'matilgan.

Vertikal o'q atrofida parrak 12 aylanib, richagli uzatma 11 orqali hisoblagichni rostlash uchun xizmat qiladi. Parrakning oldingi podshipnigi 1 oqim to'g'rilagich ichiga joylashtirilgan. Soatiga 600 m^3 gacha suvni o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan spiralsimon parrakli hisoblagichlar tayyorlanadi. O'tayotgan sarf miqdoriga qarab asbobning xatoligi 2-3 % ni tashkil qiladi. Asbob asosan quvurlarning horizontal qismlarida o'rnatiladi. Tinch oqim harakatini ta'minlash uchun hisoblagich oldidan quvurning to'g'ri qismida 8-10 D uzunlikda, hisoblagichdan keyin esa 5 D dan kam bo'lмаган uzunlikda masofa qoldiriladi (D - quvurning ichki diametri).

HAJM HISOBLAGICHLARI


Hajm hisoblagichlarining ishlash usuli moddaning muayyan hajmini o'lhash kamerasidan bosimlar farqi ta'sirida chiqarilishiga asoslangan. Ular asosan toza mexanikaviy aralashmalsiz bo'lgan suyuqlik va gazlar miqdorini o'lhashga mo'ljallangan.

Ovalsimon shestemyali, cho'michli hisoblagichlar, porshenli, diskali va rotatsion hisoblagichlar hajm hisoblagichlari turiga kiradi.

Ovalsimon shestemyali suyuqlik hisoblagichlari Kimyo va oziq-ovqat sanoatida keng qo'llaniladi. Bu asboblarda o'lhash kamerasi 2 orqali oqib o'tayotgan suyuqlik ovalsimon shestemyalar 5 va 4 ni aylanma harakatga keltiradi (5.6- rasm). Ovalsimon shestemyalar esa o'z navbatida moddaning ma'lum hajmga ega bo'lgan qismini o'lhash kamerasi devori / oralig'ida ajratib oladi. Shestemyalar bir marta to'liq aylanganda, hisoblagich o'lhash kamerasining bo'sh hajmi yuzasi yig'indisiga teng miqdorda suyuqlikni ajratib oladi.

Hisoblagich orgali o'tayotgan suyuqlik miqdori hisoblash mexanizmi bilan bog'langan shestemyaning aylanishlar soni bilan aniqlanadi. Sanoatda 0,8 dan 36 m³ soat chegarada o'lhashni ta'minlaydigan hisoblagichlar ishlab chiqariladi. Sharhl o'tish diametri 15-80 mm; o'lhash aniqligi 0,5 %.

Katta hajmdagi gaz miqdorini o'lhash uchun rotatsion hisoblagichlar qo'llaniladi.



5.6- rasm. Ovalsimon shestemyali hajm hisoblagichlari.

AVTOMAT TAROZILAR VA DOZATORLAR


Ag'darma cho'michli avtomatik tarozi

Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalarida tayyor mahsulotlarni, yordamchi materiallarni va xom-ashyolarni hisobga olish uchun avtomat tarozi keng qo'llaniladi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi sanoatida uzluksiz (konveyerli) va uzlukli (porsiyali) ishlaydigan avtomat tarozi ishlab chiqariladi.

Ag'darma cho'michli avtoinatik tarozining prinsipial sxemasi 5.7-rasmida ko'rsatilgan. Keng yelkali posongi 1 ning bir yelkasiga osma 3 orqali cho'mich 4 o'matilgan, ikkinchi yelkasiga esa tarozi toshi 3 qo'yilgan tosh ushlagich 5 osilgan.

Cho'mich bo'sh turgan paytda og'irlik markazi 5 cho'michning orqa tarafidagi posangi 6 ta'sirida osma nuqtaning o'ng tarafida turadi, cho'mich osma nuqta atrosida aylanishga intiladi, bunga tayanch 7 to'sqinlik qiladi. To'ladirilgan cho'michning og'irlik markazi 8 holatiga keladi, ya'ni osma nuqtasining chap tarafiga o'tadi. To'la cho'michning aylanishiga cho'michning tashqarisidan yon devoriga ishlangan va osma 3 bilan sharnir orqali bog'langan hamda lo'kidon 9 ga tayangan prizma 8 to'sqinlik qiladi. Cho'mich ta'minlovchi voronka 10 orqali to'ladiriladi. Voronkaning chiqish teshigi to'siq // bilan berkiladi.

Cho'mich to'lib, muvozanat o'rnatilganda, tosh ushlagich tepaga ko'tarilib richaglar yordamida (rasmida ko'rsatilmagan) to'siq 11 ni berkitadi. Tortilayotgan materialning tarozi pallasiga kelishi tugatilgandan so'ng, to'la cho'mich inersiyaga muvofiq pastga harakatini davom ettiradi. Cho'mich pastga tushganida lo'kidon 9 harakatsiz tayanch 12 bilan uchrashadi, ko'tarilishda esa u prizma 8 dan chiqib ketadi. To'siqdan ozod bo'lgan cho'mich saat strelkasi yo'nalishiga qarshi aylanadi, cho'michdagi materialning og'irligi va bosimi ta'sirida eshikcha 13 oqilib, cho'michdagi material to'kiladi. Tosh ushlagichning pastki qismida skoba 14 o'rnatilgan, skoba harakatsiz tayanch 15 ta'sirida cho'mich harakatini cheklaydi. Cho'michning bo'shashi paytida toshlar pastga tushib, cho'mich ko'tariladi. Cho'mich batamom bo'shaganida, og'irlik markazi osma nuqtasiga nisbatan o'ngga o'tishi tufayli, cho'mich saat strelkasi yo'nalishi bo'yicha aylanadi va boshlang'ich holatiga keladi. Cho'michning aylanishi bilan birga to'siq // ochiladi va cho'mich yana to'ladiriladi. Bunday tarozilarning xatosi 5 - 1 %. Ularning hajmi turlicha bo'ladi.




5.7- rasm. Ag'darma cho'michli avtomatik tarozining principial sxemasi.

Osti ochiladigan cho'michli avtomat tarozilar

Bu tarozilarda kovshdan boshqa barcha asosiy elementlarining ishlashi yuqorida ko'rib chiqilgan ag'darma cho'michli avtomat tarozi bilan bir xil. Cho'michning ishlashi bir muncha boshqacha (5.8-rasm).

Cho'michning ochi'sadigan osti o'q atrofida aylanadi va cho'mich korpusida o'rnatilgan o'qda joylashgan uchli qirra (sobachka) bilan ilinadigan ilgakka ega. Keng yelkali posangi muvozanatlashganda va cho'mich mahsulot bilan to'ldirilganda so'ng, u o'z in'siyasi bilan pastga qarab harakatlanadi, uchli qirra esa soat streklasi o'o'yicha aylanib, tayanchgacha itariladi va ilgak bo'shatiladi. Bu paytda cho'mich osti ochiladi va material to'kiladi. Qachonki cho'mich to'liq bo'shatilsa, uning osti unga qarshi qo'yilgan yuk ta'sirida berkitiladi va ilgak uchli qirra bilan ilinadi.



5.8-rasm. Osti ochiladigan cho'michli avtomat tarozi.

TAROZI DOZATORLAR


Boshqarish va rostlash tizimlarida sochiluvchan moddalar yoki suyuqliklarning berilgan sarfini saqlash uchun, shuningdek, bu mahsulotlarning belgilangan dozasini berish uchun mo'ljallangan mashina yoki qurilmalar *tarozi dozatorlar* deyiladi.

Tarozi dozatorlar ikkita asosiy guruhga bo'linadi: uzlukli va uzuksiz harakatlanadigan dozatorlar.

Uzlukli harakatlanadigan tarozi dozatorlarida dozalash belgilangan takrorlanadigan vaqt (sikl) ichida amalga oshiriladi. Eng ko'p tarqalgan bu turda asboblarga sochiluvchan yoki suyuq mahsulotlarni teng miqdorda idishlarga joylashtiruvchi tarozi dozatorlar misol bo'ladi.

Uzuksiz ishlaydigan tarozi dozatorlar esa to'lig ish davomida berilgan sarfni uzuksiz avtomatik ravishda saqlab turishni ta'minlaydi. Dozatorlarning bu turi elektrik yoki pnevmatik avtomatik rostlagichlar yordamida sarfni yopiq avtomatik rostlash sistemasi bilan ta'minlangan.

Kimyo va oziq-ovqat sanoatida uzuksiz ishlaydigan lentali tarozi dozatorlar eng ko'p tarqalgan (5.9-rasm).



5.9 – rasm. Uzluksiz ishlaydigan lentali tarozi - dozator

Mahsulot oqimi 4 yuk qabul qiluvchi konveyer 1 ga tushadi va massa o'lchov o'zgartigichi 2 hamda o'lchov o'zgartigichi 5 yordamida to'xtovsiz o'lchanadi. O'lchash to'g'risidagi signal esa bu o'zgartigichlardan sarf integratori 3 ga beriladi. Bunday dozatorlarning ishlash usuli yuk qabul qiluvchi konveyerde mahsulot sərfi $Q(t)$ ni vaqt (t) funksiyasi hisoblangan og'irlik kuchi $P(t)$ ga aylantirishga asoslangan. Turg'unlashuvchi rejimda dozatorning ish unumдорligi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = C \cdot q \cdot V_k \quad (6.1)$$

bu yerda: C – yuk qabul qiluvchi qurilma turiga bog'liq bo'lgan

koeffitsiyent;

q - yuk qabul qiluvchi konveyerga tushadigan yuklanish,

kg/m.

V_k – konveyering harakat tezligi, m/s.

Asbobsozlik sanoatida yuqori anqlikni ta'minlaydigan har ko'rinishdagi tarozilar, avtomatik tarozi dozatorlari o'lchash va dozirovka qilish uchun ishlab chiqariladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sarf deb nimaga aytildi?
2. Miqdor deb nimaga aytildi?
3. Sarf qanday birliklarda o'lchanadi?
4. Toraytirgich sifatida nimalardan foydalilanadi?
5. Hisoblagichlar qanday turlarga bo'linadi?
6. Sochiluvchan moddalarning sathi qanday asboblar yordamida o'lchanadi?
7. Induksion sarf o'lchagichlarning ishlash usuli nimaga asoslangan?
8. Rotometrlarning ishlash prinsipi nimaga asoslangan?
9. Induksion sarf o'lchagichni ishlash prinsipi nimega asoslangan?
10. Tarozilarning qanaqa turlarini bilasiz?

VI-bob. MODDANING XOSSASI VA TARKIBINI O'LCHASH

Kimyo va oziq - ovqat mahsulotlarini qayta ishlab, ulami tayyor mahsulotga aylantirish jarayonida qayta ishlanayotgan moddaning fizik-kimyoviy holati va tarkibi ko'p marta o'zgaradi. Bu mahsulotlarning holati va tarkibini xarakterlovchi kattaliklarni o'lchash borayotgan jarayon rejimi haqida bevosita fikr yuritishga imkon beradi, chunki bu kattaliklar olingen mahsulot sifatini aniqlaydi. Shuning uchun bu kattaliklarni nazorat qilish kimyo sanoatida texnologik jarayonlarni boshqaruvchi istalgan tizimning zaruriy elementi hisoblanadi.

6.1. NAMLIKNI O'LCHASH ASBOBLARI

Gaz (bug') namligining miqdori absolyut va nisbiy namliklar bilan xarakterlanadi. Absolyut namlikning o'lchov birligi kg/m^3 , g/m^3 .


Nisbiy namlik — absolyut namlikning berilgan modda birlik hajmidagi (berilgan temperaturada) mumkin bo'lgan suv massasiga nisbatidir. Bundan ko'rindaniki, nisbiy namlik to'yinish darajasini aniqlaydi. Odatda, nisbiy namlik protsentlarda ifodalenadi. Namlikni o'lchash uchun mo'ljallangan asboblar namlik o'lchagichlar deyiladi. Namlik o'lchagichlarning ishlashi turli usullarga asoslangan: psixometrik, gigrometrik, elektrik, shudring nuqtasi, kimyoviy va boshqalar. Foydalilanidigan usullariga ko'ra asboblar ham turlicha bo'ladi: psixometrlar, gigrometrlar, namlik o'lchagichlar (elektrik, tarozili va boshqalar). Avtomatlashtirish sxemalarida esa psixometrlar, elektr namlik o'lchagichlar (konduktometrik, sig'imli) ko'p qo'llaniladi.

Psixometrlar

Bu asboblarning ishlashi psixometrik effektdan foydalanishga, ya'nii namlik bug'lanish tezligining atrof-muhit namligiga bog'liqligiga asoslangan.

Psixometr (6.1.- a rasm) ikkita - quruq 7 va namlangan 2 termometrdan iborat. Quruq termometr bo'shliqda (havoda) joylashgan, ho'llangan termometrning sezgir qismi yupqa material 4 bilan o'ralgan bo'lib, uning bir uchi suvli maxsus idish 5 ga botirilgan. Termometrlar asos 3 ga qotirilgan.

Namlangan termometr yuzasidan namlik ko'tarilishi natijasida uning temperaturasi pasayadi. Buning natijasida termometrlarning turli xil ko'rsatishi temperaturalar farqini, ya'nii psixometrik farqni beradi. Bu farqdan esa maxsus jadval yoki nomogramma yordamida nisbiy namlik aniqlanadi (6.1.- b rasm).



6.1.- rasm. a - simobli psixrometr, b - namlukni aniqlash nomogrammasi.


Nisbiy namluk (% larda) psixrometrik farqqa bog'liq bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$\varphi = [P_n - A(t_k - t_n)]/P_k \quad (6.1)$$

bu yerda: P_n - bug'larning elastikligi (partsial bosim), namlangan termometring t_n temperaturasida tekshirilayotgan mahsulotni to'yintiruvchi, Pa;

A - psixrometrning tuzilishiga bog'liq bo'lgan psixrometrik koefitsiyent, namlangan termometri gaz (havo) bilan puflash tezligi va gaz (havo) ning bosimi;


P_k - bug'larning elastikligi (partsial bosim), quruq termometring t_k temperaturasida tekshirilayotgan mahsulotni to'yintiruvchi, Pa.



6.2.- rasm. Avtomatik elektron psixrometri qurilmasi.

Saroatda gaz va havoning nisbiy narligini uzuksiz o'lchash, qayd etish va rostlash uchun mo'ljallangan avtomatik elektron psixrometrlar ishlab chiqariladi. Psixrometri birlumchi o'zgartgich (datchik DVP) 1, havoni tortib oluvchi qurilma 2, birlamchi o'zgartgichga suv yeikazib berish uchun mo'ljallangan idish 3 va ikililamchi astlob 4 dan iborat (6.2.- rasm).

Avtomatik psixrometrning principial elektr sxemasi 6.3.- rasmida keltirilgan. Asbobning o'lci ash sxemasi ikkita ko'priklar I va II (manba o'zgaruvchan tok bilan), elektron kuchay'rigich EK, reversiv (ikki tomoniga harakatlanaadigan) dvigatel RD dan tuzilgan. Ko'priklar ikkita umumiy yelka R_1 va R_2 ga ega, bundan tashqari I ko'priklar R_3 yelkaga, II ko'priklar R_4 yelkaga ega. Quruq qarshilik termometri qarshilik R_1 I ko'priknинг yelkasiga, namlangan qarshilik termometri R_2 esa II ko'priknинг yelkasiga ulungan. I ko'priknинг A va V diagonallar uchlaridagi potentsiallars farqi quruq qarshilik termometrining temperaturasiga proportional, II ko'priknинг A va S diagonallar uchlaridagi farq esa namlangan qarshilik termometrinining temperaturasiga to'g'i proportional.



6.3.- rasm. Avtomatik psixrometrning elektr sxemasi.

Ikkala ko'priklar diagonalining V va S nuqtalari orasida kuchlanishning kamayishi quruq va namlangan qarshilik termometrlari temperaturalarining farqiga proportionaldir. O'lchash sxemasining muvozanat holati reversiv dvigatel RD orqali harakatga keltiriladigan reoxord R_f ning surgichi holatini avtomatik ravishda o'zgartirish bilan o'matiladi. Shu bilan bir paytda dvigatel asbob ko'isatgichini harakatlantiradi. Shunday qilib, V va S nuqtalar orasida kuchlanish kamayishining kattaligi ma'lum psixrometrik farqqa to'g'ri keladi. Bu kuchlanishning kamayishi reversiv dvigatelnining kirishiga o'matilgan elektron kuchaytirgich EK da kuchaytiriladi.

Namlik o'lchagichlar turli xil mahsulotlarning namligini o'lchaydi. Masalan, havoning nisbiy namligini o'lchash uchun ko'p nuqtali BB4 rusumdagи namlik o'lchagich, suyuq va sochiluvchan moddalarning namligini o'lchash uchun esa sig'imli avtomatik namlik o'lchagichlar ishlataladi.

6.2. SUYUQLIKLARNING ZICHLIGINI O'LCHASH ASBOBLARI

Suyuqliklarning holatini, ko'p hollarda tarkibini tavsiflovchi fizik kattaliklardan biri ularning zichligi hisoblanadi. Kimyo sanoatining barcha tarmoqlarida shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlariда zichlikni o'lchash asosiy o'rın egallaydi. Shuning uchun ham zichlikni avtomatik o'lchash sanoatda ko'pchilik jarayonlarni avtomatlashirishda muhim o'rın egallaydi.

Modda massasining birlik hajmga bo'lgan nisbatiga *zichlik* дейилади, ya'ni

$$\rho = m/V \quad (6.2)$$

bu yerda: ρ - tarkibi bir xil bo'lgan moddaning zichligi yoki tarkibi

turlicha bo'lgan moddaning o'rtacha zichligi, kg/m^3 ;

m - moddaning massasi, kg ;

V - moddaning hajmi, m^3 .

Suyuqlik zichligining temperaturaga bog'liqligi normal (20°C) temperaturada quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\rho_{20} = \rho_t [1 + \beta(t - t_0)] \quad (6.3)$$

bu yerda: ρ_t - ishchi temperaturadagi suyuqlik zichligi, kg/m^3 ;

β - suyuqlik hajmiy issiqlik kengayishining o'rtacha koefitsiyenti, 1°S ;

t - normal temperatura, $^\circ\text{C}$;

t_0 - suyuqlikning ishchi temperaturasi, $^\circ\text{C}$.

Ishlash usuliga ko'ra turli xil suyuqliklarning zichligini o'lchashda keng tarqalgan asboblar asosan quyidagilardan iborat:


- mexanik;
- radioizotoplji;
- akustik (tovush to'lqinlari yordamida)

Mexanik zichlik o'lchagichlar

Mexanik zichlik o'lchagichlarda asbobdan, ya'ni sczgir elementdan chiqadigan o'lchash signalining qiymati tekshirilayotgan suyuqlikning molekulyar-mexanik xususiyatiga yoki sodir bo'ladigan mexanik-molekulyar o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi. Mexanik zichlik o'lchagichlar suyuqliklarning zichligini o'lchashda eng ko'p

o'tayotgan suyuqlik zichligini o'lchashda qalqovichda hosil bo'ladigan itaruvchi kuchni muvozanatlashtiruvchi kuch hosil qilinadi.

Bundan tashqari tortsion trubka 4 differential - transformatorli o'zgartgich 5 ning o'zagi bilan bog'langan bo'lib, unga to'g'ri keladigan o'lchash asbobi ulanadi. Ulash kamerasi davriy ravishda asosning ostki qismida o'tmatilgan to'kish jo'mragi orqali tozalanadi.



6.5.-rasm. Qalqovichli zichlik o'lchagichning struktura sxemasi.

Gidrostatik zichlik o'lchagichlar

Gidrostatik zichlik o'lchagichlarning tuzilishi oddiyligi va tekshirilayotgan suyuqlikka tushirilgan o'lchov o'zgartgichlarda qo'zg'aluvchan qismlarning yo'qligi ularning sanoga keng qo'llanilishiga olib keldi. Ularning ishlashi suyuqlik sirtiga nisbatan H chuqurlikdagi P bosimni o'lchashga asoslangan:

$$P = \rho \cdot g \cdot H \quad (6.4)$$


bu yerda: ρ - suyuqlik zichligi, kg/m^3 ;

g - og'irlik kuchi tczlənishi, m/s^2 ;

H - suyuqlik ustunining balandligi, m.

Suyuqlik ustunining balandligi H o'zgarmas bo'lsa, P bosim suyuqlik zichligining o'lchovi bo'ladi. Gidrostatik zichlik o'lchagichlarda suyuqlik ustunining bosimi, odatda, suyuqlik orasidan inert gaz (havo) ni uzlusiz puflab o'lchanadi (6.6-rasm). Bu gazning bosimi suyuqlik ustuni bosimiga proportional.


Suyuqlik ustunining bosimini bu usulda o'lchash ko'rsatishlarni masofaga uzatish imkonini beradi. Puflanadigan inert gaz suyuqliknинг xususiyatlari ko'ra tanlanadi. Puflanadigan gazning sarfi katta bo'lmay, doimiy bo'lishi shart, chunki sarfning tebranishi o'lchovda qoshimcha xatolarga olib kelishi mumkin.



6.6.- rasm. P'ezometrik zichlik o'lchagichning printsipli sxemasi.

P'ezometrik zichlik o'lchagichlar asosan tuzli va boshqa eritmalarining zichligini o'lchashda keng qo'llaniladi. Ularning o'lchash chegarasi $1100-1200 \text{ kg/m}^3$ bo'lib, $1-2 \text{ kg/m}^3$ aniqlikka ega.

Ikkita idish 1 va 5 ga uchta barbataglii trubka 2,4,6 lar tushiriigan gidrostatik zichlik o'lchagich 6.7.- rasmida ko'rsatilgan. Bu trubkalar orqali suyuqlik ustuni balandligiga ta'sir etadigan siqilgan havo uncha katta bo'lмаган bosim ostida beriladi. Sezgir differentsiyal manometr 7 trubkalar 2 va 4 orasiga joylashtirilgan. Maxsus manbadan drossel 3 orqali (u orqali beriladigan havo rostlanadi) barbataglii trubkalarga havo uzatiladi.



6.7.- rasm. Gaz uzluksiz haydaladigan differenttsial gidrostatik zichlik o'lchagich sxemasi.

Idish 1 orqali tekshirilayotgan suyuqlik to'xtovsiz oqib o'tadi, idish 5 ga esa etalon suyuqlik solinadi. Siqilgan havo 2 va 4 trubkalar orqali ma'lum chuqurlikda tekshirilayotgan va etalon suyuqliklarga tushirilgan trubkalar 2 va 4 ga uzatiladi. Trubka 2 da hosil bo'ladigan P_1 , bosim tekshirilayotgan suyuqliknинг h_1 balandlikda hosil qiladigan hidrostatik qarshiligidan aniqlanadi:

$$P = \rho \cdot g \cdot h_1 \quad (6.5)$$

bu yerda: ρ - tekshirilayotgan suyuqlik zichligi, kg/m^3 ;

h_1 - trubkaning cho'kish chuqurligi, m.

Trubka 4 ga uzatilgan havo idish 5 ga qo'yilgan etalon suyuqlikdan o'tadi va h_2 , chuqurlikda tekshirilayotgan suyuqlikka tushirilgan trubka 6 ga tushadi. Shunday qilib, trubka 4 da hosil bo'lgan bosim etalon suyuqlik ustuni balandligi h_0 va tekshirilayotgan suyuqlik ustuni balandligi h_2 lar hidrostatik qarshililiklari yig'indisidan aniqlanadi, ya'ni

$$P_2 = (\rho_0 h_0 + \rho h_1)g \quad (6.6)$$

bu yerda: $\rho_0 = \text{const}$ - etalon suyuqlik zichligi, kg/m^3 .

Demak, difmanometr 7 yordamida o'chanadigan 2 va 4 trubkalardagi bosimlar farqi

$$\Delta P = (\rho h + \rho_0 h_0)g \quad (6.7)$$

ga teng bo'ladi, bu yerda: $h = h_1 - h_2$

Odatda etalon suyuqlikning zichligi tekshirilayotgan suyuqlik zichligiga yaqinroq qilib tanlanadi. Agar $h_0 = h$ bo'lsa, bosimlar farqi $\Delta R = 0$ bo'lib, tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi minimal bo'ladi. Agar tekshirilayotgan suyuqlikning zichligi maksimal bo'lsa, bosimlar farqi ham maksimal qiynatga ega bo'ladi.

Sanoalda $900-1800 \text{ kg/m}^3$ o'lhash diapazoniga, $\pm 4\%$ xatolikka ega bo'lgan hidrostatik zichlik o'chagichlar ishlab chiqariladi.

6.3. ERITMALAR KONSENTRATSIYASINI O'LHASH

Suyuqliklar tarkibini analiz qilish deyilganda ularning elementari, funktsional yoki molekulyar tarkibini aniq.lash tushuniladi. Tarkibni aniqlaydigan asboblar analizatorlar deb ataladi.


Muhitda faqat bitta komponentning miqdorini aniq.lash uchun mo'ljallangan analizatorlari ba'zan konsentratometrlar deb yuritiladi. Suyuqliklar konsentratsiyasini o'lhash uchun quyidagi o'lchov birliklari eng ko'p tarqalgan: mg/sm^3 ; g/sm^3 ; massasi yoki hajmi bo'yicha; %. Temperatura, bosim va shu kabi faktorlarning o'lhash natijalariga kuchli ta'sir etishi analistik o'lchashlarning o'ziga xos ususiyatlardan biridir. Bu faktorlar ayniqa o'lhash aniqligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun avtomatik analizatorlar, odatda, namunalar tanlab olish, ularni analizga tayyorlash, o'lhash sharoitlarini stabillash yoki tuzatishlarni avtomatik kiritish va hokazolar uchun qo'shimcha murakkab jixozlar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Analiz qilinadigan suyuqliklarning turli-tumanligi va ularning tarkibi hamda xossalaring keng chegarada bo'llishi analiz qilish usullari turliча bo'lgan avtomatik asboblar ishlab chiqarishni taqozo etadi. Asbobsozlik sanoati xilma-xil suyuqliklarni analiz qiluvchi turli avtomatik analizatorlar ishlab chiqaradi. Suyuqliklarni analiz kilishning sanoatda eng ko'p tarqalgan usullariga konduktometrik, potensiometrik, optik, titrometrik va radioizotopli usullar kiradi. Quyida sanoalda eng keng tarqalgan usullar va asboblar ko'rib chiqilgan.

Eritmalarni analiz qilishning konduktometrik usuli


Elektrolit eritmalarining konsentratsiyasini ularning elektr o'tkazuvchanligiga ko'ra o'lhash (konduktometrik) laboratoriya sharoitida ham, sanoat sharoitida avtomatik nazorat qilish uchun ham keng qo'llaniladi.

Konduktometrik konsentrermelarning ishlashi eritmalar elektr o'tkazivchanligining ular konsentratsiyasiga bog'liqligiga asoslangan Arrhenius nazariyasiga ko'ra elektrolitlar



6.9.- rasm. Konduktometrning ikki elektroqli o'lchash yacheykasi.

Konduktometrik o'lchashlar amaliyotida L/S nisbat o'lchash yacheykalarning tajribada aniqlanadigan konstantalari degan nom oldi. Buning uchun yacheyka etalon eritma bilan to'diriladi (bu eritma sifatida, odatda, kaliy xloridning eritmasidan foydalaniladi), yacheykaning qarshiligi o'lchanadi va quyidagi tenglamadan K ning kattaligi aniqlanadi:



6.10- rasm. To'rt elektroqli o'lchash yacheykasi bo'lgan konduktometrning sxemasi.

$$K = R\delta \quad (6.10.)$$

bu yerda:

R - elektroqlar orasidagi ulchangan qarshilik, Ω ;

δ - etalon eritmaning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi, Sm^{-1}cm .

Elektr o'tkazuvchanlikni o'lchashda sanoat chastotasi yoki chastotasi oshirilgan o'zgarmas tokdan ham, o'zgaruvchan tokdan, ham foydalananish mumkin.

Ikki elektroldi o'lchash yacheykasi bilan bir qatorda to'rtta elektrodi bor yacheykalardan ham foydalaniadi (6.10.-rasm). Tok eritmada ikki tashqi elektrodlar 1 va 4 orasida o'tadi, bu elektrodlar kuchlanish manbai U ga ulangan bo'ladi. Rezistor R ning chekllovchi qarshiliqi kattaligi tufayli yacheyka zanjiridagi tok kuchi, eritmaning qarshiliqi o'zgarishidan qat'iy nazar, o'zgarmasdan qoladi. Ikki ichki elektrod 2 va 3 potensiometr vazifasini bajaradi va eritmada kuchlanish tushuvini o'lchash uchun mo'ljalanganadi:

$$\Delta U_{2,3} = IR, \quad (6.11.)$$

Binobarin,

$$\Delta U_{2,3} = \frac{RI}{\delta} = K^1 / \delta \quad (6.12.)$$

$$K^1 = RI = \text{const} \quad (6.13.)$$

Shunday qilib, elektrodlar 2 va 3 orasidagi potensiallar farqi nazorat qilinayotgan eritmaning konsentratsiyasi bilan bir qiymatda aniqlanadi. O'lchanadigan kattalik $\Delta U_{2,3}$ muvozanatlovchi ko'priknинг a va b uchlari uchidagi potensiallar ayirmasi U_{ab} bilan taqqoslanadi. Agar $U_{ab} - \Delta U_{2,3}$ teng bo'lmasa, u holda elektron kuchaytirgich EK ning kirishiga muvozanatning buzilish signali $\Delta U_{2,3} = U_{ab} - \Delta U_{2,3}$ kiradi.

Muvozanat vaqtida $U_{ab} - \Delta U_{2,3}$ bo'ladi, bunda elektrodlar 2 va 3 zanjirida tok bo'lmaydi. O'lchashdagagi temperatura xatoliklarini avtomatik kompensaiyiyalashni muvozanatlovchi ko'priknинг yelkalaridan biriga ulangan metall qarshilik termometri R, bajaradi. Nazorat qilinayotgan eritinaning temperaturasi o'zgaranida R_t qarshilik ham o'zgaradi, buning natijasida potensiallar ayirmasi U_{ab} ham o'zgaradi. R, o'zgargandagi orttirma U_{ab} (Δt) nazorat qilinayotgan eritmaning temperaturasi o'zgarishi tufayli xosil bulgan orttirma $\Delta U_{2,3}$ (Δt) ga kattaligi jihatidan teng va ishorasi jixatidan qarama-qarshi bo'lishi kerak. Bu tenglikka kompensatsiyalovchi ko'priknинг paramcirlarini (R1, R2, R3) rezistorlarning qarshiliklarini hamda kuchlanish $U_{2,3}$ ni tanlash yo'lli bilan erishiladi.

Eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi temperaturaga juda bog'liq. Eritma temperaturasi 1°C ga ortsa, uning solishtirma elektr o'tkazuvchanligi 1,5-2% ga oshadi. Eritmalarning temperaturasi amalda juda keng chegaralarda o'zgaradi, shuning uchun konduktometrik konsentratorler temperatura o'zgarishining o'lchash natijalariga ta'sir qilishini bartaraf qiluvchi avtomatik kompensatorlarga cga bo'lishi kerak. Kimyo sanoatida avtomatik temperatura kompensatorlari eng ko'tarqalgan bo'lib, suyuqlikli kompensatorlar ularning turlaridan biridir.

Suyuqlikli kompensator parametrlari o'lchash yacheykasining parametrariga o'xshash elektrod datchikdan iboratdir. Kompensator elektr o'tkazuvchanlik

$$I_p = \frac{E_p}{R_p} = \frac{E_p x}{K_p} = \frac{\omega_1 U}{\omega_2 K_p} x \quad (6.15.)$$

bu yerda;

R_p - suyuqlik o'ramining qarshiligi;

K_p - past chastotali konduktometrik yachsykaning konstantasi; uning qiymati suyuqlik o'rami uzunliginng o'tkazuvchi kesimi yuzi nisbatiga teng bo'lib, odatda K_p , ning kattaligi tajriba yo'lli bilan topiladi;

x - eritmaning elektr o'tkazuvchanligi.

(6.15.) tenglamaning o'ng qisniidagi x kattaliklan boshqa hamma kapaliklar o'zgarmasdir. Shuning uchun tok kuchi I_p , nazorat qilinayotgan eritmaning konsentratsiyasiga teng bo'ladi.


Tok kuchi I_p , ikkinchi transformator Tp2 bilan o'lchanadi, suyuklik o'rami uning uchun birlamchi cho'lg'am b o'lib xizmat qiladi. O'lchash transformatori Tp2 ning ikkilanchi cho'lgamida hosil bo'ladigan EYuK E_{44} ning kattaligi konsentratsiyaga proporsional bo'ladi. Ko'pgina hollarda uni kompensatsion usulda o'lchanadi. Buning uchun transformator Tp2 ning qo'shimcha cho'lgami ω_2 dan foydalaniadi, bu transformatorning amper - o'ramlari soni eritmaning amper - o'ramlariga ko'ra hisoblanadi.

Kompensatsiya sharti:

$$I_p \omega_1 = I_p \omega_2 ; \quad (6.16.)$$

Kompensatsiyalovchi cho'lgam orqali o'tadigan tok kuchini o'lchash uchun reversiv dvigatel' PD dan foydalaniadi, u surilgich Rp ni siljitadi. Reoxord surilgichining va asbobning u bilan bog'langan strelkasining vaziyati nazorat qilinayotgan eritma konsentratsiyasiga proporsional bo'ladi. O'lchashdagi temperatura xatoliklarini kompensatsiyalash uchun qarshilik termometri R , mo'ljallangan, u ko'prik sxemasiga ulangan bo'lib, nazorat qilinayotgan eritma ichida turadi. Kontaktsiz past chastotali konduktometrlardan solishirma elektr o'tkazuvchanligi $1-10^{-4}$ Cm/cm chegarasida bo'lgan elektrolitlarning konsentratsiyasini nazorat qilishda foydalaniadi. KK seriyasidagi konduktometerlarda 10^{-7} dan 1 Cm/cm gacha bo'lgan elektr o'tkazuvchanlikni o'lchash KK-8 va KK-9 konduktometrlari bilan bajariladi.

Yugori chastotali konduktometrlarda analiz qilinayotgan eritmaning konsentratsiyasini o'lchash eritmaning unga bog'liq b o'lgan reaktiv qarshiligini nazorat qilish y o'lli bilan bajariladi.



6.12.-rasm. Kontaktsiz yuqori chastotali konduktometrning o'zgartikichlari:
a-sig'imli; b-induktivlikli.

Yuqori chastotali kontaktsiz konduktometrlarning birlamchi o'zgartikichlari o'lchanadigan reaktiv qarshilikning turiga qarab sig'imli va induktivli xillarga bo'linadi. Har ikki turdag'i o'zgartikichlarning sxemasi 6.12.-rasmida ko'rsatilgan. Eritmaning konsentratsiyasi bilan o'zgartikichlarning chiqish parametrlari S_x va L_x o'rtasida murakkab bog'liqlik mavjud bo'lganligi sababli (bu horliklikka eritmaning ta'biidan tashqari o'zgartikichning geometriyasi va materiali, ta'minlash chastotasi va boshqalar ta'sir qiladi) ularning darajalish xarakteristikalarini har qaysi konkret o'zgartikich va eritma uchun tajriba yo'lli bilan aniqlanadi.

Yuqori chastotali konduktometrlarniig olchash o'zgartikichlari sifatida yuqori chastotali generatorlardan ta'minlanadigan ko'priklari va rezonansli sxemalardan foydalilanildi. Rezonansli

sxemalarda rezonans konturining birlamchi o'zgartikich induktivli yoki sig'imli qarshiliklariga bog'liq bo'lgan xususiy tebranishlari o'lchanadi.

Analiz qilishning potensiometrik usuli

Potensiometrik usul muayyan indikator elektrodlar hosil qilgan EYuK ni o'lchash yo'lli bilan ionlar konsentratsiyasini aniqlashga asoslangan. Bunda konsentratsiyani bevosita potensiallari farqini o'lchash bilan aniqlash mumkin. Texnologik tekshirishlarda eritma konsentratsiyasi, ko'pincha pH ning qiymati bo'yicha o'lchanadi. Agar $pH < 7$ bolsa, kislotali; $pH = 7$ bolsa, neytral; $pH > 7$ bolsa, ishqorli eritma bo'ladi. Avtomatik asboblarda pH ni o'lchash uchun elektr usulidan foydalilanildi. U tekshirilayotgan eritmaga botirilgan, shishadan tayyerlangan o'lchash elektrodining eritma pH qiymatiga ko'ra elektrod eritma chegarasida potensiallar farqini o'zgartirishiha asoslangan. Biroq, faqat bitta elektrod va eritma o'itasidagi potensiallar farqini o'lchab bo'lmaydi, chunki o'lchash asosi ulanganida asbobni eritmaga ulaydigan o'tkazgich bilan eritma orasida ham potensiallar farqi hosil bo'lib, u ham eritmadiagi vodorod ionlari konsentratsiyasiga bog'lih, bo'ladi. Shu sababli elektrod potensiallarini o'lchashda ulchash elektrodi bilan bir qatorda yordamchi elektroddan ham foydalilanildi, uning potensiali o'zgarmas bo'lib, eritmaning xossalariiga bog'liq bo'lmaydi.

Yordamchi elektrod sifatida kalomel' yoki kumush xlorid qoplangan elektrodni ishlataladi. Har ikki elektrod gal'venik element ho'osil hiladi. Suvli eritmalarga tibbi. etiladigan Nernst tenglamasiga ko'ta bunday gal'venik elementining EYuK l, agar yordamchi elektrodnning potensiali nolga teng bo'lsa. quyidagi ifodada naniqlanadi:

$$E = -2,3(RT/F)pH; \quad (6.17.)$$

bu erda:


R - universal gez o'imiysi;

T - eritmaning absol'yut temperaturasi, K;

F - Faraday soni.

(6.17) tenglama shuni ko'rsatadiki, shisha elektrodnning EYuK i eritmaning pH niqoriga va ning temperaturasiga bog'liq ekan. Eritmaning temperaturasi o'zgarmas bo'lganida shisha elektrodnning EYuKi fagaqt eritmaning pH miqdori funksiyasidan iborat bo'ladi. Bu tenglaniaga R, T va F ning son qiymatlarini qo'yib, 20°C uchun shisha elektrodnning potensiali qiymatini (B hisobida) topamiz.

$$E = -0,0581pH \quad (6.18.)$$



6.13- rasm. Shisha va elektrodlari bo'lgan pH metrning sxemasi

6.13-rasmda tekshirilayotgan eritma 10 ga tushirilgan shisha 1 va kalomel' elektrodlar 7 dan foydalanilgan holda eritmaning pH miqdorini o'lchash sxemasi ko'rsatilgan. Ulardan hosil bo'lgan potensiallar farqi eritmaning pH miqdoriga proporsional bo'sib, potensiometr 4 bilan o'lchanadi.

Shisha elektrod shisha naychadan iborat bo'lib, uchi elektrod shishasidan yasalgan yupqa devorli (0,1-0,2 mm) ichi kavak sharcha kavsharlab qo'yilgan. Sharchaga pH miqdori ma'lum bo'lgan eritma 3 to'ldirilgan bo'lib, eritmaga esa kumush xlorid qoplangan kontaktli yordamchi elektrod 2 botirilgan, u sharikning ichki sirtida potensiallar farqini olish uchun xizmat qiladi. Shisha elektrodlarning xususiyati shuchdan iboratki, ulaming ichki elektr qarshiligi juda katta bo'lib, 20°C da 100-200 MΩ ga yetadi. Kalomel' elektrod 7 dielektrikdan tayyorlangan korpusdan iborat, ichiga kimyoviy toza simob 5 to'ldirilgan bo'ladi. Uning ustida

yomon eriydigan kalomel' pastasining qatlami 6, to'yintirilgan kaliy xlorid eritmasi 8 joylashtirilgan. Elektr kontakt hosil qilish uchun kam o'tkazadigan to'siq, 9 o'rhatilgan bo'lib, u orqali kaliy xlorid asta-sekin sizib o'tadi va bu bilan tekshirilayotgan eritmadan yordamchi elektroldga chet ionlar o'tib qolishining oldini oladi. Shunday qilib, shisha va kalomel' elektroldardan iborat pH-metrning elektr zanjiri ketma-ket ulangan elementlar qatoridan tashkil topgan bo'lib, ularning potensiali o'lchash asbobi qayd etadigan yig'indi EYuK ni beradi:

$$E_t = E_1 + E_2 + E_3 + E_4 \quad (6.19.)$$

Bu yerda:

E_1 - kumush xlorid qoplangan kontaktli elektrod bilan xlorid kislota orasidagi potensialning sakrashi (keskin o'zgarishi);

E_2 - xlorid kislota eritmasi bilan shisha elektrod shargi ichki yuzasi o'rta sidagi potensialning sahrashi;

E_3 - simob bilan kalomel' o'rta sidagi yordamchi elektroddagi potensialning sahrashi;

E_4 - shisha elektrod shargi tashqi sirti bilan tekshirilayotgan eritma o'rta sidagi potensialning shkalashi.

E_1, E_2, E_3 , kattaliklar nazorat qilinayotgan eritmaning tarkibiga bog'liq bo'lmaydi va faqat temperaturaga qarab o'zgaradi.

Shisha elektrod shargining tashqi yuzasida xosil bo'ladigan elektr yurituvchi kuch E_4 eritmaning pH miqdori va temperaturasi bilan aniqlanadi hamda (6.18) tenglama bilan hisoblanishi mumkin. Binobarin, pH-metr elektr zanjirining yig'indi EYuKi ma'lum temperatura uchun tekshirilayotgan eritmada vodorod ionlari aktivligining funksiyasidan iboratdir.

Sanoat pH-metrlarida o'lchash elektrodi va yordamchi elektrod bitta korpusda joylashtiriladi va sigimlarda o'matiladigan, botirib quyiladigan datchiklar tarzida yoki quvurlarda o'matiladigan, oqar suvda turadigan datchik tarzida tayyorlanadi. pH zanjirning EYuK ini o'lchashda odatda kirish qarshiliği katta bo'lgan avtomatik potensiometrlardan foydalilanadi, ularning shkalasi pH birliklarida darajalanaadi. Tekshirilayotgan eritmalarning temperaturasi keng chegaralarda o'zgarib turganida o'lchash sistemasida eritma temperaturalarining o'zgarib turishini avtomatik kompensatsiyalovchi qurilma bo'lishi kerak.

Asbobsozik sanoatida ishlab chihai iladigan pH metrlarning eng ko'p tarqalgan turlariga pH-201 va pH-261 xillari kiradi. Ularning o'lchash o'zgartirkichlari o'zgarmas kuchlanish bo'yicha 0-50 mV va tok bo'yicha 0-5 mA chiqish signallariga ega bo'ladi. Bu esa ularning avtomatik potensiometrlar, nazorat qilish va rostlash qurilmalari bilan birgalikda ishlashga imkon beradi.

6.4. SUYUQLIKLARNING QOVUSHOQLIGINI O'LCHASH ASBOBLARI

Suyuqliklarning qovushoqligini o'lchash uchun maxsus asboblar mavjud.

Viskozimetrlar — suyuqliklar qovushoqligini o'lchash uchun mo'ljallangan asbob bo'lib, turli xil neft va boshqa mahsulotlarning tarkibi va holatini tekshirishda keng q'llaniladi. Chunki ularning ko'pchiligi uchun qovushoqlik sifat va mahsulot tarkibini ko'rsatuvchi asosiy kattalik hisoblanadi.

Suyuqliklar dinamik qovushoqlikka ega bo'lib, uning kattaligi ichki ishqalanish kuchining harakatlanayotgan qatlam qalinligi yuzasiga tezlik gradiyenti bo'yicha ta'sir etish nisbatiga teng.

Dinamik qovushoqlik μ ichki ishqalanish kuchi F formulasidan aniqlanadi.

$$F = \mu(\Delta\vartheta/\Delta L)\Delta S \quad (6.20.)$$

bu yerda: $\Delta\vartheta/\Delta L$ - harakatdagi qatlam qalinligi bo'yicha tezlik

gradiyenti, 1/s;

ΔS - ichki ishqalanish yuzasi, m^2 ;

ϑ - qatlam oqimining tezligi, m/s;

L - harakatdagi qatlam qalinligi, m.

(6.20) tenglamadan dinamik qovushoqliknini aniqlash formulasasi kelib chiqadi:

$$\mu = F/(\Delta\vartheta/\Delta L)\Delta S \quad (6.21.)$$

(6.21.) formuladagi barcha kattaliklar qiymatini I ga teng deb olsak, dinamik qovushoqlikning SI sistemasidagi o'lchov birligi Pa.s (Pascal-sekund) kelib chiqadi.

Dinamik qovushoqlikning suyuqlik zichligiga nisbati orqali esa kinematik qovushoqlik aniqlanadi:

$$\gamma = \frac{\mu}{\rho}, \quad (6.22.)$$

bu yerda: μ - dinamik qovushoqlik, Pa.s;

ρ - suyuqlik zichligi, kg/m³;

SI sistemasida kinematik qovushoqlikning o'lchov birligi m²/s bo'lib, tajribada puaz (p) hamda santi puaz o'lchov birliklari ham ishlataliladi. Bu birliklar SI sistemasidagi qovushoqlikning birligi bilan quyidagicha munosabatga ega:

$$1P = 0,1 \text{ Pa. s.}; \quad 1sP = 1mPa. s.$$

O 'lchash jarayonida temperaturaning qovushoqlikka ta'sirini e'tiborga olib, tegishli tuzatishlar kiritish lozim.

So'nggi paytlarda qovushoqlikni o'lchash uchun turli xil asboblar ishlab chiqarilmogda. Ular ishslash usuliga kora kapillyarli, sharikli, rotatsion hamda tebranuvchi asboblarga bo'linadi.

Kapillyarli viskozimetrlar

Kapillyarli viskozimetrlar yoki oqim viskozimetrlari laboratoriya sharoitida o'lhash aniqligining yuqoriligi, o'lhash diapazonining kattaligi va tuzilishi nisbatan soddaligi tufayli ko'p tarqalgan. So'nggi yillarda texnologik jarayonlarning o'tishidagi qovushoqlikni avtomatik ravishda o'lhash va rostlash uchun mo'ljallangan kapillyarli viskozimetrlar ishlab chiqarilmoqda. Bu asboblar toza va bir jinsli suyuqliklar, masalan, suv-spirtili aralashmalar va boshqalaming qovushoqligini o'lhashda ishlataladi.

Kapillyarli viskozimetrlarning ishlash usuli kapillyar trubkadan suyuqlikni oqib o'tishi uchun Puazeyl qonunidan foydalanishga asoslangan:

$$Q = (\pi d^4 / \mu l) \Delta P \quad (6.23.)$$

bu yerda: Q - trubkadan oqib chiqadigan suyuqlikning hajmiy sarfi, m^3/s ;

d - trubka diametri, m;

μ - suyuqlikning dinamik qovushoqligi, Pa. s;

l - trubkaning uzunligi, m;

ΔP - trubka uchlaridagi bosimlar farqi, Pa.


Agar, Q , d va l kattaliklarning qiymatlari o'zgarmas bo'lsa, (6.23.) formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\mu = K \Delta P \quad (6.24.)$$

(6.24.) formula shuni ko'rsatadiki, suyuqliklar qovushoqligini o'lhash ular oqib o'tadigan kapillyar trubka uchlaridagi bosimlar farqini o'lhashdan iboratdir. Bunda suyuqlikning oqib o'tishi og'irlik kuchi yoki dumaloq kesimli silindrik trubkadan bo'ladiqan tashqi bosim ta'sirida amalga oshishi mumkin. Bundan tashqari tekshirilayotgan suyuqlikning doimiy miqdorini oqib o'tish vaqtini o'lchaydigan viskozimetrlar ham mavjud bo'lib, unda suyuqlikning dinamik qovushoqligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\mu = K_\tau \cdot \Delta P \cdot \tau \quad (6.25.)$$

Avtomatik kapillyar viskozimetrlarning struktura sxemasi 6.14-rasmida keltirilgan. Avtomatik viskozimetrlarda qovushoqligi aniqlanayotgan mahsulot tekshirish uchun olinayotgan nuqa 1 dan nasos 2 bilan zmeevik 3 va sarf rostagichi 5 orqali o'lhash kapillyari 6 ga uzatiladi. Mahsulotning asosiy qismi, odatda, moy bilan to'ldiriladigan aralashtirgichli 13 termostatda joylashtirilgan.



6.14. - rasm. Avtomatik kapillyar viskozimetrining struktura sxemasi.

Araushtirgich elektrovdigatel 4 yordamida harakatga keltiriladi. Termostat vannasidagi temperatura termometr 10 yordamida o'chanadi va isitgich 12 ni boshqaradigan temoregulyator 11 yordamida doimiy saqlab turiladi. Kapillyar trubka uchlaridagi bosimlar farqi ko'rsatishini ikkilamchi asbob 8 ga uzatadigan differentsial manometri 7 yordamida o'chanadi. Ikkilamchi asbobning shkalasi qovushoqlik birliklari darajalangan. Asosan, qovushoqligi aniqlanayotgan suyuqlik sarfi va temperaturasi aniqligini saqlash bilan o'chash aniqligi ta'minlanadi. Kapillyar trubkaning diametri va uzunligi qovushoqligi o'chanayotgan suyuqliknинг turiga qarab aniqlanadi.

Turli xil tuzilishga ega bo'lgan bir qancha kapillyarli viskozimetrlar mavjud bo'lib, ular 0,001 dan 10 Pa.s gacha o'chash chegarasiga ega.

6.5. GAZLAR TARKIBINI O'LCHASH ASBOBLARI.

Zamonaviy ishlab chiqarish, ayniqsa, sanoatning kimyo va nefni qayta ishslash tarmoqlarida texnologik jarayonning borishini va oxirgi mahsulotning sifat ko'satkichlarini avtomatik nazoratsiz tasavvur qilish mumkin emas. Zavod ko'satkichlarini mahsulot sifatini aniqlash yetarlicha yuqori aniqlikda olib borilsada, aniqlash vaqtining uzoq davomiyligi hamda ko'p mehnat talab qilinishi sanoat ishlab chiqarishi talablarini qanoatlantirmaydi. Tez amalga oshiriladigan ishlab chiqarish texnologik jarayonlari sifat ko'satkichlari uchun avtomatik sifat ishlab chiqarish texnologik jarayonlari sifat ko'satkichlari uchun avtomatik sifat analizatorlari zarur. Sanoat miqyosida ishlataladigan avtomatik sifat analizatorlarini

yaratish texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarishdan bevosita kattaliklarni avtomatik boshqarish va chiqadigan mahsulotni sifat ko'satkichlariiga qarah texnologik jarayonni optimallashtirishga olib keladi. Sifatli xossalarga ega, tabiiy yaratilgan mahsulotlardan qolishmaydigan sun'iy mahsulotlar yaratish va ulardan foydalanish bugungi kun texnika taraqqiyotining asosiy yutug' idir. Polietilen, sintetik kauchukning yangi turlarini, polimerlarni, yarim o'tkazgichlar texnikasi tarmoqlarining rivojlanishi ma'lum darajada avtomatik sifat analizatorlarining yaratilishiga bog'liq. Texnologik jihozlarni va ishlab chiqarishni boshqaruvchi, nazorat qiluvchi kishilarni apparatlarda va sexlarda to'planib qoladigan yonuvchi va zaharlovchi moddalardan himoya qilishda analizatorlarning asosiy o'rinn egallashini eslatib o'tish lozim.


Mahsulotning sifati uning xossasi va tarkibi bilan xarakterlanadi. Mahsulot tarkibi aralashmalarning turlari va ularning miqdori bilan xarakterlanadi. Mahsulot tarkibi uning fizikaviy va fizik-kimyoviy holatiga bog'liqligidan aniqlanishi mumkin.

Sifatni nazorat qilishga mo'ljallangan barcha asboblarni vazifasiga ko'ra 3 turga bo'lish mumkin: mahsulot xossasini nazorat qiluvchi analizatorlar; mahsulot tarkibini nazorat qiluvchi analizatorlar; aralashmalarni nazorat qiluvchi analizatorlar.

Qo'llanishiga ko'ra barcha analizatorlar sanoat va laboratoriya analizatorlariga bo'linadi.


Sanoat analizatorlari (6.15.- rasm) odatda, tekshirilishi lozim bo'lgan mahsulot o'zgarishini texnologik tizimdan avtomatik ravishda olib, uning tarkibi va xossasini aniqlaydi hamda o'ziyozar va rostlovchi qurilmalarga mos bo'lgan chiqish signali beradi.

Laboratoriya analizatorlari esa ilmiy-tadqiqot ishlarida mahsulot sifatini davriy tekshirish uchun, sanoat analizatorlari bo'limgan paytda hamda sanoat analizatorlari ishini tekshirish uchun qo'llaniladi.



6.15. - rasm. Mahsulot tarkibini aniqlaydigan sanoat analizatorining struktura sxemasi.

MOQ - analizatorning mahsulot olish qurilmasi; TV - tekshirish bloki; BB - boshqarish bloki; HA(R) - hisoblash asbobi; CHSO' - chiqish signali o'zgartgichi.



6.15.- rasm. Mahsulot xossasini aniqlaydigan sanoat analizatorining struktura sxemasi.

Tekshirilayotgan modda texnologik tiziarning analiz olishga mo'ljallangan qismidan analizatorning mahsulot olish qurilmasi MOQ ga, so'ngra 6.15. - rasmning tekshirish bloki TV ga, 6.16. - rasmning o'lchash qurilmasi O'Q ga beriladi.

Analizatorlar yordamida moddaning tarkibi va holatini o'lchash natijalari ma'lum miqdorda tekshirishning belgilangan quyidagi shartlariga amal qilinishiga bog'liq:

- siklli tekshirishda tekshirish uchun olingan modda miqdoriga, uzlusiz tekshirishda esa tekshirilayotgan modda sarfiga;
- tekshirishda ishtiroy etadigan qo'shimcha moddalar miqdoriga yoki sarfiga;
- elektrik sxemalarining ta'minot kuchlanishi yoki pnevmatik o'lchash qurilmasining bosim ta'minotiga.

Siklli haraka da tekshirish shartlarini me'yorida ushlab turish hamda analizator qurilmalarini programma (dastur) asosida boshqarish bloki (BB) yordamida amalga oshiriladi. Tekshirilayotgan moddaning tarkibi yoki holatiga mos keladigan signal hisoblash asbobida HA(R) qabul qilinib, signal o'zgartigichdan chiqqan standart elektrik yoki pnevmatik signal rostlovchi qurilmaga uzatiladi.

Moddaning tarkibi va holatini nazorat qilish asboblari bilvosita o'lchash usuli asosida qurilgan bo'lib, o'lchanayotgan muhit tarkibi va holati turli xil fizik, fizik-kimyoiy kattaliklarni o'lchash asosida aniqlanadi.

O'lchash usulini tanlashtirish uchun esa, masalan, n ta komponentli moddaning to'liq tarkibi, bu moddaning holati qaysi fizik yoki fizik-kimyoiy kattalik bilan xarakterlanishini aniqlash kerak. Ularning bog'liqligini quyidagicha aniqlash zarur:

$$K_i = f(c_1, c_2, \dots, c_m) \quad (6.26.)$$

bu yerda: $K_1 = K_1 \dots, K_n$ - moddaning har bir komponentining kontsentrasiyasini;

c_1, c_2, \dots, c_m - muhitning holatini xarakterlovchi fizikaviy yoki fizik-kimyoviy kattalik.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, muddaning fizik, fizik-kimyoviy holati va tarkibini avtomatik nazorat qilish asboblari shunday asboblarni alohida fizikaviy va fizik-kimyoviy kattaliklarni o'lchashda, shu bilan bir qatorda bir tomonlama sifati va sonini aniqlaydi. Moddalarning tarkibi va holatini o'lchovchi mavjud analizatorlar hamda aralashmalar analizatorlarini o'lchash usuliga ko'ra kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy turlarga bo'lish mumkin.

Kimyoviy usulda muddaning sifatini aniqlash uchun kimyoviy reaksiyalarden foydalaniлади. Natijada o'lchanayotgan komponent ajraladi yoki yutiladi.

Fizik-kimyoviy usul esa turli xil fizikaviy hodisalar bilan kuzatiladigan kimyoviy reaksiyalarga asoslanadi. Fizikaviy usulda muddaning tarkibi va holatini xarakterlovchi fizik kattaliklar o'lchanadi.

Neftni qazib olish, qayta ishlash, gaz sanoati hamda Kimyo va oziq-ovqat sanoatida eng ko'p tarqalgan - muddaning tarkibini o'lchashga mo'ljallangan analizatorlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: gazlar tarkibini aniqlash analizatorlari, xromatograflar, mass-spektrometrlar, pH-metrlar, neft mahsulotlarini fraktsion tarkibi analizatorlari, titrometrlar.

Muddaning holatini aniqlovchi analizatorlarga esa oqimda neft va neft mahsulotlarining solishtirma og'irligini olchaydigan asboblar, neft mahsulotlarining yonish temperaturasi analizatorlari kiradi. Aralashmalar analizatorlariga esa neft va neft mahsulotlari tarkibida suv va tuz miqdorini aniqlovchi analizatorlarni misol keltirish mumkin.

GAZLAR TARKIBINI ANIQLOVCHI ANALIZATORLAR

Neftni qayta ishlash, neft kimyosi, kimyo va Kimyo va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida texnologik jarayonlarni nazorat qilish uchun hamda ishlab chiqarish binolarida havodagi zaharli va portlashga xavfli aralashmalarni tahlil qilishda gazlar tarkibini aniqlovchi avtomatik analizatorlar qo'llaniladi.

Amalda ishlatiladigan gaz analizatorlarini tahlil qilish usuliga ko'ra kimyoviy, fizik-kimyoviy va fizikaviy turlarga ajratish mumkin.

Kimyoviy usullar gaz komponentlarini tanlangan reaktivlarda yutilishiga asoslangan bo'lib, aralashmada komponent miqdori dastlabki va yutilgandan keyingi gaz hajmlari farqi bilan aniqlanadi. Kimyoviy usul laboratoriya analizatorlarida qo'llanitadi.

Fizik-kimyoviy usuldan eletkrokonduktometrik analizatorlarda, eritmaring kulonometrik titratorida, galvanik, termokimyoviy va fotokulonometrik analizatorlarda tekshirilayotgan komponentlarning yutilishiда foydalaniлади.

Fizikaviy usul qo'llaniladigan gaz analizatorlariga misol qilib infragizil nurlanish, termokonduktometrik va magnitli gaz analizatorlarini keltirish mumkin.

Gazlarni tahlil qilishning fizikaviy usuli o'zining har tomonlamaligi va yuqori aniqlikka egaligi tufayli xromotografik va mass-spektrografik gaz tarkibi analizatorlarida keng q'llaniladi. Fizik kattalikni tanlashning majburiy sharti berilgan gaz aralashmasida uning additivligidir. Berilgan fizik kattalik parametri barcha gaz aralashmlari uchun quyidagi tenglikka javob berishi kerak:

$$E_{\text{m}} = \frac{m_1}{100} E_1 + \frac{m_2}{100} E_2 + \dots + \frac{m_n}{100} E_n \quad (6.27)$$

bu yerda: $E_{\text{m}}, E_1, E_2, \dots, E_n$ - aralashma uchun har bir komponentning fizik kattalik qiymati.

$$m_1 + m_2 + \dots + m_n = 100. \quad (6.28.)$$


m_1, m_2, \dots, m_n - gazli aralashmaning foizli qiymati.

(6.27.) va (6.28.) tenglamalar ko'ssatib turibdiki, tekshirishning fizikaviy usulini ikkilamchi arashmalarda qo'llash mumkin. Ko'p komponentli aralashmalarni tahlil qilishda aniqlanayotgan komponentning fizik kattaligi boshqa komponentlardan sezilarli farq qilsa, ular uchun uni katta xatoliksiz bir xil deb qabul qilish mumkin.

Optik-akustik analizator

6.17.- rasmda optik-akustik analizatorning printsipial sxemasi keltirilgan. Nur qabul qiluvchi idish tekshirilishi kerak bo'lgan gaz komponenti bilan to'dirilgan. Manba 2 dan berilgan infraqizil nurlar oqimi oyna / dan qaytib, tekshirilayotgan aralashma bilan birgalikda kyuvet 3 dan o'tib, nur qabul qilish idishiga boradi.

Kyuveni to'ldiradigan tekshiriladigan aralashma 8 hamda nur qabul qilish kamerasini to'ldiradigan komponent bo'limganda, mikrofon 5 dan olinadigan signal kuchaytirgich chiqishida eng katta qiymatga ega bo'ladi.




6.17. - rasm. Optik-akustik analizatorining printsipial sxemasi.

Komponent paydo bo'lishi bilan, uning kontsentratsiyasiga mos ravishda signal kamayadi. Nurlanish oqimining uzilishi abtyurator 10 orqali amalga oshiriladi. Abtyurator berilgan burchak tezlik bilan aylanadigan kesilmalardan iborat disk ko'rinishiga ega. Kyuvet va nur qabul qilish kamerasingning shishalari infraqizil nurlarni o'tkazish xususiyatiga ega bo'lgan materialdan tayyorlanadi (ftorli litiy yoki toblangan korund). Ko'rilgan sxemalarning yuqori amqlikka ega emasligi ularning asosiy kamchilik hisoblanadi. Bu kamchilik ayniqsa kichik kontsentratsiyalarda kuchaytirgichning kuchaytirish koefitsiyenti va o'lchash sxemasining qator parametrlarining tebranishi natijasida yuzaga keladi.

Ikkita kyuvet (ishchi va taqqoslovchi kyuvetlar) qo'llanilgan differentsiyal sxemada esa (6.18 - rasm) yuqori anqlik ta'minlanadi. Tekshirilayotgan gazli aralashma ishchi kyuvet 2 orqali o'tadi. Taqqoslevchi kyuvet 3 esa toza hav'o yoki azot bilan to'dirilgan. Nurni qabul qiluvchi kameralar qarama-qarshi ulangan.

Nurlanish oqimlari bir xil bo'lib, ishchi kamerada yutiladigan komponent bo'lmagan holda, chiqish signali bo'lmaydi.



618- rasm. Optik-akustik analizatorining differentsiyal sxemasi.

Issiqlik gaz analizatorlari

Aniqlanayotgan gaz aralashmasi komponentining issiqlik holatini o'lchashga asoslangan asboblar issiqlik gaz analizatorlari turkumiga kiradi. Bu turdag'i gaz analizatorlarida o'lchanayotgan kattalik sifatida aniqlanayotgan komponent kontsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan gaz aralashmasi issiqlik o'tkazuvchanigi va katalitik yemirilish reaksiyasining foydali issiqlik samaradorligidan foydalaniadi.

Issiqlik analizatorlari termokonduktometrik (gaz aralashmasi issiqlik o'tkazuvchanligi bo'yicha) hamda termokimyoiv (katalitik yemirilish reaksiyasining foydali issiqlik samaradorligi) gaz analizatorlariga bo'linadi.

Termokonduktometrik gaz analizatorlari

Termokonduktometrik gaz analizatorlari ishlashi tekshirilayotgan gaz aralashmasining issiqlik o'tkazuvchanligini o'lchashga asoslangan bo'lib, qandaydir bir komponentning (masalan, uglerod ikki oksidi (CO), vodorod (H), ammiak, geliy, xlor va boshqa gazlarning) foizli miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu gazlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsiyenti aralashmaning boshqa komponentlarinikiga nisbatan tez farqlanadi. Ko'p komponentli gaz aniqlanayotgan komponentidan boshqa gaz aralashmasi barcha komponentlarining issiqlik o'tkazuvchanligi bir xil bo'lgan sharoitdagina amalga oshirish mumkin.


Agar gaz aralashmasida tekshirish natijalariga teskari ta'sir ko'rsatadigan komponentlar mavjud bo'lsa, u holda quyida keltirilgan u yoki bu usul bilan ulaming ta'sirini bartaraf etish kerak bo'ladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik bo'yicha gazlar aralashmasini tahlil qilishda 0-100°C temperatura qiymatlarida yaxshi natijalarga erishish mumkin. Odatda yonish mahsulotlari N₂, O₂, CO, CO₂ va CH₄, shuningdek, H₂SO₂ va suv bug'larini o'z ichiga oladi. N₂, CO, CO₂ larning issiqlik o'tkazuvchanligi deyarli bir xil, shu sababli, mos keladigan temperatura tanlanganda (masalan, 100°C ga yaqin) CO₂ ni aniqlash yetarlicha aniqlikda amalga oshiriladi. Odatda, metan yonish mahsulotlarda juda kam miqdorda bo'lib, gaz aralashmalari issiqlik o'tkazuvchanligiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Yonish mahsulotlarda vodorodning bo'lishi issiqlik o'tkazuvchanligi yuqori bo'lganligi uchun uning CO₂ miqdorini o'lchash natijalarida sezilarli kamayishiga olib keladi.

Shuning uchun, tarkibida vodorod bo'lgan yonish mahsulotlarda CO₂ miqdorini aniqlashda gazni gaz analizatori qabul kamerasiga kiritishdan oldin, vodorodni maxsus pechlarda yondirish zarur. Bunday holatda uglerod oksidi CO ham bir paytda kuydirilishi hisobiga CO ning miqdori ko'payishi mumkin. Agar CO ni aniqlaydigan asbob bo'lsa, buni hisobga olish va o'zgartirish kiritish mumkin. Uglerod gazini esa yog'sizlantirilgan po'lat katigi va ma'lum hajmda suv bilan to'ldirilgan filtr yordamida chiqarib tashlash zarur. Yonish mahsulotlari tarkibida 1 % CO₂ ning bo'lishi gaz analizatorda 1,7 % CO₂ miqdorini ko'paytirib ko'rsatishini esdan chiqarmaslik kerak.

Bundan tashqari, CO₂ asbobning metall qismi zanglashga olib boruvchi aggressiv gaz hisoblanadi. Tekshirishiga olinayotgan gaz aralashmasining temperaturasi va namligi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun suv bug'larining o'zgaruvchan tarkibini tekshirish natijalariga ta'sirini kamaytirish hamda namligi va temperaturasini kamaytirish maqsadida tekshirishga olingen gaz aralashmasini suvli sovitgich yordamida ma'lum temperaturagacha sovitiladi. Bu gaz analizatorning qabul qiluvchi kamerasiga beradigan gaz aralashmasini temperaturasi va namligini talab darajasida bo'lishiha yuqori va o'zgaruvchan namlikdagi biror aralashmalarda CO ni aniqlashga mo'ljallangan gaz analizatorlarida uni bir xilda turishini ta'minlash uchun gaz analizatorning qabul kamerasi oldidan barbater o'rnatilib, unda taqqoslanuvchi

hamda tekshirilayotgan gazlar to'yinguncha namlanadi. 6.19 - rasmida CO_2 va H_2 gaz analizatorining printsipli sxemasi keltirilgan.



6.19- rasm. Termokonduktometrik gaz analizatorining printsipli o'lchash ko'priki sxemasi.

Gaz analizatorning ko'priki o'lchash sxemasi qabul qiluvchi o'zgartgich, aloqa tizimlari, ikkilamchi o'lchov asbobi (masalan, millivoltmetr) va ta'minot manbaidan iborat. Ishchi sezgir element hisoblangan qabul qiluvchi o'zgartgich ko'prigi yelkalari R_1 va R_2 , ingichka platina simdan tayyorlangan bo'lib (odatda diametri 0,02 - 0,04 mm va qarshiligi 10 yoki 40 Om), tekshirilayotgan gaz aralashmasi oqib o'tadigan o'lchash kamerasi ichiga joylashtirilgan. Ko'prikning qolgan ikki yelkasi R_3 va R_4 ham platina simdan tayyorlangan sezgir element hisoblanib, taqqoslovchi gaz bilan to'ldirilgan mustahkam berkitilgan kamerasda joylashgan. Gaz aralashmasida uglerod II oksidini aniqlash uchun mo'ljallangan gaz analizatorlarida havo taqqoslovchi gaz hisoblanadi. Shunday gaz analizatorlar ham borki, ularda ko'prikning R_1 va R_2 yelkalari yopiq joylashmay, xuddi ishchi sezgir elementga o'xshash taqqoslovchi gaz ichiga cho'ktiriladi.

Zamonaviy gaz analizatorlarining ko'priki o'lchash sxemalarining ta'minoti stabillashgan ta'minot manbai (STM) dan doimiy tok bilan amalga oshiriladi. Ta'minot zanjiriga ulangan R_0 reoxord esa gaz analizatorlar ishlab chiqariladigan zavodda ularning darajalash paytida ko'prikka ta'minot o'matish uchun mo'ljallangan.

Gaz analizatori qabul qiluvchi o'zgartgichini o'rab turgan havo temperaturasini tebranishining ta'sirini kamaytirish uchun yuqori darajadagi aniqlikda sezgir elementlar qarshiliklarining tengligiga ($R_1=R_2=R_3=R_4$) erishish zarur. Gaz kameralaridan havo oqib o'tganda ko'prik muvozanatda bo'lishi hamda millivoltmetrning ko'rsatgichi shkalaning hoshlang'ich qiymatiga mos keladigan belgida turishi zarur. Ko'prik sxemasining muvozanat holatidan chetga chiqishi sezilishi bilan (to'rtala sezgir element ham havo bilan cho'miltirilgan bo'lganda) muvozanat rostlovchi reoxord R_0 yordamida qayta tiklanadi. Bu reoxordning qarshiligi taxminan 0,15 Om ni tashkil qiladi. Aloqa tizimlari qarshiligidini berilgan qiymatgacha olib borish uchun R_0 qarshilik xizmat qiladi. Ko'rsatadigan ikkilamchi

asbob bilan parallel holatda o'ziyozar millivoltmetr ham ulanishi mumkin. Bunday holda gaz analizatorini da'shalash ikkinchi ikkilamchi asbob qarshiligi hamda aloqatizimlarining b'lgilangan qarshiliklarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Sezgir elementlari R_2 va R_4 tarkibida CO bo'lган tekshirilayotgan gaz bilan chomillitirliganda ($H = CO$ bo'lmaydi) R_2 va R_4 sezgir elementlarning kameraning devoriga issiqlik barishi o'zgaradi, chunki tekshirilayotgan gazning issiqlik o'tkazuvchanligi tarkibida CO bo'lganligi sababli taqqoslovchi gazga nisbatan bos qacha bo'ladi. Bu. ing ta'sirida R_2 va R_4 sezgir elementlarning temperaturasi ko'truiladi, demak u'larning qarshiliq ortadi. Bu holatda ko'priq diagonalining uchiarida sxemaning elektr muvozanatini buzilishi natijasida kuchlanish hosil bo'ladi va millivoltmetning ko'rnatgichi ma'lum burchakka buriladi. Bu kuchlanish sezgir elementlari R_2 va R_4 ning qarshilik fraktsiyasi hisoblanadi, boshqacha aytganda, tekshirilayotgan gaz aralashmasida uglerod ikki oksidining foizlarda ifodalangan hajmiy miqdori fraktsiyasidir.

Gaz aralashmalarda uglerod ikki oksidi CO miqdorini aniqlash uchun mo'ljalangan 80, 81 - rasm larda keltirilgan sxemalar bo'yicha yig'ilgan gaz analizatorlarning ruxsat etilgan asosiy xatoliklari o'lchash oraligi 2-2,5 % dan oshmaydi. Bu turdag'i gaz analizatorlarning ko'rsatishi tashqi muhit temperaturasining har qanday qiyomatlarida 20-5°C dan, har qanday 5°C dan 50°C gacha har bir 10°C da 2-2,5 % o'lchash oralig'idan oshmaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Modosning xossasi va tarkibi to'g'risida tushuncha bering?
2. Namlikni o'lchash asbotlari haqida ma'lumot bering?
3. Avtomatik elektron psixrometr qurilmasining ishlash uslubi?
4. Avtomatik psixrometning elektr sxemasini tushuntiring?
5. Mexanik zichik o'lchagichlar haqida ma'lumot bering?
6. Vaznli zichlik o'lchagichlar haqida ma'lumot bering
7. Qalqovichli zichlik o'lchagichlar haqida ma'lumot bering
8. P'ezometrik zichlik o'lchagichning printsiplial sxemasi tushuntirib bering
9. Konnsentratsiya nima?
10. Kontaktsiz yuqori chastotali konduktometring o'zgartikchilari haqida ma'lumot bering?
11. Konduktometring ikki elektroqli o'lchash yacheykasini tushuntirib bering?
12. Turt elektroqli ulchash yacheykasi bo'lgan kenduktsmetring sxemasini tushuntirib bering?
13. Kontaktsiz past chastotali konduktometring sxemasini tushuntirib bering?
14. Qovushoqlik qanday birlklarda o'lchanadi?
15. Qovushoqlikni o'lchash asboblarining turlarini aytинг.
16. Analizatorlar nima maqsadda qo'llaniladi?
17. Qanday sanoat analizatorlari mavjud?
18. Gazlarning terkibini aniqlovchi analizatorlarning qanday turlari mavjud?
19. Optik-akustik analizatorning ishlash usuli nimaga asoslangan?


VII -bob. RELELAR VA KUCHAYTIRGICHALAR

7.1. Releler to'g'risida umumiy ma'lumot va tushunchalar

Rele - avtomatik sistemalarda boshqarish, himoya, nazorat, signalizasiya, rostlash va boshqa diskret operatsiyalarni bajarish uchun juda ko'p qo'llaniladigan apparatdir. Relega kiruvchi signal o'zluksiz ravishda o'zgarib, ma'lum qiymatga ega bo'lganidagina unda sakrashsimon tavsifli chiqish signali hosil bo'ladi.

Shundan so'ng kiruvchi signal qiymatining o'zgarishi oshishi davomida chiquvchi signal o'zgarmaydi. Kiruvchi signal qiymati kamayib, ma'lum miqdorga yetganda esa chiqish signali sakrashsimon xarakterda uziladi va oldingi holatga qaytadi.

Rele xususiyatlari bilan elektromekhanik relening ularish sxemasi va tavsif grafigi orqali tanishish mumkin (7.1.-rasm).



7.1.-rasm. Elektromekhanik rele:

Rele cho'lg'amiga kiruvchi tok I_k (signal X_k) potensiometr surilg'ichini pastdan yuqoriga qarab surish yo'li bilan sekin ko'paytirib borilganda tok kattaligi I_{k+1} ga yoki signal X_{k+1} ga yetganda rele ishga tushadi, ya'nin uning kontakti orqali o'tadigan sakrashsimon tavsifga ega bo'lgan chiqish signali I_{k+1} yoki X_{k+1} hosil bo'ladi, ya'nin rele ishga tushadi. Shu sababli relega kiruvchi signalning bu qiymati ishga tushish signali X_{k+1} deb ataladi. Endi potensiometr surilgichini pastga (orqaga) surib kirish signali kattaligini kamaytira boshlasak, I_k yoki X_k bo'lganda chiqish signali keskin kamayadi, ya'nin rele o'z kontaktlarini bo'shatib yuboradi, chiqish signali yo'qoladi. Relega kiruvchi signalning bu qiymati qaytish signali X_k deb ataladi.

Rele o'zining quyidagi asosiy parametrlari bilan tavsiflanadi:

- 1) ishga tushirish quvvati; bu quvvat relening ishonchli ishlashi, ya'nin kontaktlarining barqaror ularib turishi uchun zarur bo'lgani tashqaridan ta'sir qiladigan signalning minimal quvvatiga teng bo'ladi;

2) boshqarish quvvati: u relege ta'sir qilayotgan signalning shunday minimal quvvatidirki, bunda rele kontaktlari uzilmay turadi;


3) qaytish koefisienti:

$$K_v = \frac{X_{v_1}}{X_{v_2}}, \quad (7.1.)$$

4) relening ishga tushish vaqt - relege boshqarish signali berilgandan to undan signal chiqqunga qadar o'tudigan vaqt.

Rele ishga tushish vaqtini (t_{ish}) ga qarab tez ishlovchi, normal kechikishli va vaqt relelariga bo'linadi. Masalan, relening ishga tushish vaqtini $t_{ish} < 0,05$ c bo'lisa, tezkor ishlovchi rele deyiladi. $t_{ish}=0,05...0,15$ c bo'lisa, normal rele va $t_{ish} > 0,15$ c bo'lisa, sekinlatilgan rele deyiladi. Ishga tushish vaqtini 1c bo'lib, bu vaqtini yana ma'lum oraliqlarda o'zgartirish mumkin bo'lgani rele vaqt relesi deyiladi;

5) ularash imkoniyatlari relening kontakt juftlari soni bilan aniqlanadi.



7.2.- rasm: O'zgarmas tok relesi: a-aylanuvchi yakorli rele; b-yakorsiz rele (gerkon); c-relening elektr sxemasi; d - relening dinamik tafsif grafiklari;

6) o'lchamlari, massasi va ishondchli ishlashi ham relening asosiy parametrlari hisoblanadi. Elektr relelari elektromagnit, magnitoelektr. elektron vaqt relesi kabi turlarga bo'linadi.

Elektromagnit rele avtomatik sistemalarning boshqarish zanjiridagi tok turiga qarab ikki xil bo'ladi: 1) o'zgarmas tok-relesi; 2) o'zgaruvchan tok relesi. O'zgarmas tok relesining ikki turi 7.2.a- rasmda: yakori aylanuvchi rele 7.2.a- rasmda, gerkonlar kontaktlari germetik berkitilgan rele 7.2.b- rasmda ko'rsatilgan.

Bu turdag'i hamma relelarning ishlashi bir xil bo'ladi, chunki ularning hammasida ham elektromagnit o'rami 1 dan tok (boshqaruvchi signal) o'tganda ko'zg'aluvchi po'lat o'zak (yakor) 3 qo'zg'almas po'lat o'zak 2 tomoi tortiladi va u bilan mexanik bog'langan kontaktlar ulanadi, kontaktlar 5 uziladi,

boshqariluvchi zanjirda chiqish signalini X_{sh} hosil bo'ladi. Gerkonlarda qo'zg'aluvchi po'lat o'zak vazifasini kontakt sistemasidagi plastinalar 4 bajaradi.

Elektromagnit relelarining magnit zanjiridagi bo'shliq, (havo oraliq'i) δ_0 kontaktlar ochiq holatida katta va kontaktlar ulangan holatida ancha kichik bo'lishi sababli bu relelearning qaytish koefisienti birdan ancha kichik, ya'ni $k_q < 1$ bo'ladi, bu erda k_q - relening qaytish koefisienti. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. Ma'lumki, elektromagnit maydonining kuchi F_{em} qo'zg'aluvchi po'lat o'zak oraliq'i yoki prujina 7 ning tortish kuchi F_{pp} dan katta, ya'ni $F_{pp} < F_{em}$ bo'lganidagina rele kontaktlari ishga tushadi, ya'ni normal ochiq, kontaktlar yopiladi, yopiq, kontaktlar 5 esa ochiladi.

Relening ishga tushish toki I_{sh} qaytish toki I_q dan katta bo'lishi kerakligini bilish uchun kontaktlarning ularish va uzilish vaqtidagi elektromagnit maydon kuchi prujinaning tortish kuchiga teng, ya'ni $F_{pp} = F_{em}^{ul} = F_{em}^{uz}$ deb faraz qilamiz, u holda

$$\frac{I_{sh}W^2}{\delta_0} \approx \sigma \frac{I_q}{W^2} \quad (7.2)$$

yoki

$$\frac{\delta_0}{\delta_0^{ul}} = \frac{I_q}{I_{sh}} = K < 1$$

Odatda, kuchsiz tok relelarining qaytish koefisienti $k_q = 0,3 - 0,5$ bo'ladi.

Rele kontaktlarining ularish-uzilish tizligi va bu parametrlarni o'zgartira olish imkoniyatlari borligi katta amaliy ahamiyatga ega. Buni relening dinamik tafsif grafigi rasm asosida ko'rish mumkin. Bu grafik rele elektromagnit o'ramasining differensial tenglamasi $U = R + L \frac{di}{dt}$ ni echish yo'li bilan yoki tajriba yo'li bilan quriladi. Tenglamaning echimi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$i = \frac{U_n}{R} (1 - e^{-\frac{t}{T}}), \quad (7.3)$$

Bunda:

$I_n = \frac{U_n}{R}$ - g'altak tokining barqaror rejimdagagi qiymati yoki relening ishlash (nominal) toki;

$T = \frac{X_L}{R}$ - zanjirming vaqt doimiysi;

U_n -telening nominal kuchlanishi;

R, X_L - elektromagnit o'ramaning aktiv va induktiv qarshiligi.

Relening barqaror ishlashi uchun uning nominal toki I_n ishga tushish toki I_{nh} dan ancha katta bo'lishi kerak.

Odatda, $k_{rel} = \frac{I_n}{I_{nh}}$ relening zahira koefisienti deyiladi.

G'altakning dinamik tavsifi (7.3) tenglamaridan relening ishlash tezligini oshirishning ikki yo'li borligini ko'rish mumkin: 1) relening toki I_n qiymatini oshirish, 2) relening vaqt doimiysi T ni o'zgartirish (kamaytirish).

Relening nominal toki qiymatini oshirish yoki uning zahira koefisientini oshirish, amalda, $1,5 < k_{rel} < 2$ bilan chegaralanadi.

Avtomatikaning rivojlanishi tufayli relening konstruksiyasi takomillashgan turlari yaratildi. Relelearning sezgirligi va ishonchliligi ortdi, gabarit o'lchamlari va massasi kamaydi. Hozirgi vaqtida yakorsiz relelar keng qo'llanilmoqda. Ularning ishlash tezligi yakorli (qo'zg'aluvchi po'lat o'zakli) relelearning ishlashi tezligidan bir necha o'n marta kichikdir. Yakorli relening ishlashi uchun o'nlab millisekundlar talab qilinsa, yakorsiz relelar millisekunddan kam vaqt ichida adm ishlay oladi. Bunday relelearning kontaktlari germetik berkitilgan bo'ladi va ular ham «gerkon» lar deb ataladi (7.2-b- rasm).

Gerkon kontaktlari 4 permalloydan tayyorlanadi va shisha kolbacha ichiga 7.2.b-rasmda ko'rsatilgandek o'matiladi. Permalloyning kolbadan chiquvchi tomoni tokni yaxshi o'tkazuvchi metallga payvandlanadi. Permalloy uchlaringin kontaktlarini yaxshilash va emirilishini kamaytirish uchun plastinkalarining uchlari oltin, kumush yoki radiy bilan qoplangan bo'ladi. Kolba ichida vakuum hosil qilingan yoki inert gazlar (argon yoki azot) bilan to'dirilgan bo'ladi. Gerkon elektromagnit maydonga (g'altak I ichiga) kiritilsa, permalloy plastinkalari bir-biriga tortilib, kontaktlarni ularshi mumkin. Gerkon kontaktlarini uzib-ulashni boshqarish elektromagnit g'altagiga tok o'tkazish-o'tkazmaslik yoki tok yo'nalishini o'zgartirish bilan amalga oshiriladi. Yakorli relelearning kontaktlari ularni turishi uchun ularning elektromagnit o'ramidan tok doim o'tib turishi kerak bo'lsa, yakorsiz relelarda bunday emas. Ularning kontaktlari ferrit yoki permalloydan yasaladi, ulangandan keyin elektromagnit g'altagida tok bo'lmasa ham permalloyning magnitilanib qolishi sababli uzilmay qolaveradi. Bunday kontaktlarni uzish uchun elektromagnit g'altagiga teskari qutbli tok impulsini berish kerak. Hozir chiqarilayotgan plunjер tipidagi gerkonlar shisha ballonining hajmi 2,5 mm³ dan oshmaydi. Relelarga qo'yiladigan talablar ko'pligi va turli-tumanligi rele tiplarining behisob ko'payishiga sabab bo'ldi, masalan, hozir chiqarilayotgan birgina o'zgarmas tok relesining tipi 200 dan oshib ketdi. RPN tipidagi o'zgarmas tok relesining 800 ga yaqin turi bor. Ular bir-birlaridan qarshiligi, g'altak o'ramlarining soni, kontakt gruppalarining ko'rinishi va soni, ishlash vaqtini parametrlari hamda boshqalari bilan farq qiladi.

Quvvati bo'yicha, elektromagnit relelar yuqori sezgirlikka ega bo'lgani 10 mVt li, sezgirligi normal xisoblangan kuchsiz tokli 1-5 Vli relelarga bo'linadi.

Kontaktlarning quvvati jihatidan kichik quvvatli (50 Vt gacha) o'zgarmas tok va 120 Vt li o'zgaruvchan tok relelar mavjud.


RP tipidagi oraliq releclarining quvvati o'zgarmas tok uchun 150 Vt va o'zgaruvchan tok uchun 500 Vt gacha bo'ladi.

Fotoelektron rele

Fotorelening juda ko'p sxemalari mavjud. Eng oddiy fotoelektron rele sxemasi 7.3- rasmida ko'rsatilgan. Bunda kiruvchi signal X_k fotoqershilik Φ_C ga tushadigan yorug'lik oqimi Φ_k bo'lib, chiquvchi signal X_{ch} elektromagnit rele kontakti P orqali olinadi. Kiruvchi signal n-p-n tipidagi tranzistor T yordamida kuchaytiriladi.

Yorug'lik tushmaganda fotoelementning qarshiligi R_1 juda kamayib, R_1 va R_2 zanjiridan o'tadigan tok kattaligi eshib ketishi tusayli baza potentsiali U_b oshadi. Natijada tranzistor T ochiladi, kollektor toki ortib, rele P ni ishga tushiradi va uning kontakti ulanib chiquvchi signal X_{ch} , hosil bo'ladi.

Fotoelement (Φ_C) ga yorug'lik tushganda uning qarshiligi R_1 juda kamayib, R_1 va R_2 zanjiridan o'tadigan tok kattaligi eshib ketishi tusayli baza potentsiali U_b oshadi. Natijada tranzistor T ochiladi, kollektor toki ortib, rele P ni ishga tushiradi va uning kontakti ulanib chiquvchi signal X_{ch} , hosil bo'ladi.



7.3-rasm. Fotoelektron relening sxemasi

7.2. Kuchaytiricilar to'g'risida umumiy ma'lumot

Avtomatik rostlash sistemalarida datchikdan yoki o'lchash asbobidan klayotgan signallar rostlash qurilmalari orqali rostlanayotgan kattalikni berilgan qiymatda saqlab turish yetarli bo'lmaydi. Bu holda signallarni kuchaytirish uchun kuchaytirigichlar ishlatalidi.

Kirish-signalini forma va fizik tabiatini o'zgarmasdan uni kuchaytiradigan qurilmalarda kuchaytirigichlar deb aytildi. Signallarni quvvat jihatidan kuchaytirish tashqaridan yordamchi energiya manbai orqali olib boriladi.


Avtomatik sistemalarida ishlataladigan kuchaytirigichlar magnitli, electronli, elektromashinali, gidravlik, pnevmatik va boshqa turlarga bo'lindiladi.

Kuchaytirgichlarning asosiy xarakteristikasi – kuchaytirish koyfisenyidir . Bu koyfisent kuchaytirgichning chiqish quvvatining kirish quvvatiga nisbati xarakterlanadi .

$$\begin{aligned} K_p &= \frac{P_{\text{chit}}}{P_{\text{kr}}} \\ K_J &= \frac{J_{\text{chit}}}{J_{\text{kr}}} \\ K_u &= \frac{U_{\text{chit}}}{U_{\text{kr}}} \end{aligned} \quad (7.4)$$

Magnitli kuchaytirgichlar .

Magnitli kuchatirgichning ishlash prinsipi o'zakni o'zgarmas tok bilan magnitlanishi natijasida ishchi cho'lg'amlar induktivligining o'zgarishini o'lhashga asoslangan .



7.4-Magnitli kuchaytirgichning printsipial sxemasi

7.4- rasmda uch sterjenli po'lat o'zak 1, boshqarish cho'lg'ami W_p , dan tuzilgan oddiy magnitli kuchaytirgichning sxemasi keltirilgan . Boshqarish cho'lg'ami o'zgarmas tok manbaiga ulanib , o'zakni magnitlash uchun xizmat qidi . Ishchi cho'lg'am va nagruzka R_n ketma – ket bog'lanib o'zgaruvchi tok manbaiga ulanadi . Ishchi cho'g'amlar shunday ulanishi kerakki , o'rta sterjenda hosil bo'ladigan oqimlar bir - biriga qarama - qarshi yo'nalgan bo'lsin . Unda har bir boshqarish cho'lg'amida hosil bo'ladigan e.yu.k . ham qarama yo'nalish bir – birini kompensiyalaydi . Boshqarish cho'g'amida qancha tok ko'p bo'lsa shuncha po'lat o'zak shuncha kuchli magnitlanadi va uning magnet o'tkazuvchanligi μ kamayadi . Magnit o'tkazuvchanlikka proporsional ishchi cho'lg'amlarning induktivligi L_n kamayadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi .

$$L_n = \frac{\mu W_n^2 S}{I} \quad (7.5)$$

Bu yerda:

W_n – o'ramlar soni;

S – o'zakning kesim yuzasi;

L – magnitli o'tkazgichning o'rtacha uzunligi.

Induktivlikni kamayishi nagruzka tokini ko'paytiradi.

$$J = \frac{U}{\sqrt{(R_h + R_b)^2 + (wL_n)}} \quad (7.6)$$

Bu yerda:

U – o'zgaruvchan kuchlanishi;

R va R_h – ishchi kuchlanishi burchak chastota;

ω – manba kuchlanishi burchak chasota.

Shunday qilib W_b cho'lg'amda toki J_b o'zgarib . nagruzka toki J_n ni o'zgartiriladi . Natijada nagruzdadan olinayotgan U_{chq} ko'payadi.

Magnitli kuchaytirgichning vibratsiya va qimirlashda ishga yaroqli ekanligini , konstruksiyasining oddiyligi , uzoq muddat ishlatalishi va kuchaytirish koysisentiga ega ekanligi (10 000 va undan ko'p) ularning ko'pgina avtomatlashtirish sistemalarida qo'llanishiga imkon yaratadi .

Ularning kamchiligi esa boshqarish noki J_b bo'imaganda bekor ishlash tokining mavjudligi va boshqarish manba kuchlanishning qutbiga sezgir emaslidir.


Elektron kuchaytirgichlar .

Electron kuchaytirgichlarning ishlash prinsipi electron emissiya hodisasiiga asoslangan . Oddiy lampali kuchaytirgich vazifasida oddiy elektron lampa – triod ishlataladi (7.5-rasm). Boshqarish setkasi va katogda yoki kuchaytirgich kirishiga kuchaytirish zarur bo'lgan o'zgaruvchan kuchlanish yuboriladi . Anod zanjirida ketma – ket nagruzka rezistorli R_a ulanadi .

Kuchaytirgich chiqishida nagruzkada kuchaytirilgan kuchlanish U_{chq} olinadi . Anod kuchlanish manbai E_a anod hosil qilish uchun xizmat qiladi va uning qiymati kuchaytirgich kirishiga beriladigan U_{kch} qiymatiga bog'liq . Lampa setkasida U_{kch} bilan birgalikda o'zgarmas maxfiy setka kuchlanishi E_c resistor R_c orqali ta'sir etadi . Agar lampa setkasida kuchaytiriladigan U_L kuchlanish berilganda , lampa ochiladi va anod zanzirida anod tok J_a xosil bo'ladi . Natijada nagruzka R_a da kuchlanish U_{kch} hosil bo'ladi va quyidagi formula bilan aniqlanadi :


$$U_{chq} = R_a J_a \quad (7.7)$$

Kuchaytirgichning chiqish kuchlanishi kirish kuchlanishiga nisbatiga kuchaytirish koysisenti deb ataladi .



7.5-rasm. Elektron kuchaytirgichning sxemasi .


Avtomatlashvirish sistemalarida oxirgi vaqtarda yarimo'tkazgich triodli (transistor) kuchaytirgichlar ishlataladi . 4- rasmda tranzistorli uchaytirgichlarning mumkin bo'lgan ulash sxemalari ko'rsatilgan . Tranzistorning umumiy kollektorli ulash sxemasi ishlaj rejimi va temperaturaga bog'liq bo'lgan tok bo'yicha kuchaytiradi . (7.6,a- rasm) bu kuchaytirgichning kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koyfisentini (0.8;0.98) bazali tranzistorning ulash sxemasi (7.6,b- rasm) esa kuchlanish bo'yicha signal kuchaytiriladi . Tok bo'yicha kuchaytirish koyfisentini 0.6;0.95 atrosida bo'ladi . Bu kuchaytirgichlarda quvvat bo'yicha kuchaytirish koyfisentini yuqokri umumiy emiterli ulash sxemasi keng qu'llaniladi . (7.6,v- rasm) . Bunday kuchaytirgichlar ham tok bo'yicha ham kuchlanish bo'yicha signalni kuchaytiradi .



7.6-rasm. Tranzistorli kuchaytirgichning sxemasi .
a) umumiy kollektori;b) umumiy bazali;v) umumiy emiteri

Elektromashinali kuchaytirgichlar (EMK)

Avtomatik rostlash sisemalarida kichik quvvatli , elektromashinali kuchaytirgichlar (EMK) ishlataladi . o'zgarmas tokli elektromashinali generatorming bir turi bo'lgan EMK yuqori o'zgarmas aylanish tezligiga ega asenxon elektrodvigatel bilan harakatga keliriladi . Bunday EMK 2 juft bo'ylama o'q (a-a) bo'yicha va ko'ndalang (v-v) o'q bo'yicha (7.7-rasm) ljoylashgan . Shyotkaldardan iborat , (v-v) shyotkalar qisqa tutashgan . Shyotkaning a-a ikkinchi jufti kuchaytirgichning chiqishi bo'lib hisoblanib , nagruzkaga ularadi . Qutublar o'zaklarida 2 yoki undan ortiq natijaviy magnet maydoni Φ_1 hosil qiladi . Bu maydonda yakorning aylanishi natijasida v-v ko'ndalang shyotkada Φ_1 va yakor aylanishga praporsional e.yu.k. hosil bo'ladi . Bu kuchaytirishning birinchi kaskadi bo'lib unda cignal tok bo'yicha kuchaytiriladi .



7.7- rasm. Elektromashinali kuchaytirgichning sxemasi

Ko'ndalang magnet oqimi Φ_1 , a-a bo'ylama shyotkada J_0 tok va kichik e.yu.k. $\epsilon(U_{shq})$ hosil qiladi . Shunday qilib EMK da ikki pag'onali kuchaytirish olib boriladi . Birinchi pafonada Φ_1 , magnet oqimi ta'sirida va ikkinchi pagonada ko'ndalang magnet oqimi Φ_2 , ta'sirida signal kuchaytiriladi .

Sxemada kompensatsion cho'g'am KO bo'ylama o'q bo'yicha yakorning ta'sirini kompensatsiyalash uchun ishlataladi . Kompensatsion cho'lg'am KO ga parallel rostlovchi rheostat R_{sh} ularadi . EMK larning boshqarish cho'lg'amlarini induktivligi kichik , shuning uchun ular kichik inersionligka (0.1:0.3) va yuqori quvvat bo'yicha kuchaytirish koyfisenti – 10 000 gacha ega . EMK larning ishini xarakterlaydigan kattaliklaridan biri ularning ko'paytirish koyfisenti , tez ishlashi va ishga yaroqli ekanlidir .

Quvvat bo'yicha birinchi pag'ona kuchaytirish koyfisenti

$$K_1 = \frac{P_1}{P_s} = \frac{E_s J_0}{U_s J_0}, \quad (7.8)$$

Quvvat bo'yicha ikkinchi pag'ona kuchaytirish koefitsienti

$$K = \frac{P_e}{P_r} = \frac{U_e J_e}{J_r E_r}, \quad (7.9)$$

EMK ning umun'iyligini kuchaytirish koefitsienti

$$K_r = K \cdot K_2 = \frac{U_r J_r}{U_e J_e}, \quad (7.10)$$

Magnitli va electron kuchaytirgichlarni ish unumdonligi elektromashinali kuchaytirgichlarga nisbatan yuqoriligi uchun ishlab chiqarishni avtomatlashishda keng qollaniladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fotoelektron relening ishlash risipi?
2. O'zgarmas tok relesining ishlash prisipi?
3. Elektromexanik rele ning ishlash prisipi?
4. Rele haqida umumiyligini tushuncha bering?
5. Kuchaytirgichlarning turlarini aytинг?
6. Magnitli kuchaytirgichning ishlash usuli nimafa asoslangan?
7. Elektronli relening asosiy elementi nima?
8. Elektromashinali kuchaytirgich necha pog'onada kuchaytiradi?
9. Qanaqa vaqt releleri bor?
10. Kuchaytirish koefitsienti qanday topiladi?

VIII-bob. PNEVMATIK O'CHILASH ASBOBLARI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Kimyo, neftni qayta ishlash, gaz va oziq - ovqat sanoati yong'in va portlash xavfi bor ishlab chiqarishda pnevmoavtomatika keng qo'llaniladi.

Pnevmatik priborlar elementli va blok - modul prinsipi asosida tuziladi. Ushbu prinsip USEPPA (universal'naya sistema elementov promqshlennoy pnevmoavtomatiki) sistemasini yaratishga imkon yaratdi.

Ushbu sistema elementlari asosida chiqariladigan pnevmatik asboblar avtomatik kontrol' va avtomatik rostlash sitemalarida qo'llaniladi.

USEPPA sistemasi bir nechta standart elementlardan tuzilgan. Har bir element alohida operatsiyani bajaradi. Bu sistemaga taqqoslash elementi, rele, quvvat kuchaytirgich, zadatchiklar, pnevmoknopkalar, tumblerlar, pnevmoqarshiliklar, o'chirib yoqgich va boshqalar. USEPPA elementlari asosida uzlusiz rostagichilar, optimizatorlar, hisoblash qurilmalari, o'lchash priborlar, boshqarish paneli chiqarilmoqda.

GOST 9468-60 va GOST 13053-67 asosida pnevmatik asboblar va qurilmalar quyidagi kirish va chiqish signallariga ega bo'lishi kerak:

1. Kirish va chiqish analog signallarning ishchi diapozioni $0,2 - \text{kg}/\text{cm}^2$;
2. Diskret kirish va chiqish signallar uchun "0" va "1" kod qabul qilingan.
3. Diskret signal "0" - 0 - $0,1 \text{ kg}/\text{cm}^2$;
4. Pnevmanomba bosimi $1,4 - 0,14 \text{ kg}/\text{cm}^2$;
5. Ijro etuvchi mexanizmlar privodlari uchun pnevmanomba bosimi 1,4; 2,5, 4 va $6 \text{ kg}/\text{cm}^2$.

Pnevmoavtomatik sistemalar yaratishda yuqorida ko'rib o'tilganlardan tashqari har xil texnologik kattaliklar datchiklari va o'zgartgichlari, elektropnevmatik va pnevmoelektrik o'zgartkichlar va pnevmatik ijro etuvchi mexanizmlardan ham foydalananiladi.

Pnevmoavtomatik sistemalarda elementlarni ulash uchun misli va alyumilli trubalar ishlataladi. Polietilenli va polivinilxloridli trubalar ham keng qo'llaniladi.

Pnevmatik prinsipial sxemalarda asboblar, yordamchi qurilmalar va aloqa liniyalar shartli belgiali.


Nomlanishi	Bedgilanishi
O'chirib yoqgich kontaktlari:	
Tutashtiruvchi	

	Ajraluvchi	
	O'chirib yoquvchi	
	Oxirgi o'chirgich kontaktlari :	
	Tutushtiruvchi	
	Ajraluvchi	
	Knopka tutushtiruvchi kontakt bilan	
	Knopka ajraluvchi kontakt bilan	
h	Zashapkali knopka	
	Pnevmorele kontakti	
	Texnik datchik kontakti	
	Gudok	
	Indikator	
0	Atmosfera	
1	Rostlanmaydigan pnevmodrossel'	
2	Rostlanadigan pnevmodrossel'	
3	Manba	

4	Soplo - zaslona qurilmasi	
5	Soplo yopiq	
6	O'zgarmas hajmli pnevmokamera	
7	O'chirib yoqgich	


Drossel' o'zidan o'tayotgan havo sarfini mahalliy qarshiligining o'zgarishi orqali o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

Ular o'zgarmas, rostlanadigan o'zgaruvchan turlariga bo'lindi.



O'zgarmas

Rostlanadigan




Soplo-zaslona



Sharik silindr

8.1.- rasm.

Pnevmonokamera qisilgan havoni toplash uchun ishlataladi. Uning hajmi 50 sm³. Havoning kelib ketishiga qarab ular "gluxoy" va "protochniy" bo'ladi.



8.2.- rasm. Pnevmostameraning sxemasi


Taqqoslash elementi. Ikki yoki to't kirish signallarni solishtirish uchun ishlataladi va 0 yoki 1 signal hosil qiladi. Uch membranalni va besh membranalni taqqoslash elementlari mavjuddir.

$$R_{\text{ch}q}=1$$

$$R_1 > R_2$$

$$R_{\text{ch}q}=0$$

$$R_1 < R_2$$



8.3.- rasm. 3 va 5 membranalni taqqoslash elementlari


$$R_{\text{ch}q}=1$$

$$R_1+R_3 > R_2+R_4$$

$$R_{\text{ch}q}=0$$


$$R_1+R_3 < R_2+R_4$$

Quvvat kuchaytirgichlari.



8.4- rasm. Quvvat kuchaytirgichlari:

a) kam quvvatli; b-quvvatli; v- aniq quvvatli



8.5- rasm. O'chiruvchi rele

a- zadatchik; b-o'chiruvchi rele.

Taqqoslash elementi.

3 membranali taqqoslash elementida 2 ta kirishli 4 ta kameradan iborat bo'lib, 3 ta bir - biri bilan bog'langan membranalni bloklardan tuzilgan. Bu membranalni bloklar bir - biri bilan shtoklar bilan bog'lanib, perimetri bo'yicha qotirilgan. Chetki membranalar qattiq markazlari A va G kameralarda sopolar uchun zaslona va zifasini bajaradi. Manba havosi yuqori soplo orqali G kamerasiga keladi.

Pastki soplo esa kamera A ni atmosfera bilan bog'laydi. A va G kameralarning bosimi - P_{dug} taqqoslash elementining chiqish signalini bo'lib hisoblanadi. Membranalni bloki kameralardagi bosimlar kuchi ta'sirida bo'ladi.

Agar $P_1 > P_2$ bolsa, natijaviy kuch pastga yonalib, membranalni bloki pastga tushudi. Kamera A dagi soplo yopilib, atmosfera havosining chiqishini to'sadi. G kameralarda esa soplo oqilib manba havosi ko'pavadi va A va G kameralardagi P_{dug} ga teng signal hosil qiladi. Agar $P_1 < P_2$ bolsa, membranalni bloki yuqoriga harakatlantirilib kamera G soplosi yopiladi va havoni ketishi to'xtaydi.

Kamera A Jagi sopl olib chiqish kameradagi havo atmosferaga chiqib ketadi va P_{chq} 0 ga teng bo'libdi.

5 membranali taqqoslash elementi esa 4 ta kirishga ega bo'lib 6 ta kameraladan ibora'. Kirish signalari B,V,C,D kameralarga beriladi. Chiqish signali esa A va Ye kameralardan olinadi.Bu element pnevmatik rele bo'lib quyidagi operatsiyani hajara si.

$$P_{\text{chq}} = 1$$

$$P_{\text{chq}} = 0$$

$$R_1 + R_2 > R_2 + R_4$$

$$R_1 + R_3 < R_2 + R_4$$

Quvvat kuchaytirgichlar cniqishda havo sarfini kuchaytirish uchun ishlataladi.

Kam quvvatli kuchaytirgichda P_{chq} signal B kameraga beriladi. A kameraga o'zgaras drossel' orqali manba bosimi beriladi. A kamerani chiqishida P_{chq} q signali olinadi.

P_{chq} ko'payishi bilan membrana pastga haraktlanadi va sopl - zaslonda o'tasidagi masofa kichravib, A kameralda havoni atmosferaga uzatish to'xtaydi. Rchiq signal kuchayadi.

Quvvatli kuchaytirgich yuzasi 2 ta bir xil membrana va klapan - drosseldan iborat. Klapan - drossel kamera A dan B ga, B dan V kameralarga havoni rostlash uchun xizmat qiladi. Manba bosimi kamera A ga beriladi. Rchiq signal B kameralidan olinadi. Rk signal G kameraliga beriladi.

P_{chq} ko'payishi bilan membranali blok pastga tushadi. Kamera A dan klapan orqali kamera B hevo oqimi o'tishi kuchayadi va P_{chq} ham ko'payadi.

P_{chq} kamayishi bilan membranali blok yuqoriga ko'tariladi. Havoni kelishi to'xtaydi. Lekin zaslonda soplodpn ajraladi. Shuning uchun kamera B dan shtok orqali kamera V ga havo o'tadi va u orqali atmosferaga chiqib ketadi.

Muvozanat holat bo'lganda membrana va zaslonda shunday holatni egallaydiki, kamera A dan kamera B ga o'tayotgan havo kamera B dan V ga ketayotgan va atmosferaga chiqayotgan havo bosimiga teng bo'lсин.

Aniq quvvatli kuchaytirgichda P_{chq} ko'payishi bilan membranalar harakatlaniib bir - biridan uzoqlashadi va G,E kameralardagi soplolarni yopadi. Natijada atmosferaga chiqadigan havo kamayadi va Ye,G va D kameralarda bosim ko'payadi.

Bosimlar farqi ta'sirida pastki membranani pastga bosadi va klapanni ochadi. Natijada kamera A dan B ga o'tayotgan havo bosimi ko'payib P_{chq} ham ko'payadi. Zadatchik o'zgarnas drossel' bilan birgalikda berilgan signalni qo'l bilan o'matish uchun xizmat qiladi.

Membranaga kamera B tomonidan prujina kuchi ta'sir qilsa, kamera A dan esa havoning bosim kuchi ta'sir qiladi. Prujinaning qattiqligini vintni burah o'zgartirilsa, membrana harakatlaniib sopl - zaslonda o'tasidagi masofani o'zgartiradi. A

kameradan atmosferaga chiqayotgan havoni ham o'zgartiradi. Natijada kamera A da havoning bosimi va P_{chq} o'zgaradi.

O'chiruvchi rele kirish signallarni komandali diskret signal bo'yicha o'chirib yoqish uchun xizmat qiladi. Membrananing qattiq markazlari soplolar uchun zaslona vazifasini bajaradi.

Soplo s1 - normal ochiq s2 - normal yopiq .P1 va P2 kirish signallari s1 va s2 soplolarga beriladi. P_{chq} komandli signal esa kamera A ga berilib, P_{chq} B kameradan olinadi.Rkq0 membranalni blok prujina ta'sirida pastga tushadi. oplo s2 yopiladi. s1 ochiladi. Signal R₁ chiqishga uzatiladi. Membranalni blok yuqoriga ko'tariladi. Soplo s2 oqilib, s1 yopiladi. P_{chq} R2 signal uzatiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pnevmatik kirish va chiqish signallari diapazoni qanday?
- 2.Pnevmatik asboblar qanaqa printsip asosida tuzilgan ?
3. Qanaqa pnevmatik elementlarni bilasiz ?
4. Pnevmatik asboblarni manbaa bosimining qiymati nimaga teng?
5. Pnevmatik asboblarni qaerlarda ishlataladi?
6. Taqqoslash elementi nina vazifani bajaradi?
7. Soploni vazifasi nimadan iborat?
8. Zaslona nima uchun ishlataladi?
9. Ijro etuvchi mexanzmlarning manbaa bosimi nechaga teng?
- 10.Diskret signal nechaga teng?


IX-bob. MASOFADAN TURIB O'LCHASH SISTEMALARI.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlarni boshqarish qulay bo'lishi uchun ko'pgina kontrol o'lchov asboblarini maxsus pul'larda joylashtiriladi. Buni amalga oshirish uchun har xil distansion sistemalar ishlataladi.

Distansion sistemalar orqali asboblarining ko'satikchilari 200-500 m masofaga elektrik sistemalar, 160 m ga pnevmatik va 60 m gacha gidravlik sistemalar orqali uzatiladi. Uzoq masofaga signallarni uzatish uchun telemetrik sistemalar ishlataladi.

Elektrik distansion ko'satishni masofaga uzatish sistemalari.


Reostatli uzatish sistemasi. O'lchov asboblari sezgir elementi bilan kinematik bog'langan reostatli (potensiometrik) o'zgartgichlar reostatli uzatish sistemasining asosiy elementi bo'lib hisoblanadi. Reostatli o'zgartgichning surgichi o'chanayotgan kattalik o'zgarishi bilan harakatlanadi. Shunday qilib, sezgir elementning chiqish harakati reostatning elektr qarshiligini o'zgarishi hisobiga o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tokka aylantiriladi.



9.1. - rasm. Reostatli distansion uzatish sistemasini principial sxemasi.

Biror-bir fizik yoki texnologik kattalikni o'lchashda reostat surgichi 2 potensiometr bo'ylab, o'chanadigan kattalik o'zgarishiga proporsional suriladi. O'zgartgichning elektrik qarshiligini o'zgarishi esa chiqish kuchlanishini o'zgartiradi va ular yo'li 3 bo'ylab, ikkilamchi asbob 4 ga uzatiladi. Shunday qilib, potensiometr surgichi o'chanadigan kattalik o'zgarishiga proporsional harakatlanadi, ikkilamchi asbob yordamida o'chanadigan chiqish kuchlanishi o'chanadigan kattalik o'zgarishiga proporsionaldir. Shuning uchun ikkilamchi asbob o'chanadigan kattalik birligida graduirovkalanadi. Bu uzatish sistemalari bilan avtomatik ko'priklar, potensiometrlar va avtomatik rostlash sistemalarida elektrik ijro etuvchi mexanizmlar bilan boshqarishning transformator - differentisl sistemasi ikkilamchi asboblari jihozlanadi. Bu sistemalarning asosiy kamchiligi - kontaktlarni tez ifloslanishi his oblanadi.

Differensial transformatorli uzatish sistemasi



9.2.-rasm. Differensial-transformatorli uzatish sistemasining principial sxemasi.

Sistema birlamchi va ikkilamchi asbobda joylashgan ikki juft induksion transformatorli g'altak va elektrik uzatish yo'lidan iborat. O'zgartigich g'altakka ikki seksiyali birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar o'ralgan bo'lib, bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan. Shuning uchun (ikkilamchi asbobda) seksiyalarida induksiyalangan elektr yurituvchi kuchlar qarama -qarshi ishoraga ega. Ikkilamchi asbob qabuq qilish elementida ham xuddi shunday ulangan. Xar bir g'altak ichida yumshoq po'latdan yasalgan plunjер (o'zak) o'matilgan. G'altak ichida o'zak barakatlanib, birlamchi va ikkilamchi chulg'amlar oqirilarini o'zgartiradi, shuning uchun ikkilamchi chulg'am seksiyasida hosil bo'lgan magnit oqimi bir xil bo'lmaydi va hosil bo'lgan EYuK ham har xil bo'ladi. Sistemaga manbaa kuchlanishi g'altakni birlamchi chulg'amlari orqali keladi. O'zakni o'rta holatida o'zgartigich g'altagining ikkilamchi chulg'amidagi kuchlanishi nolga teng, chunki

$$\Delta U_D = l_1 - l_2 = 0 ; \quad (9.1.)$$

Ikkilamchi asbob g'altagi chiqishida kuchlanish

$$\Delta U_{i\mu} = l_3 - l_4 = 0 ; \quad (9.2)$$

Elektron kuchaytirgich kirishiga berilayotgan umumiyl kuchlanish o'zgartigich g'altagi va qabul qiluvchi g'altagidan kuchlanishlar ayirmsiga teng

$$\Delta U = \Delta U_D = -\Delta U_{i\mu} = 0 ; \quad (9.3)$$

Bu holalda sistemni muvozanat holatida bo'ladi. Seksiyalarda o'zakni har qanday boshqa holatlarda EYuK induksiyalanadi. O'zgartigich o'zagi o'lchov asbobi sezgir elementi bilan (sil'fon, kalkovich, membrana) bog'langan. O'lchanayotgan kattalik o'zgarishi biyan o'zakni holati o'zgaradi, elektron kuchaytirgichga kelayotgan kuch'anishlar farqi ham o'zgaradi.

$$\Delta U = \Delta U_D - \Delta U_{IA} : (9.4)$$

Nomoslik kuchlanishi kuchaytirilib, elektrodvigatelni boshqaruvchi chuiq'amiga uzatiladi. Elektrodvigatelni vali kulachok orqali ikkilamchi asbob o'zagi bilan bog'langan. Elektrodvigatelni aylanishi bilan ikkilamchi asbob o'zagi nomoslikni kuchayishi toinonga harakatini to birlamchi o'zgartigich va ikkilamchi asbob o'zaklarining holati simmetrik bo'lgunga qadar davom ettiradi. Bunda ikki g'a'tak chiqishida kuchlanishlar tenglashadi, umumiy kuchlanish nolga teng bo'ladi va sistema muvozanat holatiga keladi.

Shunday qilib, sistemaning muvozanat holatida o'lchanayotgan kattalikning har qanday o'zgarisiga o'zgartigich va ikkilamchi asbob o'zagingining harakati mos keladi. Ikkilamchi asbobning ko'satuvchi va o'ziyozar qismi elektrodvigatel' bilan kinematik bog'langanligi sababli o'lchanayotgan kattalikni qiymatini ko'ssatadi.

O'lhash texnikasida differensial - transformatorli sistemani KSD turidagi ikkilamchi asbobleri ishlataladi:


O'z - o'zidan sinxronadigan sel'sin uzatish sistemasi

Zamonaviy vtoplomatik qurilmalarda sel'sin (induksion mashina) lar yordamida ishlaydigan o'z-o'zidan sinxronlashadigan sel'sin uzatish sistemalari keng qo'llaniladi. Sel'sinni rotor va statori nozik elektrotexnik po'latdan yasalgan bo'lib, stator uch fazali 1200 burchak ostida cho'lg'am bilan o'ralgan. Stator chulg'amlari besh yulduz yoki uchburchak usulida bog'langan bo'ladi.

Sel'sin rotori esa bir fazali qo'zg'atish chulg'ami bilan o'ralib, kontakt xalqlarini orqali kuchlanish manbaini o'zgaruvchan toki beriladi. Bir fazali o'zgaruvchan tok rotor cho'lg'amlari bo'ylab oxib, unda o'zgaruvchan magnit maydoni hosil qiladi. magnit maydon esa o'z navbatida stator chulg'amlari bilan kesishib, kuchlanish manbai chastotasiga teng EYuKni

Induksiyalaydi. Rotorni har xil aylanishiga mos stator chulg'amlarida har xil qiymatda EYuK hosil bo'ladi. Agar rotoring o'qi stator chulg'amlari bir fazasi bilan to'g'ri kelsa, statorda maksimal EYuK hosil bo'ladi. agarda rotor 900 ga burilsa, statorda EYuK hosil bo'lmaydi, agar rotor shu yo'nalishda yana 900 ga burilsa (dastlabki holatidan 1800 ga)

Teskari ishora bilan EYuK maksimal qiymatga ega bo'ladi. Sel'sinlar bajaradigar funksiyasiga ko'ra juft sel'sin o'zgartigich va sel'sin - qabul qiluvchi bo'lib ishlaydi va infonnatsiyani masofaga uzatuvchi sel'sinli uzatish sistemasini tashkil etadi. 95. rasmida sel'sinli uzatish sistemasini sxemasi keltirilgan.



9.3.-rasm. Sel'sinli uzatish sistemasining principiyal sxemasi.

Birlamchi asbobda joylashgan sel'sin o'zgartgich va ikkilamchi asbobda o'matilgan sel'sin qabul qiluvchi bir xil konstruksiyaga ega.

Sel'sinli burilish burchagini sinxron uzatish rejimini ko'rib chiqamiz. Bu rejimda ishlaydigan sel'sinning ishi oddiy transformator ishiga o'xshaydi. Bu yerda birlamchi chulg'um sifatida rotor cho'lg'ami, ikkilamchi chulg'am - uch fazali stator chulg'ami hisoblanadi.

- sel'sin o'zgartgichni burilish burchagi
- sel'sin qabul qiluvchini burilish burchagi

- bu burchaklar o'tasidagi farq bo'lqanda, sel'sin o'zgartgich va sel'sin qabul qiluvchi statorlari cho'lg'amlarida bir xil EYuK hosil bo'ladi,

ya'ni

$$E_1 = E_1 ; \quad E_2 = E_2 ; \quad E_3 = E_3 ; \quad (9.5.)$$

Fazalar bir-biriga qarama-qarshi ulanganligi sababli, har bir EYuK bir-birini kompensatsiyalaydi, natijada ular simlari toksiz qoladi.

O'chanayotgan kattalik o'zgarishi bilan sezgir element holatini o'zgarishi va sel'sin o'zgartgich rotorni burilishi natijasida EYuK lar muvozanati buziladi, nobalans hosil bo'ladi, ular simlariда tok oqib, sinxronlashadigan moment hosil bo'ladi.


Natijada sel'sin o'zgartgich rotorini kerakli burchakka o'zgaradi. Sel'sin qabul qiluvchi rotorini sel'sin o'zgartgich rotorini holatini egallagunga qadar harakatni davom ettiradi. Shunda nobalanslik nolga teng bo'ladi. Sel'sin

qabul qiluvchini rotori esa ikkilamchi asbobning ijobi etuvchi elementi (ko'rsatish strelkasi, elektrik kontaktlar, yozuvchi pero) bilan kinematik bog'langanligi sababli ikkilamchi asbob birlamchi asbob ko'rsatishini takrorlaydi.

Bu sistemalar har xil kattaliklarni masofadan o'lchanashda, komandalarni uzatishda, signalish astoblarida, nazorat o'lchanash sistemalarida, rostlash va boshqarish sistemalarida hamda hisob-kitob asboblarida keng qillanildi.

Ko'rsatishni ferrodinamik uzatish sistemasi

Ferrodinamik uzatish sistemasi o'zgaruvchan tokda ishlab, o'lchanayotgan kattalikni ferrodinamik o'zgartigichli birlamchi asbob bilan o'lchab signalni ikkilamchi asbobga uzatish uchun mo'ljallangan 9.4.- rasm). Ferrodinamik o'zgartigich sezgir element burchakli siljishini o'zgaruvchan tokni proporsional EYuK ga aylantiradi.



9.4. rasm. Ferrodinamik uzatish sistemasini principial sxemasi.

Ferrodinamik distansion uzatish sistemasining ishlash prinsipi birlamchi asbob (B) o'zgartigich EYuKni ikkilamchi asbob (I) ferrodinamik o'zgartigichi EYuK ga kompensatsiyalashga asoslangan.

Sistema birlamchi asbob ferrodinamik o'zgartigich DF-1, ularash yo'li 2, ikkilamchi asbob ferrodinamik datchigi DF-2, elektron kuchaytirgich 1, reversiv elektrosvigatel' 3 dan tuzilgan.

Bir'amchi asbob ferrodinamik o'zgartigichning ramkasi sezgir element bilan bog'langan. O'lchanayotgan kattalik o'zgarishi bilan proporsional hosil bo'ladigan Ye1 - EYuK o'zgartigich ramkasiga ta'sir qilib, uni burilish burchagi ni o'zgartiradi.

Ikkilamchi asbob ferrodinamik o'zgartigichi mexanik ravishda elektrosvigatel' bilan bog'langanligi sababli o'zgartigich EYuK - Ye2 o'zgarishiga mos uni burchakka buradi.

Birlamchi va ikkilamchi asbob ramkalarini ketma-ket bog'langanligi sababli ularda hosil bo'ladigan EYuK lar bir - biriga qarama-qarshi yo'nalgan, shuning uchun elektron kuchaytirgich kirishiga ikkala o'zgartigich EYuKlar ayirmasi beriladi.

Agar bo'lsa, sistema muvozanatda bo'lib, elektrosvigatel' aylanmaydi. O'lchanayotgan kattalik o'zgarishi bilan burchak va EYuK - Ye2 o'zgaradi. Sistemaning muvozanat holati buziladi. elektron kuchaytirgichga - EYuK keladi.


Elektron kuchaytirgich chiqishidan kuchlanish elektrodvigatelga beriladi va ikkilamchi asbob o'zgartigich ramka va strelkasini harakatlantiradi.

Strelka harakati Yel va Ye2 hamda va lar muvozanatigacha davom etadi.

Ko'rsatishni pnevmatik distansion uzatish sistemalari

Ko'pgina zamonaviy pnevmatik asloblarda o'matiladigan o'zgartigichlar o'lchanayotgan kattalik o'zgarishini pnevmatik signalga aylantirish uchun xizmat qiladi.

"Soplo-zaslonka" turidagi pnevmoo'zgartigich (to'g'ri o'zgartirish)



9.5.- rasm. "Soplo-zaslonka" turidagi pnevmoo'zgartigichni principial sxemasi

Pnevmo'zgartigich (9.6. rasm) o'zgarmas rostlanmaydigan qarshilik drosseli DP, otish kamerasi DP, rost'anadigan o'zgaruvchan qarshilik drosseli DU, ikkilamchi asbob VP dan iborat. Tashqi manbaidan chang, yog' va namdan tozalangan qisilgan havo R1 bilan drossel' DP orqali kamera PK ga beriladi. Havo atmosferaga soplo-zaslonka 2 bilan birligida boshqariladigan o'zgaruvchan qarshilik drosseli tashkil etadi. O'z navbatida DP va DU otish kamerasi PK ni hosil qiladi (sopoli yoki drosselaro kamera) ulash yo'lli PS orqali ikkilamchi asbob kamerasi.


Soplo 1 zaslonka 2 bilan birgalikda boshqariladigan o'zgaruvchan qarshilik drosseli tashkil etadi. O'z navbatida DP va DU otish kamerasi PK ni hosil qiladi (sopoli yoki drosselaro kamera) ulash yo'lli PS orqali ikkilamchi asbob kamerasi KVP bilan bog'lanadi.

O'lchanadigan kattalik ta'sirida soplo 1 ga nisbatan harakatlanadigan zaslonka 2 ni holati DU drosseli otish yuzasini aniqlaydi, bu o'z navbatida PK kameradagi buyruqli bosim R2 qiyamatini ifodalaydi.

Harakatni kompensatsiyalash usulida ishlaydigan pnevmoo'zgartgich

Pnevmo'zgartgich (9.6.- rasm) o'zgarmas drossel O'D, o'tish kamerasi PK, ikkilamchi asbob kamerasi KVP, ulash yo'li AYU, boshqariladigan drossel', soplo 1, zaslanka 2, o'lchash richagi 8, tyaga 3, sil'fon 5, prujina 4, 6 va shtok 7.

Kirish signali (seczgir element harakati) X ni o'zgarishi o'lchash richagi 8 ni oxirini qiymatga harakatlantiradi. Bu harakat soplo 1 va zaslanka 2 o'rtaсидиги bo'shliq h ni o'zgartiradi va manbaadan kelayotgan o'zgarmas bosim R1 li qisilgan havo R2 ni o'tish kamerasida o'zgartiradi. PK kameradagi bosimni o'zgarishi truboprovod PS bo'ylab KVP kamerada va sil'fon ostidagi germetik bo'shliqda tarqaladi.




9.6.-rasm. Harakatni kompensatsion usulda ishlaydigan pnevmoo'zgartgichni principial sxemasi.

Bosim R2 ni o'zgarishi teskari aloqali sil'fon 5 richag orqali 8 richagni ikkinchi uchini u qiymatga surguncha davom etadi.

Unda bo'shliq h ham bosim R2 sil'fon 5 ostini u masofaga harakatlagunga o'zgarishini davom ettiradi. Shtok 7 yordamida kirish signali nolga teng bo'lganda xohlagan boshlang'ich chiqish signalini hosil qilish mumkin.

Ko'rsatishai distansion gidravlik uzatish sistemasi

Gidravlik sistema (9.7-rasm) 2 ta bir-biri bilan impul'sli trubka bilan bog'langan va transformator yog'i bilan to'ldirilgan sil'fondan iborat.




9.7.- rasm. Gidravlik uzatish sistemasini prinsipial sxemasi.

Birlamchi asbob PP sil'soni o'lchanayotgan kattalik o'zgarishi bilan uzunlik bo'yicha o'zgaradi. Sistemadagi suyuqlik siqilmaydigan xossaga ega bo'lganligi sababli ikkilamchi asbob VP sil'soni ham teskari tomonda yo'nalgan shunday uzunlik bo'yicha harakatlanadi. Shuning uchun ikkilamchi asbob ko'rsatishi birlamchi asbob ko'rsatishi bilan bir xil bo'ladi.

Gidravlik sistemalar bir nechta kamchiliklari borligi sababli ishlatalish sohalari chegaralangan. Bu kamchiliklarga issiqqlikni o'zgarishiga sezgirligi, suyuqlikni koroziyasi va trubalarda tikilib qolishi ham to'kilib ketishlari misol bo'ladi.

Son - impul'sli sistema

9.8 - rasmida uzoq harakatli son-impul'sli teleo'lchash sxemasi keltirilgan. Bu sistemaning ishlash prinsipi u yoki bu o'lchanayotgan kattalikni o'zgarishini proporsional o'zgarmas tokni impul'slar soniga o'zgartirishga asoslangan. Sxema uzatish qurilmasi PU, qabul qilish qurilmasi UP va aloqa yo'llidan iborat.



9.8 - rasm. Son-impul'sli sistemaning prinsipial sxemasi.

Sathni o'zgarishi bilan qalqovich 1 harakatlanadi. Teskari yuk 2 yordamida tros 3, blok 4 va ular orqali reduktor tishli g'ildirakni harakatga keltiradi.

Sathni o'zgarishiga mos tishli gildirak impul'slar o'zgartigichi Di ni chap yoki o'ng kontaktlari tutashtiradi.

Bunde kutbli rele yakori chulg'amlarida o'zgarmas tokli u yoki bu yo'nalishda impul'slar uzatiladi. (musbat - K1 kontakt tutashganda yoki manfiy K2 - kontakt tutashganda). Qabul qiluvchi qurilma UPda K1 kontakt tutashganda qutbli rele PR ishga tushadi va kontakt guruhi K3 elektromagnit E1 mahalliy batareyaga ulaydi.

K2 kontaktlar ulanganda esa K4 kontakt guruhi xuddi o'sha elektromagnit E2 ni ulaydi. Elektromagnit yakorni tortadi. uning oxiridagi element 6 esa xrapovik 9 ni suradi, bu esa o'z navbatida o'lchash asbobi ko'satkichini harakatlantiradi.

PU qurilmadas yuborilgan impul'slar soni qalqovichning harakatiga mos bo'lgani uchun, qabul qiluvchi qurilma strelkasi ham sathga proporsional harakatlanadi. Shuning uchun 8 asbob shkalasi sath birliklarida darajalangan.

Chastota - impul'sli sistema

Bu sistema (9.9 - rasm), o'lchanadigan kattalik o'zgarishini signal chastotasini o'zgarishiga aylantirib beradi.

Sxema uzalisi: qurilmasi PU, qabul qiluvchi qurilma UP va aloqa yo'lidan iborat. Bu yerda quvvat o'zgarishini chastotasi o'zgaradigan impul'sga aylantiradigan induksion schetchik ishlataladi. O'lchanadigan quvvatni o'zgarishiga schetchik diskini aylanish tezligi proporsionaldir.

$$n = SR \quad (9.6.)$$


bu yerda: S - o'zgarmas kattalik.

Impul'slar o'zgartigichi yifatida ishlataladigan elektrik schetchik tok uzgich bilan jihozlangan bo'lib, schetchik diskini burchakka burilganda zanjir yo'lini tutashtiradi yoki ajratadi.

Agar schetchik diskini bir marta aylanganda zanjir yo'li m marta tutashtirsa, diskni m tezligi bilan yo'lda davriy chastotali impul'slar uzatiladi.

$$f = mn; \quad (9.7.)$$

$$\text{yoki } f = mCP; \quad (9.8.)$$



9.9.- rasm. Chastota - impul'sli sistemasini prinsipial sxemasi.


Shunday qilib, quvvatni teleo'lchashda impul'slar chastotasi o'lchanadigan kattalikka proporsional bo'ladi.

Schetnikni o'qi 1 aylanishi bilan nur manbai 2 dan nur oqimi linza 3 dan so'ng aylanuvchi disk 4 dan to'g'riburchakli tishli bo'lib o'tadi, chastotasi esa, aylanish chastotasiga teng ya'nı o'lchanadigan quvvatga proporsionaldir. Xuddi shunday chastota bilan (10-12 Gr gacha) bir vaqtini o'zida fotoelement FE zanjirida tok impul'slari ham o'zgaradi. Bu o'zgarish kuchaytirgich U chiqishida aloqa yo'lida va sezgir rele R ni chulg'amlarida ro'y beradi. Agar rele chulg'amlarida tok impul'slari bo'lmasa, qo'zg'aluvchi kontaktlar yuqori pozitsiyasini tutashtiradi. Bunda qarshilik R, va ko'rsatuvchi asbob PP, kondensator S U2 kuchlanishgacha zaryadlanadi. Rele chulg'amlarida tok berilishi bilan kontaktlar pastki pozitsiyada tutashadi.

Kondensator S va qarshilik R2 zaryadsizlanadi.

Vaqt - impul'sli sistema

Vaqt - impul'sli sistemaning ishlash prinsipi aniq vaqtga ega bo'lgan impul'slarni uzatishga asoslangan. Sistema (9.10. - rasm) uzatish qurilmasi PU qabul qilish qurilmasi UP va aloqa yo'lidan iborat.



9.10. - rasm. Vaqt impul'si sistemaning prinsipial sxemasi.

Uzatish qurilmasi o'z navbatida sinxron elektrosvigatel' 1, val 2 ga o'rnatilgan misli yarim halqalar 3,5 dona metall shyotkadan iborat. Shyotkalarga aloqa yo'l orqali UP qurilmasi R relesi ulangan.

Telco'lchash sistemasini ishlashida sinxron elektrosvigatel' o'zgarmas tczlikda ishlaydi. Shyotka 5 va shyotka 4 bir tekislikda yotsa, aylanuvchi yarim halqalar manbaa zanjiri tutashiga yo'l qo'ymaydi. shu bilan aloqa yo'lini U, kuchlanish bilan ta'minlaydi.

O'lchanadigan kattalikni o'zgarishida shyotka 5 yarim halqa 3 bo'ylab, harakatlanib 4 shyotkaga yaqinlashadi. Natijada aloqa yo'lida vaqt impul'slar yuboriladi, bu impul'slar shyotka 5 ni harakatiga yoki o'lchanadigan kattalikka

proporsional bo'ladi. Qabul qiluvchi qurilma UP da ishlovchi rele R ni kontakt juftlari K ni tutashishida asbob PP orqali tok impul'slari kuchlanishi U2 ni xuddi shunday vaqt bilan aloqa yo'liga yuboradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Elektrik distansion ko'rsatishni masofaga uzatish sistemalari ?
2. Differensial transformatorli uzatish sistemasini tusuntiring ?
3. O'z - o'zidan sinxrolanadigan sel'sin uzatish sistemasini tusuntiring ?
4. Ko'rsatishini ferrodinamik uzatish sistemasini tusuntiring ?
5. Ko'rsatishni pnevmatik distansion uzatish sistemalari tusuntiring ?
6. Ko'rsatishni distansion gidravlik uzatish sistemasini tusuntiring ?
7. Son - impul'sli sistemasini tusuntiring ?
8. Masofadan uzatish sistemalarini ahamiyati nimada?

ADABIYOTLAR:

- 1.Yusufbekov N.R., Muhammedov B.E., G'uulomov SH.M. Texnologik jarayonlami boshqarish sistemalari. Toshkent. "O'qituvchi", 1997.-704 b.
2. Muxammedov B.E Metrologiya, texnologik parametrlarni o'lchash usullari va asboblari. Toshkent. "O'qituvchi", 1991. – 319 b.
3. Mansurov X.M. Avtomatika va paxtani dastlabki ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish. Toshkent. "O'qituvchi", 1991.
- 4.Artikov A.A. va boshqalar.Konservalashda ishlab chiqarish jarayonlarini dasturlash va avtomatlashtirish. Toshkent."Iqtisod-Moliya",2010.
5. Usmonov A.U., Shomurodova D.M. Nazorat o'lchov asboblari va ularni o'rnatish. Toshkent "Bilim", 2005. – 136 b.
- 6.Гончарев А.А.,В.Д.Копылов. Метрология, стандартизация и сертификация.Москва,2005.
- 7.Абдуллаев А.Х.,Кадирова Ш.А.,Аъзамов А.А. Метрология, стандартизация и сертификация.Учебное пособие.Ташкент.2003.

TAYANCH IRORALAR:

Aylantiruvchi moment	Pirometrik millivoltmetr
Avtomat tarozi	Patentsiometr
Absolyut namlik	Paskal
Areometr	P'ezoelektrik effekt
Analizator	Pnevmatik qurilma
Avtomatik analizator	Psixrometr
Abtyurator	P'ezoelektrik zichlik o'chagich
Avtomatik elektron psixrometr	Rotometr
Bimetall	Sterjenli dilatometrik termometr
Bosim va siyraklanish	Sezgir element
Barometr	Sil'fon
Vaznli zichlik o'chagich	Sath
Viskozimetr	Hisoblagich
Darajalash	Sath signalizatori
Deformatsion elementlar	Temperatura
Dinamik qovushoqlik	Termodinamik shkala
Gidrostatik sath o'chagich	Termoballon
Zichlik	Termoelektr o'tkazgich
Integrallovchi asboblar	Termoelektr yurituvchi kuch
Induktsion surʼf o'chagich	Termoelektrod
Infraqizil yutilish gazoanalizatorlari	Termistor
Kengayish termometri	Tyagonaporomer
Kompesatsion quti	Tenzodatchik
Kosali manometr	Toraytirish qurilmasi

Cho'inchli tarozi	Tarozi dozator
Kompensatsiya ulash usuli	Termokonduktometrik gaz analizatori
Logometr	U – simon manometr
Metrologiya	Ulanma quduqcha
Muvozanat ko'pkilari	Uch simli ulash sxemasi
Membrana	O'Ichash o'zgartgichlari
Modda miqdori	O'Ichov asboblari
Mahsulot tarkibi	O'Ichash usullari
Manometr	O'Ichash xatoligi
Narmunaviy asboblar	Qarshilik termometri
Nol – pribor	Oalqovich
Nurlanish menbai	Haqiqiy ko'rsatkich
Nisbiy namlik	YArim o'tkazgichli termosezgich
Optiko – akustik signalizator	YUK porshenli manometr
	Elektr sath o'Ichagichlar

MUNDARIJA

Kirish .	3
I - bob. Metrologiya va o'lchov texnikasining asosiy tushunchalari.	4
1.1.O'lhash to'g'risida umumiy ma'lumot.	4
1.2. O'lchov o'zgartgichlari.	10
1.3 Unifitsirlangan o'zgartgichlar.	25
II - bob. Temperaturani o'lhash.	35
2.1 Temperatura haqida tushunchalar. Temperatura shkalalari.	35
2.2. Temperaturani o'lhashda ishlataladigan ikkilamchi asboblar.	63
III - bob. Bosim va siyraklanishni o'lhash.	74
Bosim haqida tushunchalar bosimni o'lhash asboblarini turlari.	74
IV - bob. Suyuqlik va sochiluvchan moddalarning sathini o'lhash.	89
V - bob. Moddaning sarfi va miqdorini o'lhash	95
5.1. Moddalar sarfini o'lhash asboblari	95
5.2. Moddalar miqdorini o'lhash asboblari	100
VI - bob. Moddaning xossasi va tarkibini o'lhash	106
6.1.Namlikni o'lhash asboblari	106
6.2. Suyuqliklarning zichligini o'lhash asboblari	109
6.3. Eritmalar konsetratsiyasini o'lhash asboblari	115
6.4. Suyuqliklarning qovushoqligini o'lhash asboblari	126
6.5. Gazlar tarkibini o'lcha sh asboblari	128
VII - bob. Relelar va kuchaytirgichlar	137
7.1.Releler to'g'risida umumiy ma'lumot va tushunchalar	137
7.2.Kuchaytirgichlar to'g'risida umumiy ma'lumot va tushunchalar	141
VIII- bob. Pnevmatik o'chlash asboblari to'g'risida umumiy ma'lumot.	147
8.1.Pnevmatik principial sxemalarda asboblar, yordamchi qurilmalar va aloqa liniyalar shartli belgilari.	147
IX- bob. Masofadan turib o'lhash sistemalari.	154
Adabiyotlar	164
Tayanch iboralar	165

D.M.Shomurodova, M.I.Abdurahmonova.

AVTOMATIKA ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti
“Texnotasvir” bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma №62.
Adadi 100. Bahosi kelishiigan narxda.

Manzil: Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti
Qayum Murtazoyev.15.

25000